

Z.S.Mahmudov, B.H.Abdulxafizov

INTERNETGA KIRISH

o`quv qo`llanma



Namangan-2012

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining barcha noinformatik ta'lim yo'nalishlari talabalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda internetga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Mualliflar: Zokirjon Sotivoldievich Mahmudov,
Bunyod Hakimjonovich Abdulxafizov

Taqrizchilar: dots. S.S. Irisqulov NamMPI,
Kasbiy ta'lim Informatika va informatsion
texnologiyalar kafedrası dotsenti

dots. B.Samatov NamDU
Amaliy matematika va axborot texnologiyalari
kafedrası mudiri

Ushbu o'quv qo'llanma Informatika va kompyuter texnikasi kafedrasining 2012 yil 25 yanvardagi 6-sonli yig'ilishida ko'rib chiqib, ma'qullangan.

O'quv qo'llanma NamMPI uslubiy kengashida ko'rib chiqib, chop etishga tavsiya etilgan (Qaror № 6 t/r-3 29- fevral 2012- yil)

Kitobxonga eslatma. Hurmatli kitobxon, ushbu o'quv qo'llanmada internet, uning tashkil etuvchilari va unda ishlash, ma'lumotlarni qidirish bo'yicha nazariy va amaliy materiallar keltirilgan. Qo'llanmada mualliflar tomonidan xozirgi kunda butun mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun dolzarb bo'lgan interfaol o'qitish materiallari ham qisqa va lo'nda xolatda keltirildi. Ushbu interfaol usullarni har bir inson o'z bilim darajasini oshirishda qo'llasa, bilim sifati tubdan oshishi muqarrar. Shu sababli ushbu o'quv qo'llanmani o'rganishni 18-mavzu "O'qitishning interfaol usullari" mavzusini o'rganishdan boshlashni tavsiya qilamiz. Unda keltirilgan usullar asosida o'quv qo'llanma materiallarini chuqur, tushunarli tarzda o'zlashtirasiz degan umiddamiz.

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyatda, oilada yoki ish faoliyatida, umuman olganda qayerda bo'lmasin albatta internet yoki unga aloqador biror voqea yoki so'zga duch kelamiz. Yaqindagina tor doiradagi mutaxassislargagina ma'lum bo'lgan internet bugungi kunda usiz inson xayotini o'tkazishi nursiz bir holat bo'lib qolganligi hammaga birdek ayon.

Internet - bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi "xalqaro tarmoq" degan ma'noni anglatadi. U lokal kompyuter tarmoqlarini birlashtiruvchi tarmoq bo'lib, uning mantiqiy tuzilmasi o'zining alohida axborot maydoniga ega bo'lgan virtual birlashmani tashkil etadi. Internet, unga ulangan tarmoqqa kiruvchi barcha kompyuterlarni o'zaro axborot almashish imkoniyatini yaratib beradi. O'zining kompyuteri orqali Internetning har bir abonent boshqa shaharga axborot uzatishi, Moskva davlat universiteti kutubxonasi katalogini ko'rib chiqishi, Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyining oxirgi ko'rgazmasiga qo'yilgan suratlar bilan tanishishi, xalqaro anjumanlarda ishtirok etishi, bank muomalalarini amalga oshirishi va xatto boshqa mamlakatlarda istiqomat qiluvchi tarmoq abonentlari bilan shaxmat o'ynashi, chet elda o'qiyotgan do'sti bilan qisqa muddatda xat-habar almashishi mumkin. Internet ayniqsa talaba yoshlar uchun juda kerakli yordamchi-do'st hisoblanadi. Talabalar undan barcha ma'lumotlarni – ma'ruza matnlari, uslubiy ko'rsatmalarni, referatlarni, kurs ishlari materiallarini, mustaqil ishga doir topshiriqlarni, testlarni, baxolash mezonlarini va shunga o'xshash ko'plab materiallarni olishi mumkin.

Internet XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kashfiyot tufayli butun jaxon bo'ylab yoyilib ketgan milliardlab kompyuterlarni yagona axborot muhitiga biriktirish imkoniyati tug'ildi. Internetning asosiy yacheykalari - lokal hisoblash tarmoqlaridir. Demakki, Internet alohida kompyuterlar o'rtasida aloqa o'rnatibgina qolmay, kompyuterlar guruhiga birlashish uchun yo'l ochadi. Agar biron-bir lokal tarmoq bevosita Internetga ulangan bo'lsa, u holda mazkur tarmoqning har bir ishchi stansiyasi Internetga ulanishi mumkin. Internetga mustaqil ravishda ulangan kompyuterlarni host-kompyuterlar (host - xo'jayin) deb ataladi. Tarmoqqa ulangan har bir kompyuter o'z adresiga ega va shu orqali jahonning istalgan nuqtasidagi istalgan abonent uni topa olishi mumkin.

1. AXBOROT VA UNING JAMIYATDAGI O`RNI

1.1. Axborot

1.2. Axborot uzatish

1.3. Axborot turlari

1.4. Axborot o`lchov birliklari

1.5. Axborotning jamiyatdagi o`rni

1.6. Fayl va uning turlari

1.7. Fayllar ustida amallar

1.8. Fayllarni konvertatsiya qilish

1.9. Axborot resurslari tizimlari

1.10. Axborotning salbiy va ijobiy ta`siri

1.1. Axborot. O`zbekiston Respublikasining 2002-yil 12- dekabrda qabul qilingan 439-II sonli “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to`g`risida”gi qonunida axborot so`ziga ta`rif berilgan. Axborot - manbalari va taqdim etilish shaklidan qat`iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to`g`risidagi ma`lumotlardir.

Umuman olganda axborot keng qamrovli tushuncha bo`lib, yana unga quyidagicha ta`riflarni ham berish mumkin:

1. Axborot – biz tevarak-atrofdan o`z sezgi organlarimiz orqali qabul qiladigan barcha ma`lumotlar yig`indisi (1-2-rasmlar).

2. Axborot bu - dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon kabi ob`ektlar haqidagi bilim hamda tushunchalar yoki buyruqlar majmuidir.

3. Axborot - ma`lum xos matnda aniq ma`noga ega tushunchalarni ichiga olgan dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi ob`ektlar haqidagi bilimlar majmui.


4. Axborot - qiziqish uyg`otishi mumkin bo`lgan, saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo`lgan jami dalil va ma`lumotlar.

Kitob matni, ilmiy formulalar, bank hisob raqamidan foydalanish va to`lovlar, dars jadvali, o`lchash majmualarining yer va fazo stansiyasi o`rtasidagi masofa to`g`risidagi ma`lumotlar, bozordagi narxlar va hokazolar axborot bo`lishi mumkin.

1.2. Axborot uzatish. Axborotni yaratishdan maqsad undan boshqalar foydalanishidir. Shu sababli axborotni iste`molchiga uzatish kerak bo`ladi. Axborotni uzatish deganda ehtiyojdan kelib chiqib, uni bir odamdan ikkinchi odamga yoki bir kompyuterdan ikkinchi kompyuterga turli vositalar yordamida yetkazib berish tushuniladi. Axborotlarni uzatishning turli xil usullari mavjud bo`lib, ularni kompyuter dasturlari yordamida, pochta orqali, transport vositalari yordamida, aloqa tarmog`i orqali uzatish mumkin. Aloqa tarmog`i orqali axborotlarni qisqa vaqt ichida uzoq masofaga uzatish imkoniyati mavjud. Bunda ma`lumotlarni uzatish vaqti sezilarli darajada qisqaradi.



1-rasm




2- rasm

1.3. Axborot turlari. Insonlar axborotlarni bir-biriga uzatish jarayonida matn koʻrinishdagi, jadval koʻrinishdagi, tovush koʻrinishdagi va tasvir koʻrinishdagi maʼlumotlardan foydalanadi.

Matn. Matn – bu maʼlumotlarni ifodalash shakli boʻlib, u mazmunan yagona, yaxlit va tanlangan tilning belgilari ketma-ketligidan iborat. Matn hujjat asosidir. Kompyuterga matn kiritish klaviatura, nurli pero, mikrofon yoki skaner yordamida amalga oshiriladi. Matnlarga ishlov berish matn muharriri (Word matn muharriri) deb ataluvchi maxsus amaliy dasturlar majmuasi tomonidan amalga oshiriladi. Tarmoq orqali matnlar maʼlumotlar boʻlaklari koʻrinishida uzatiladi

Tasvir. Tasvir – bu biror voqea, xodisa yoki jarayonlarni oʻzida ifodalagan rasm boʻlaklari va ranglardan iborat maʼlumotdir. Rasm, peyzaj, manzara, matematik funktsiyalar grafigi, statistik maʼlumotlar diagrammasi va shunga oʻxshash maʼlumotlar tasvir hisoblanadi (3-4-rasmlar).



3 – rasm



4-rasm

Animatsiya. Animatsiya deganda maʼlum tezlikda tasvirlarni almashtirishni tushuniladi. Unda maʼlum vaqt oraligʻida, maʼlum sondagi bir xil oʻlchamga ega boʻlgan tasvirlar tezkor almashtiriladi. Natijada multiplikatsiyaga oʻxshash harakatlanuvchi (animatsion) tasvir hosil boʻladi. Filmlar va video maʼlumotlarning asosini animatsiyalar tashkil etadi, chunki filmlar namoyishida bir soniyada 25-30 ta tasvir tezkor almashtiriladi. Shundan qilib, videofilm tarkibidagi tasvirlarni hisoblab chiqish mumkin, yaʼni bir soatlik film 3600 soniyani, undagi tasvirlar esa 90 mingtani tashkil etadi.

Animatsiya orqali quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- tayyorlangan taqdimotni sozlash;
- matn axborotini qismlashni;
- tasvir qismlarining soʻzsiz harakati jarayonini;
- rasm harakatlarini;
- tarixiy janglarning soʻzsiz harakatini;
- fizik va kimyoviy jarayonlarni;
- texnologik jarayonlarni;
- tabiiy hodisalar jarayonini;
- siyosiy hodisalar jarayonini;
- ijtimoiy hodisalar jarayonini;

1.4. Axborot oʻlchov birliklari. Har qanday maxsulotning oʻlchov birligi mavjud, masalan litr, metr, kilometr, kilogramm, volt, amper, kubometr va boshqalar. Xuddi shunga oʻxshash axborotning ham oʻlchovi mavjud. Ikkilik sanoq tizimida axborotning eng kichik birligi bit hisoblanadi, bir bit bu bitta “1” yoki bitta “0”. Unda signalning mavjudligi “1” bilan yoki yoʻqligi “0” bilan ifodalanadi. Bitlarning butun deb qaraladigan tutash ketma-ketligi bayt deb ataladi. Bayt 8 bitga teng deb qabul qilingan. Shuningdek katta hajmdagi maʼlumotlar sigʻimini oʻlchash uchun kilobayt (kb), megabayt (mb), gigabayt (gb), terabayt (tb) oʻlchamlar mavjud:

1 Kb q1024 bayt,
 1 Mbq1024 Kbayt,
 1 Gb q1024 Mbayt,
 1 Tb q1024 Gbayt.

Zamonaviy tarmoqlarda maʼlumotlarni uzatish ketma-ket amalga oshiriladi, yaʼni bir bayt axborot bitlar boʻyicha uzatiladi. Tarmoq sohasida kilobayt va megabaytlar fanning boshqa sohalaridagidek oʻnlik sanoq tizimiga mos keladi.

1.5. Axborotning jamiyatdagi oʻrni. Jamiyatni axborotlashtirish: oʻqish, mehnat, ilmiy - tadqiqot, loyihalash, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, aholiga xizmat koʻrsatishni avtomatlashtirish, tashkiliy-iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish, taʼlim va kadrlar tayyorlash tizimini axborotlashtirish kabi sohalarni oʻz ichiga oladi.

Jamiyatda axborot ham, bilim manbai ham eng asosiy muloqot vositasi boʻlib hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirishda radio, televidenie, ommaviy-axborot vositalari va ayniqsa Internet tizimining ahamiyati juda yuqoridir. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun maʼlum bir axborotdan foydalanadi. Har bir inson bozordagi narx - navoni, ob-havo maʼlumotini, transport vositalari qatnovi jadvalini, bank va biznes maʼlumotlarini, oʻzi sevgan jamoaning oʻyini natijasini hamda kundalik yangiliklardan habardor boʻlishga ehtiyot sezadi. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor boʻlmas ekan u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrardir.

1.6. Fayl va uning turlari. Fayl – bu biror sohaga oid maʼlumotning kompyuterda saqlangan koʻrinishidir. Kompyuterdagi barcha maʼlumotlar

fayllar ko`rinishida saqlanadi. Fayl yagona yaxlit deb qaraladigan ma`lumotlar yoki dastur kodlari majmuidir. Fayl o`z nomiga ega bo`lgan va tizimda saqlanadigan ma`lumotlarning asosiy elementi bo`lgan ob`ektdir. Foydalanuvchi faylni yaratishi, nusxalashi, jo`natishi va yo`q qilishi mumkin. Har bir fayl atributlar va undagi axborotdan iborat bo`ladi. Faylning atributlariga birinchi navbatda uning nomi, axborot turi, yaratilish sanasi va vaqti, undan foydalanish usuli hamda undan foydalanishga ruxsat berish shartlari kiradi. Fayllarning quyidagi turlari mavjud:

- matn ma`lumotlarni o`zida jamlagan fayllar;
- grafik ma`lumotlarni o`zida jamlagan fayllar;
- musiqa ma`lumotlarni o`zida jamlagan fayllar;
- video ma`lumotlarni o`zida jamlagan fayllar.

1.7. Fayllar ustida amallar. Yuqorida aytilganidek, fayllar o`z nomiga ega bo`lgan hamda o`zida axborotlarni jamlagan ob`ektdir. Fayldan foydalanish jarayonida ular ustida bir qancha amallarni bajarish mumkin:

- fayllarni yaratish; fayllarni nusxalash; fayllarni o`zgartirish;
- fayllarni uzatish; fayllarni o`chirish.

1.8. Fayllarni konvertatsiya qilish. Odatda fayllar o`zida saqlagan ma`lumotlarning turlariga qarab har xil ko`rinishda mavjud bo`ladi. Ko`pincha ushbu fayllardagi ma`lumotlardan foydalanish uchun ularni bir turdan boshqasiga o`girishga to`g`ri keladi. Ushbu o`girish jarayoni konvertatsiya deb nomlanadi. Konvertatsiya jarayonlari ya`ni ma`lumotlarni bir turdan boshqasiga yoki bir formatdan boshqasiga o`girish maxsus dasturiy vositalar yordamida amalga oshiriladi.

1.9. Axborot resurslari tizimlari. O`zbekiston Respublikasining 2003-yil 11- dekabrda 560-II son “Axborotlashtirish to`g`risida”gi Qonuniga binoan axborot resurslari, ommaviy axborot va axborot tizimiga quyidagicha ta`rif berish mumkin:

Axborot resurslari - alohida hujjatlar, hujjatlarning alohida to`plamlari, axborot tizimlaridagi (kutubxonalaridagi, arxivlardagi, fondlardagi, ma`lumotlar banklaridagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to`plamlari.

Ommaviy axborot - cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo`ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar to`plami.

Axborot tizimi - axborotni to`plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari majmuasi.

**1.10. Axborotning salbiy va ijobiy ta`siri.** Axborotning ijobiy tomoni shundan iboratki, o`z vaqtida olingan to`g`ri va sifatli axborot turli sohalarda aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To`g`ri va sifatli axborot insonlar, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo`lishi imkonini beradi. Aniq axborotni boshqalardan oldin egallagan inson iqtisodiy jixatdan foyda ko`radi.

Axborotning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga, an'analarimizga, ma'naviyatimizga yot bo'lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma'lumotlar ham mavjud. Ayniqsa bunday ma'lumotlar Internet tarmog'i orqali keng tarqalmoqda. Internet va SMS xabarlar orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, qadriyatlarimiz va an'analarimizga, davlatchiligimizga zid bo'lgan nojo'ya axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto'g'ri yo'llarga boshlashi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish bizning vazifamizdir. Shu sababli axoli o'rtasida, ayniqsa yoshlar orasida axborotdan foydalashi madaniyatini, immunitetini shakllantirishga aloxida e'tiborni qaratish kerak. Har doim axborotdan o'rinli va to'g'ri foydalanishni yoshlarga tushuntirish zarur.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Axborot deganda nimani tushuniladi?
2. Axborot uzatishni sharxlab bering?
3. Axborot turlari haqida nimalar bilasiz?
4. Axborot o'lchov birliklarini so'zlab bering?
5. Sizning hayotingizda axborot qanday o'rin tutadi?
6. Fayl nima?
7. Fayllar ustida qanday amallar bajarish mumkin?
8. Axborot resurslariga misollar keltiring?
9. Axborotning ijobiy jixatlarini sanang?
10. Axborotning zararli jihati nimalar?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Axborot va uning jamiyatdagi o'rni" mavzusida taqdimot yarating.
2. Axborot, fayl, axborot resurslari tushunchalarini klasterga yoying.
3. O'zingiz haqidagi batafsil ma'lumotlarni kiritgan xolda, o'z ismingiz nomi bilan fayl yaratib, chop eting.
4. Ushbu mavzu atamalariga Blum savollarini bering.
5. Ushbu mavzuni o'rtoqlaringiz bilan "miya hujumi" ni qo'llab o'rganib chiqing.

2. KOMPYUTER VA UNING TURLARI

- 2.1. *Shaxsiy kompyuter*
- 2.2. *Noutbuk va netbuklar*
- 2.3. *Sichqoncha, klaviatura va monitor*
- 2.4. *Videoproektor va ekran*
- 2.5. *Printer va skaner*
- 2.6. *Axborot saqlovchi va tashuvchi vositalar*
- 2.7. *Kompyuterda multimedia (audio, video) ma'lumotlarini namoyish etish*
- 2.8. *Kompyuterning salbiy va ijobiy jixatlari*

2.1. Shaxsiy kompyuter (bundan keyingi matnda kompyuter). Axborotni kiritish, qayta ishlash, uni o'zaro almashish va hisob-kitob ishlarini bajarish, shu jumladan elektron shakldagi axborotni oldindan belgilangan algoritm bo'yicha qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ishlov berish uchun mo'ljallangan elektron mashina. Kompyuterda bajariladigan ishlarni quyidagi 3 ta sinfga ajratish mumkin:

1. Matnli ma'lumotlarni ofis dasturlari yordamida tayyorlash;
2. Mavjud axborotlarni tarmoqlar vositasida almashish;
3. Katta – katta masalalarni sonli usulda yechish.

Kompyuter so'zi ingliz tilidagi “to compute”, “computer”, so'zlarining hosilasi bo'lib, ular “hisoblash”, “hisoblagich” deb tarjima qilinadi. Dastlab ingliz tilida bu so'z, mexanik qurilmani jalb qilib yoki uning ko'magisiz arifmetik hisoblarni bajaradigan insonni anglatgan. Keyinchalik uning ma'nosi mashinalarning o'ziga ko'chirildi, biroq, zamonaviy kompyuterlar matematika bilan bevosita bog'liq bo'lmagan ko'plab masalalarni ham bajaradilar. XX asrning 90-yillaridan boshlab, kompyuter atamasi elektron hisoblash mashinalari (EHM) atamasini amalda siqib chiqardi. Kompyuter quyidagi asosiy bloklardan iborat (5-rasm):

- asosiy xotira; monitor; protsessor; klaviatura; tashqi qurilmalar.



5-rasm

Kompyuter - bu turli hajmdagi, har xil ko'rinishdagi axborotlarni tezlik bilan ishlab berishni ta'minlovchi universal avtomatik qurilmadir.

2.2. Noutbuk va netbuklar.

Shaxsiy kompyuterning kamchiligi uni xarakatlantirib bo'lmashligi va elektr tokiga muntazam bog'likligidir. Bu kamchilikni bartaraf etishda bizga noutbuklar yordam beradi (6-rasm). Noutbuk – mobil, ixcham shaxsiy kompyuter. Uning asosiy qismi va monitori birlashgan holda bo'ladi. Bunday kompyuterlarning ko'pchiligi deyarli standart klaviaturaga, kompyuter grafikasi vositalariga ega. Bunday kompyuterlar unchalik katta bo'lmagan qattiq disklar yoki optik disklar bilan ishlaydi.



6-rasm.

Netbuk - Internetdan foydalanish va ofis dasturlari bilan ishlash uchun mo'ljallangan kichik noutbukdir (6-rasm). Netbuklar ixcham o'lchamlari, kichik vazni, kam energiya iste'moli va nisbatan arzon narxlar bilan kompyuter va noutbuklardan ajralib turadi.

Netbuklar Noutbuklarga nisbatan yengil, ixcham va foydalanishda juda qulaydir. Netbuklarda Noutbuklarga nisbatan ayrim tashqi qurilmalar mavjud bo'lmaydi, masalan, kompakt disk larni o'qish qurilmasi.

2.3. Sichqoncha, klaviatura va monitor .

Sichqoncha - kompyuterga ma'lumot kiritish qurilmasi bo'lib, biror tekislik bo'ylab harakatlantirilganda tagidagi lazer nuri harakat haqidagi ma'lumotni kompyuterga uzatadi va ekrandagi ko'rsatkich (kursor) mos yo'nalishlarda harakatlanadi (7-rasm). Sichqonchani tugmalari yordamida kompyuterga biror buyruq berish, undagi dasturlar va jarayonlarni ishga tushirish hamda hujjatlarni ochish mumkin.



7-rasm

Klaviatura - muayyan qurilmani boshqarish yoki axborotni kiritish uchun mo'ljallangan tugmalar (klavishlar) to'plamidan iborat bo'lgan qurilma yoki ekrandagi tasvir (7-rasm). Texnik va mexanik qurilmalarni (kalkulyator, kompyuter, telefon, kassa apparati) boshqarish uchun alifbo-raqamli klaviaturalar qo'llaniladi.

Klaviaturalardagi har bir tugmaga bir yoki bir necha belgi biriktiriladi. Tugma birikmalari klaviaturadan bajariladigan amallarning sonini ko'paytirishga imkon beradi.

Monitor kompyuterning ish jarayonida vujudga keladigan axborotlarni ekranda yoritishga xizmat qiladigan qurilma (7-rasm). Monitor *grafik* yoki *matn* holatida ishlashi mumkin. Matn holatida *belgi o'rinlari* deyiluvchi alohida qismlarga, grafik holatida esa *piksel* nomli nuqtalarga bo'linadi. Monitordagi piksellarning umumiy miqdori hamda ranglar soni monitoring *imkon darajasini* (kengligini) belgilaydi.

2.4. Videoproektor va ekran. Ba'zan kompyuterdagi ma'lumotlarni ko'pchilikka ko'rsatish extiyoji tug'iladi. Masalan o'qitishda, taqdimotlarda, konferentsiyalarda, majlislarda va hokazo. Bu xolda bizga videoproektordan foydalanishimiz kerak. Projektorlar va ekranlar ma'lumotlarni yirik o'lchamda tasvirlash uchun ishlatiladigan qurilmalardir. Unda tasvir o'lchami ekranda yirik holatda aks ettiriladi. Bu qurilmalar kompyuter bilan birgalikda foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, ko'proq katta auditoriyalarda va zallarda hamda turli majlislarda taqdimot va videoroliklarni namoyish qilish uchun ishlatiladi.

Videoproektor kompyuter va shunga o'xshash namoyish vositalarining alohida qo'shimcha monitori hisoblanib, tasvirlarni yirik hajmda ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

Ekran - videoproektor orqali yoritilayotgan materiallarni o'zida tasvirlovchi element. Ekran auditoriya, majlis zalining barchaga ko'rinadigan joyiga o'rnatiladi.

2.5. Printer va skaner. Printer - kompyuterdagi ma'lumotlarni qog'ozga chiqarish qurilmasi (8-rasm). Printerlarning uch xili mavjud: matritsali, purkovchi va lazerli. Matritsali printer ignalar yordamida, purkovchisi naycha yordamida, lazerli printer esa maxsus baraban yordamida chop qiladi. Purkovchi hamda lazerli printerlar yordamida rangli ma'lumotlarni chop etish mumkin. Hozirgi kunda matritsali printerlardan foydalanilmaydi.

Skaner - qog'ozdagi ma'lumotlarni nurli lampa yordamida rasmlari ko'rinishda kompyuter xotirasiga o'qib, uzatuvchi qurilma (9-rasm). Skanerlarning asosan ikki turi mavjud: stol usti skanerlari va qo'l skanerlari. Skanerlar kompyuter xotirasiga ma'lumotlarni tezkor kiritish imkoni beradi va ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



8-rasm



9-rasm

2.6. Axborot saqlovchi va tashuvchi vositalar.

Flesh disklar juda katta hajmdagi axborotni o'z ichiga sig'dira oladigan yarim o'tkazgichli elementlardan qurilgan xotira (10-rasm). Hozirgi kunda flesh xotiralarning hajmi 32 Gb gacha bo'lgan axborotni o'ziga sig'dira oladi. Flesh xotiralar o'lcham jihatidan juda kichik bo'lib foydalanish uchun juda qulay. Ma'lumot yozish tezligi 6700 kbayt/sek gacha yetadi. Ma'lumot o'qish tezligi esa 18000 kbayt/sek gacha boradi. Flesh xotiralar hozirgi kunda eng asosiy axborot tashuvchilardan hisoblanadi.

CD disklar – bu kompakt disk so'zlarining bosh harflaridan olingan nomli disklar bo'lib, axborotlarni saqlash uchun optik yuzadan iborat, yumaloq disk ko'rinishidagi axborot tashuvchi hisoblanadi (10-rasm). Kompakt disklar 700 Mbayt hajmga ega bo'lib, unga ma'lumot disk o'quvchi qurilmaning lazer nuri yordamida yoziladi va o'qiladi.



Flesh

CD - DVD disk o'quvchi

CD - DVD disklar

10-rasm

DVD disklar – bu dijital video disk so'zlarining bosh harfidan iborat nomli disklar hisoblanadi (10-rasm). Bu disklar 4.5 Gbayt hajmga ega bo'lib, CD diskarga nisbatan 7 barobar ko'p axborot sig'dirishi mumkin.

Har ikkala turdagi disklar ham optik rejimda ma'lumotlarni yozish, o'qish va saqlash xususiyatiga ega bo'lib, ixtiyoriy turdagi ma'lumotlarni tashish imkoniyatiga ega.

Hozirgi kunda ushbu diskarning yangi avlodlari ishlab chiqarilmoqda, ular CD-RW va DVD-RW ko'rinishida belgilanadi. Bunday turdagi diskarga axborotlarni yozish, o'chirish va qayta yozish mumkin.

2.7. Kompyuterda mul timedia (audio, video) ma'lumotlarini namoyish etish. Kompyuter hozirgi kunda matnlar bilan ishlab, hisoblashlarni bajaribgina qolmay, balki musiqa va video ma'lumotlarni ham qayta ishlash va namoyish qilish imkoniyatiga ega.

Kompyuterda musiqa tinglash uchun kompyuterga qo'shimcha karnay (kolonka) yoki quloqqa taqiladigan maxsus uskuna ulangan bo'lishi talab qilinadi. Shundan so'ng musiqalarni namoyish etishga mo'ljallangan maxsus dastur (Winamp) yordamida musiqa tinglash mumkin. Hozirgi kunda kompyuterlarda musiqalarning MP3 formati keng tarqalgan.

Kompyuterlarda video namoyishi uning ekrani orqali amalga oshiriladi. Bunda videofilmlarni namoyish etishga mo'ljallangan maxsus dasturlar (Media player) yordamida filmlarni kompyuter ekranida tomosha qilish va uning ovozi karnaylar orqali eshitish mumkin. Hozirgi kunda kompyuterlarda video ma'lumotlarning MPG va AVI turlari keng tarqalgan.

Musiqalar va videomateriallar odatda kompakt disklar yordamida tashiladi va ularda saqlanadi. Disklardagi musiqa va videolar esa kompyuterning disk o'quvchi qurilmasi yordamida namoyish etiladi.

2.8. Kompyuterning salbiy va ijobiy jihatlari. Kompyuterdan foydalanish bo'yicha ma'lum me'yorlar, qoidalar va talablar mavjud. Bunga kompyuterning joylashishi, xonaning yorug'ligi, havo almashishiga bo'lgan gigiyenik talablar va texnika xavfsizligi qoidalari kiradi. Kompyuter ishlash vaqtida o'zidan elektromagnit to'lqinlarni tarqatadi, bu esa o'z navbatida kompyuterdan uzoq vaqt foydalanilganda inson sog'lig'iga zarar yetkazishini anglatadi. Kompyuterning noto'g'ri joylashishi foydalanuvchining tanasi tuzilishiga, kompyuter joylashgan xonaning yorug'lik darajasi esa kompyuterning foydalanuvchi ko'rish qobiliyatiga ta'sirini belgilaydi. Maktab yoshigacha bo'lgan foydalanuvchi kompyuter bilan 15-20 minut ishlashi mumkin. Maktab yoshidagi 1-2 soat oralig'ida kompyuterda ishlashi mumkin. KHK va AL o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalari esa bir ish kuni davomida 3-4 soat atrofida ishlashi mumkin. Kompyuter bilan ishlayotganda, ayniqsa yoshlar ishlayotganda muntazam nazorat darkor.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Shaxsiy kompyuter nima uchun kerak?
2. Noutbuk va netbuklar imkoniyatlari kompyuterdan qanday farq qiladi?
3. Videoproektor vazifasini sanang?
4. Chop etuvchi qurilmalar haqida nima bilasiz?
5. Axborot saqlovchi va tashuvchi vositalarni imkoniyatlari?
6. Multimedia so'zini sharxlab bering?
7. Kompyuterning ijobiy tomonlarini bir tomonga, salbiy tomonlarini ikkinchi tomonga yozing.

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. “Kompyuter va uning turlari” mavzusida taqdimot yarating.
2. “Chop etuvchi qurilmalar” mavzusida slayd yarating.
3. Kompyuter, noutbuk, monitor, videoproektor so`zlarini klasterga yoying.
4. Kompyuter, noutbuk va netbuk qo`sh so`zlari ishtirokida Venn diagrammasini tuzing.
5. Ushbu mavzuni insert usulini qo`llab o`rganib chiqing.

3. ALOQA VOSITALARI VA MOBIL ALOQA TEXNOLOGIYALARI

3.1. Mobil telefon va mobil aloqa

3.2. Mobil aloqa xizmati operatorlari

3.3. Mobil aloqa xizmatlari

3.4. Mobil aloqa vositalari

3.5. Mobil aloqa vositalari yordamida axborot almashish

3.6. Mobil telefonlardan foydalanish va axborot almashish madaniyati

3.1. Mobil telefon va mobil aloqa . Mobil telefon – mobil aloqada foydalaniladigan telefon apparati turi (11-rasm). Hozirgi kunda, mobil telefon klaviatura va ekranga ega bo'lib asta-sekin kompyuter, faks apparati, telefon apparati, qaydlar kitobchasi vazifalarini bajaruvchi ko'p maqsadli abonent tizimiga aylanmoqda. Mobil aloqa muhiti – tayanch stantsiyalar va bir guruh abonentlar tizimidan iborat bo'lib, abonentlarning bir-birlari bilan o'zaro axborot almashinuvini ta'minlovchi texnik vositalar majmuasi hisoblanadi. Mobil aloqa tizimida barcha ma'lumotlar mobil telefon orqali elektromagnit to'lqinlari ko'rinishida simsiz havo orqali uzatiladi.



11 - rasm

3.2. Mobil aloqa xizmati operatorlari. Mobil aloqa xizmati operatorlari – abonentlar (mijozlar) uchun mobil aloqa xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotdir. Operatorlar vazifasiga radio chastotadan foydalanish va xizmat ko'rsatish uchun kerakli hujjatlarni olish, o'zining mobil tarmog'ini tashkil qilish, foydalanish, xizmat shartlarini ishlab chiqarish, xizmat to'lovlarini yig'ish va texnik xizmat ko'rsatish kiradi. Hozirgi paytda O'zbekiston hududida 5 ta mobil aloqa operatori xizmat ko'rsatmoqda, bular “Uzdunrobita” MChJ HK – MTS, “Yunitel” MChJ HK - Bilayn, “Koskom” MChJ – Ucell, “Rubicon wireless communication” MChJ – “Perfektum Mobayl”, O'zbektelekom AK – “O'zbektelekom Mobayl”. Ushbu 5 ta mobil operator tomonidan bugungi kunda mobil so'zlashuv, SMS, MMS, GPRS, Internet kabi xizmatlar ko'rsatilmoqda.

3.3. Mobil aloqa xizmatlari. Mobil aloqa xizmatlari – mobil aloqa vositalari yordamida abonentlarning soʻzlashuvi, mobil internet va pochta xizmatlari amalga oshiriladi.

Soʻzlashuv – telefon raqami terilganda joriy mobil operator tayanch stantsiyaning antenasi chaqirayotgan va chaqirilayotgan abonentlarni aniqlaydi. Shundan soʻng ushbu axborot uzib ulagichga (kommutator) yuborilib ikkita abonent bogʻlanadi va ushbu abonentlar orasida soʻzlashuv (maʼlumot almashinish) amalga oshiriladi. Yaʼni, ikkita harakatlanuvchi abonentning mobil telefonlar orqali oʻzaro muloqoti – soʻzlashuv amalga oshiriladi.

Mobil Internet – harakatdagi abonentlar uchun mobil aloqa tarmoqlari orqali Internet resurslaridan foydalanish texnologiyasidir. Mobil aloqa tarmoqlarida soʻrovlar va soʻzlashish maʼlumotlari axborotlarning paketli koʻrinishida uzatiladi. Bunda yuqori darajali xizmatni amalga oshirish, ayniqsa biznesni samarali boshqarish imkoniyati yaratiladi. Mobil Internetning qulayligi shundan iboratki, bunda foydalanuvchining qayerda va qanday holatda boʻlishidan qatʼiy nazar u mobil aloqa tarmogʻi orqali Internet xizmatlaridan foydalanishi imkoniyatiga ega boʻladi. Mobil Internet xizmatidan foydalanish uchun maxsus simsiz modem qurilmasi yoki ushbu xizmat yoqtirilgan mobil telefon mavjud boʻlishi kerak.

Mobil pochta - Internet resurslaridan foydalangan holda abonentning mobil telefoni orqali shaxsiy elektron pochta xizmatidan foydalanish imkoniyati. Bunda Internet tarmogʻi yordamida oddiy elektron pochta xizmatidan foydalanish kabi mobil telefonlar yoki boshqa mobil aloqa vositalari orqali ixtiyoriy vaqtda ixtiyoriy joyda elektron pochta xizmatidan foydalanish, yaʼni pochta xabarlarini olish, oʻqish va javob yoʻllash mumkin (12-rasm).



12 - rasm

3.4. Mobil aloqa vositalari. Hozirgi kunda mobil telefonlarning va boshqa mobil aloqa vositalarining shunday turlari ishlab chiqarilmoqda-ki, ular vazifalari jihatidan personal kompyuterdan qolishmaydi. Mobil aloqa vositalari yordamida hujjatlar bilan ishlash, musiqa tinglash, videoklip tomosha qilish, oʻyinlar oʻynash, hatto radioeshittirish va televideniya ham bahramand boʻlish mumkin.

Smartfon (*smartphone*) inglizchadan tarjima qilinganda “aqlli telefon” ma’nosini anglatadi (13-rasm). Funksionalligi jihatidan cho’ntak shaxsiy kompyuteriga yaqin bo’lgan mobil telefon. Bunda cho’ntak kompyuterining barcha vazifalari mujassamlangan.

iPone - to’rt diapazonli multimediyali smartfonlar lineykasi. iPone o’zida telefonning asosiy vazifalaridan tashqari kommunikator va internet planshetlarning asosiy funksiyalarini ham qamrab olgan.

Internet planshetlar – bu maxsus mobil qurilma bo’lib, shaxsiy kompyuterning klassik namunasi. Planshetlar (masalan iPad) tashqi ko’rinish jihatidan kompyuterdan butunlay farq qiladi. Planshetlar faqatgina ekrandan tashkil topgan bo’lib, boshqa qo’shimcha qurilmalar (sichqoncha, klaviatura) virtual ko’rinishda tashkil etilgan. Planshetlar to’liqligicha mobil aloqa muhiti orqali Internet xizmatlaridan foydalanishga va hujjatlar bilan ishlashga ixtisoslashgan.



13- rasm

3.5. Mobil aloqa vositalari yordamida axborot almashish. Mobil aloqa vositalari yordamida axborotlarni uzatish Bluetooth, SMS va MMS texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Bluetooth – kichik qamrov doirasiga ega bo’lgan simsiz aloqa texnologiyasi. Tarmoq qurilmalari orasidagi o’zaro muloqotni va ularning Internetga ulanishini yengillashtiradi. U turli elektron qurilmalari va kompyuterlar orasida ma’lumotlar almashishni osonlashtiradi. Bluetooth kichik ma’lumot oqimlarini uzatish uchun mo’ljallangan, shuning uchun mahalliy va global tarmoq texnologiyalarining o’rnini bosa olmaydi.

SMS (Short Message Service) – qisqa xabarlar xizmati. Mobil aloqa tarmoqlarida abonentlarning bir-birlariga qisqa matn xabarlarini uzatish va qabul qilish xizmati hisoblanadi. Qisqa xabarlar deyilishiga asosiy sabab texnologik jihatdan bir xabar uzatishda maksimum 140 ta belgini uzatish mumkin.

MMS (Multimedia Messaging Service) – GPRS texnologiyasiga asoslangan multimedia xabarlarini almashish xizmati. Xizmat rangli rasm, fotosurat, musiqa va hatto videoroliqlarni uzatish va qabul qilish imkonini beradi. MMS texnologiyasi bevosita xabar matniga tasvir va musiqani biriktirishni nazarda tutadi. MMS-xabarlarini jo’natish-qabul qilish uchun, MMS xizmatni nafaqat telefon qurilmasi, balki mobil aloqa operatori ham qo’llashi zarur.

3.6. Mobil telefonlardan foydalanish va axborot almashish madaniyati.

Mobil telefonlar va boshqa mobil aloqa vositalaridan foydalanganda soʻzlashish madaniyatiga, xabarlarini yozish va elektron pochtaidan foydalanish etikasiga hamda telefon apparatidan foydalanish qoidalariga rioya qilish zarur. Telefon orqali nojoʻya soʻzlarni gapirish, turli nojoʻya xabarlarini joʻnatishdan saqlaning. Mobil aloqa vositalaridan ayniqsa yoshlar foydalanishiga eʼtibor berish lozim. Chunki mobil aloqa vositalari yuqori chastotali toʻlqinlarda ishlaydi. Undan meʼyorida foydalanish taqazo etadi.

Mavzu boʻyicha savollar:

1. Mobil aloqa vositalari ishlash prinsipini tushuntiring?
2. Oʻzbekistondagi mobil aloqa operatorlari haqida soʻzlab bering?
3. Oʻzingiz, oila aʼzolaringiz va doʻstlaringiz foydalanayotgan mobil aloqa kompaniyasi haqida nimalar bilasiz?
4. SMS va MMS xizmatidan qanday foydalanasiz?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. “Aloqa vositalari va mobil aloqa texnologiyalari” mavzusida taqdimot yarating.
2. Mobil telefon, SMS, MMS soʻzlarini klasterga yoying.
3. Ushbu mavzuni insert usuli boʻyicha oʻrganib chiqing.
4. Quyidagi qoʻshaloq soʻzlar uchun Venn diagrammasini tuzing:
 - 1) Mobil telefon Mobil aloqa
 - 2) SMS, MMS
5. Ushbu mavzuni oʻrtoqlaringiz bilan “miya hujumi” usulini qoʻllab oʻrganib chiqing.

4. KOMPYUTER TARMOQLARI

- 4.1. *Kompyuterlarni bog'lash*
- 4.2. *Tarmoq va uning ahamiyati*
- 4.3. *Tarmoq taqdim etadigan xizmatlar*
- 4.4. *Axborotni uzatish va qabul qilish*
- 4.5. *Manzil tushunchasi*
- 4.6. *Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar*
- 4.7. *Axborot uzatish tezligi*
- 4.8. *Oliy ta'lim muassasalari, kasb hunar kollejlari, akademik litseylar va maktablarning kompyuter tarmoqlari*

4.1. Komp yuterlarni bog'lash. Kompyuterlar orasida ma'lumot almashish va umumiy masalalarni birgalikda yechish uchun kompyuterlarni bir-biri bilan bog'lash ehtiyoji paydo bo'ladi. Kompyuterlarni bir-biri bilan bog'lashda ikki xil usuldan foydalaniladi:

1. **Kabel yordamida bog'lash.** Bunda kompyuterlar bir-biri bilan koaksial, o'ralgan juftlik kabeli (UTR) yoki shisha tolali kabellar orqali maxsus tarmoq plata yordamida bog'lanadi.

2. **Simsiz bog'lanish.** Bunda kompyuterlar bir-biri bilan simsiz aloqa vositalar yordamida, ya'ni radio to'lqinlar, infraqizil nurlar, WiFi va Bluetooth texnologiyalari yordamida bog'lanadi.

Bir-biri bilan bog'langan kompyuterlarning bunday majmuasi kompyuter tarmog'ini tashkil etadi.

4.2. Tarmoq va uning ahamiyati. Tarmoq bu - kompyuterlar, terminallar va boshqa qurilmalarning yuqori sifat bilan tezkor ma'lumot almashishni ta'minlaydigan aloqa kanallari bilan o'zaro bog'langan majmui. Kompyuterlararo ma'lumotlarni almashishni ta'minlab beruvchi bunday tarmoqlar kompyuter tarmoqlari deb ataladi.

Tarmoq orqali axborotlarni uzoq masofalarga uzatish imkoniyati vujudga keldi. Tarmoq axborotlarni uzatish, alohida foydalanilayotgan kompyuterlarni birgalikda ishlashini tashkil qilish, bitta masalani bir nechta kompyuter yordamida yechish imkoniyatlarini beradi. Bundan tashqari har bir kompyuterni ma'lum bir vazifani bajarishga ixtisoslashtirish va kompyuterlarning resurslaridan (ma'lumotlari, xotirasi) birgalikda foydalanish, hamda butun dunyo kompyuterlarini o'zida birlashtirgan Internet tarmog'iga bog'lanish mumkin.

4.3. Tarmoq taqdim etadigan xizmatlar. Kompyuter tarmoqlari axborotlarni elektr signallari ko'rinishida uzatish va qabul qilishga ixtisoslashgan muhit. Tarmoqlar biror maqsadga erishish uchun quriladi, ya'ni bog'langan kompyuterlar orqali biror masalalarni yechish uchun ixtisoslashtiriladi. Tarmoq xizmatlariga quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

- **Fayl server xizmati.** Bunda tarmoqdagi barcha kompyuterlar asosiy kompyuterning (server) ma'lumotlaridan foydalanish yoki o'z ma'lumotlarini asosiy kompyuter xotirasiga joylashtirish mumkin;

- **Print server xizmati.** Bunda tarmoqdagi barcha kompyuterlar o'z ma'lumotlarini xizmat joriy qilingan kompyuter boshqaruvi orqali qog'ozga chop qilishi mumkin;
- **Proksi server xizmati.** Bunda tarmoqqa ulangan barcha kompyuterlar xizmat joriy qilingan kompyuter boshqaruvi orqali bir vaqtda Internet yoki boshqa xizmatlardan foydalanishi mumkin;
- **Kompyuter va foydalanuvchi boshqaruvi xizmati.** Bunda tarmoqqa ulangan barcha kompyuterlarning va ularda qayd qilingan foydalanuvchilarning tarmoqda o'zini tutishi hamda faoliyat yuritishi belgilanadi va nazorat qilinadi.

4.4. Axborotni uzatish va qabul qilish. Tarmoq har doim bir nechta kompyuterlarni birlashtiradi va ulardan har biri o'z axborotlarini uzatish va qabul qilish imkoniyatiga ega. Axborot uzatish va qabul qilish kompyuterlar o'rtasida navbat bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun har qanday tarmoqda axborot almashinuvi boshqarib turiladi. Bu esa o'z navbatida kompyuterlar o'rtasidagi axborot to'qnashishi va buzilishini oldini oladi yoki bartaraf qiladi.

Kompyuterlar tarmoqlari tashkil etilgandan so'ng undagi barcha kompyuterlarning manzillari belgilanadi. Chunki axborotlarni tarmoq orqali bir kompyuterdan boshqasiga uzatish kompyuter manzillari orqali amalga oshiriladi. Jo'natilayotgan axborotga oddiy hayotimizdagi xat jo'natish jarayoni kabi uzatuvchi va qabul qiluvchi manzillari ko'rsatiladi va tarmoqqa uzatiladi. Har bir kompyuter kelgan axborotdagi qabul qiluvchi manzilini o'zining manzili bilan solishtiradi, agar manzillar mos kelsa, u holda axborotni qabul qilib oladi va uzatuvchiga qabul qilib olganligi to'g'risida tasdiq yo'llaydi. Xuddi shu tariqa kompyuterlararo axborot almashiniladi.

4.5. Manzil tushunchasi. Kompyuter tarmoqlarida manzil tushunchasi sifatida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

1. Manzil kompyuter xotirasining qismlarini, kompyuter kiritish-chiqarish qurilmalari portini, hisoblash tarmog'i kompyuterlarini hamda boshqa ma'lumot manbalarini yoki ularni uzatish uchun belgilangan joyni aniqlaydi.

2. Manzil hisoblash tarmoqlarida uzatilayotgan ma'lumotlarni qabul qiluvchi yoki jo'natuvchilarni aniqlovchi ma'lumotlar ketma-ketligi.

4.6. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar. Kompyuter tarmoqlarini ularning geografik joylashishi, masshtabi hamda hajmiga qarab bir nechta turlarga ajratish mumkin:

Lokal tarmoq - bir korxona, tashkilot, oliy o'quv yurti yoki muassasaga qarashli bir nechta yaqin binolardagi kompyuterlarni o'zaro bog'lagan tarmoq. Uning uzunlik chegarasi 2-2,5 km dan oshmasligi maqsadga muvofiq.

Mintaqaviy tarmoqlar – mamlakat, shahar, va viloyatlar darajasida kompyuterlarini va lokal tarmoqlarni maxsus aloqa yoki telekommunikatsiya kanallari orqali o'zaro bog'lagan tarmoqlar. Masalan Asaka avtomobil zavodi, Toshkent traktor zavodi kabi ulkan ishlab chiqarish korxonalari xududidagi mavjud kompyuterlarni birlashtirish.

Global tarmoqlar - o'ziga butun dunyo kompyuterlarini, abonentlarini, lokal va mintaqaviy tarmoqlarini telekommunikatsiya (kabelli, simsiz, sun'iy yo'ldosh) aloqalari tarmog'i orqali bog'lagan yirik tarmoq.

4.7. Axborot uzatish tezligi. Ma'lum vaqt oralig'ida aloqa muhirlari orqali uzatiladigan axborot hajmi - uning uzatilish tezligini belgilaydi.

Xar qanday harakatlanuvchi jism va modda uchun tezlik tushunchasi va uning o'lchov birliklari mavjud bo'lganidek, axborotning ham uzatish tezligi hamda o'lchov birliklari mavjuddir, bular:

- Bit/sekund – bir soniyada aloqa muhiti orqali uzatiladigan bitlar soni;
- Kbit/sekund – bir soniyada aloqa muhiti orqali uzatiladigan minglab yaxlitlangan bitlar soni;
- Mbit/sekund – bir soniyada aloqa muhiti orqali uzatiladigan millionlab yaxlitlangan bitlar soni;
- Gbit/sekund – bir soniyada aloqa muhiti orqali uzatiladigan milliardlab yaxlitlangan bitlar soni.

Axborot kanallarining sig'imi ular orqali ma'lum vaqt oralig'ida uzatiladigan axborot hajmi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida axborot kanallarining o'tkazish qobiliyatini anglatadi.

4.8. Oliy ta'lim muassasalari, kasb hunar kollejlari, akademik litseylar va maktablarning kompyuter tarmoqlari. Oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va maktablarning kompyuter tarmoqlari hamda ular asosida yechiladigan masalalar quyidagilardan iborat:

- axborotni tashkil qilish va izlab topish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida axborot va bilimlarni almashishga imkoniyatini yaratish;
- fanlardan bilimlarini chuqurlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni tarmoqdan qidirish;
- talabalarning fanlardan mustaqil ishlarni bajarishi;
- elektron kutubxonadagi manbalardan foydalanish;
- masofaviy ta'lim olish;
- hisobotlar tayyorlash va uzatish;
- elektron hujjat almashishni tashkil qilish;
- talabalar ota-onalari farzandlarining o'zlashtirishi va davomatini kuzatib borish.
- talabalar haqida ma'lumotlar bazasini yaratish.

Bundan tashqari hozirgi kunda Respublikamizda ta'lim muassasalarining ta'lim tarmog'i yaratilgan. Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'i barcha ta'lim muassasalarining axborot resurslarini o'zida jamlagan. Hozirgi kunda barcha o'qituvchilar, o'quvchilar va talabalar ushbu tarmoqdan foydalanish imkoniyatiga ega. Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'i axborotlarni joylashtirish, toifalash, guruhlash hamda ularni qidirib topish imkoniyatini taqdim etadi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Kompyuter tarmoqlarini tavsiflang?
2. Lokal tarmoq ijobiy va salbiy jixatlarini sanab bering?
3. Axborot uzatish tezligi haqida nimalarni bilasiz?
4. Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'idan qanday ma'lumotlar olasiz?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Kompyuter tarmoqlari" mavzusida taqdimot yarating.
2. Kompyuter sinfida lokal tarmoq orqali institut elektron kutubxonasidan shu mavzuni toping.
3. Quyidagi qo'shaloq so'zlar uchun Venn diagrammasini tuzing:
 - 1) Axborot uzatish. Axborot qabul qilish.
 - 2) Lokal tarmoq . Regional tarmoq . Global tarmoq.
4. Tarmoq, manzil so'zlarini klasterga yoying.
5. Ushbu mavzuni insert usulini qo'llab o'rganib chiqing.

5. INTERNET TARMOG'I

5.1. *Internet tarixi*

5.2. *Internet*

5.3. *Global tarmoq*

5.4. *Internet tarmog'ining tuzilishi*

5.5. *Internetga bog'lanish*

5.6. *Telefon liniyasi orqali Internetga ulanish*

5.7. *Mobil aloqa vositalari yordamida Internetga ulanish*

5.8. *Modem*

5.9. *O'zbekiston Respublikasida Internet tarmog'ining rivojlaniish*

5.1. Internet tarixi. Internet davlat buyurtmalarini bajarishda tashkilotlarning birgalikda olib boriladigan faoliyatlarini yengillashtirish maqsadida 1969 - yilda AQSh mudofaa vazirligining loyihasi asosida vujudga kelgan. Bu boshlang'ich tarmoq ARPANet (Advanced Pesearch Projects Agency) bo'lib avvalo Kaliforniya va Yuta shtatlaridagi 4 tagina kompyuterni o'zaro bog'lagan. 1972 yilda ARPANet tajriba tarmog'i namoyish etildi. U 40 ta kompyuterdan iborat bo'lib, barcha kompyuterlar teng huquqli bo'lishga va resurslarga faqat faylga murojaat qilishga mo'ljallangan dasturiy ta'minot yordamidagina kirish mumkin bo'lgan.

Keyinchalik bu tarmoq kengayib 80- yillar oxirida AQSh milliy ilmiy jamiyatining ixtiyoriga topshirilib, NSFNet shaklida rivoj topgan. Mazkur tarmoq hozirgi Internet ning tayanch tarmog'i hisoblanadi.

Internetdan foydalanishda quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

- 1981 yilda 213 ta kompyuter;
- 1983 yilda 562 ta kompyuter;
- 1986 yilda 5089 ta kompyuter;
- 1992 yilda 727000 ta kompyuter;
- 1995 yilda 20 mln.dan ortiq kompyuter.
- 2012 yilda 2 milliard 100 milliondan ortiq kompyuter


Ya'ni, Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar soni yil sayin ortib bormoqda.

5.2. Internet. Internet bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya'ni "International Network" – xalqaro tarmoq va "Interconnected networks" «tarmoqlararo» degan ma'noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi bo'lib, o'zining alohida axborot maydoniga ega bo'lgan virtual to'plamdan tashkil topadi.

Internet tarmog'i, unga ulangan barcha kompyuterlarning o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatini yaratib beradi. Internet tarmog'ining har bir mijozi o'zining shaxsiy komp yuteri orqali boshqa shahar yoki mamlakatga axborot uzatishi mumkin. Masalan, Moskva Davlat Universtiteti kutubxonasi katalogini ko'rib chiqish, Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj muzeyining oxirgi ko'rgazmasiga qo'yilgan suratlar bilan tanishish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish, bank

muomalalarini amalga oshirishi va hatto boshqa mamlakatlarda o'qiyotgan og'aynilar bilan aloqa qilish mumkin.

5.3. Global tarmoq. Internet tarmog'ining asosiy yacheykalari (qismlari) bu shaxsiy kompyuterlar va ularni o'zaro bog'lovchi lokal tarmoqlardir (14-rasm).



14 - rasm

Internet alohida kompyuterlar o'rtasida aloqa o'rnatibgina qolmay, balki kompyuterlar guruhini o'zaro birlashtirish imkonini ham beradi. Agar biror - bir mahalliy tarmoq bevosita internetga ulangan bo'lsa, u holda mazkur tarmoqning har bir ishchi stansiyasi (kompyuteri) Internet xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Internet tarmog'iga mustaqil ravishda ulangan kompyuterlarni host kompyuterlar (host – asosiy hisoblash mashinasi) deb atashadi. Tarmoqqa ulangan har bir kompyuter o'z manziliga ega va u yordamida dunyoning istalgan nuqtasidagi istalgan foydalanuvchi bilan muloqot qila olishi mumkin.

5.4. Internet tarmog'ining tuzilishi. Internet o'z-o'zini shakllantiruvchi va boshqaruvchi murakkab tizim bo'lib, asosan uchta tarkibiy qismdan tashkil topgan:

- texnik; - dasturiy; - axborot.

Internet tarmog'ining **texnik ta'minoti** - har xil turdagi kompyuterlar, aloqa kanallari (telefon, sun'iy yo'ldosh, shisha tolali va boshqa turdagi tarmoq kanallari) hamda tarmoqning texnik vositalari majmuidan tashkil topgan.

Internet tarmog'ining **dasturiy ta'minoti** (tarkibiy qismi) tarmoqqa ulangan xilma-xil kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida (yagona tilda) ishlashni ta'minlovchi dasturlar.

Internet tarmog'ining **axborot ta'minoti** - Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan turli elektron hujjatlar, grafik, rasm, audio yozuv, video tasvir, Web-sayt va hokazo ko'rinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgan.

Internetning ikkita asosiy vazifasi bo'lib, buning birinchisi axborot makoni bo'lsa, ikkinchisi esa kommunikatsion vositasidir.

5.5. Internetga bog'lanish. Internet tarmog'iga ulanish ajratilgan aloqa kanali (optik tola, sun'iy yo'ldosh aloqasi, radiokanal, ajratilgan kommutatsiyalanmaydigan telefon liniyasi) bo'yicha doimiy ulanish, shuningdek kommutatsiyalanadigan, ya'ni uzib-ulanadigan ulanish (Dial-up access, Dial-up) ko'rinishida amalga oshiriladi.

5.6. Telefon liniyasi orqali internetga ulanish. Internet tarmog'iga oddiy telefon tarmoqlari orqali standart modem qurilmalari yordamida ulanish mumkin (15-rasm). Telefon liniyasi orqali Internetga ulanishda modem qurilmasidan

tashqari maxsus dasturdan (protokol) ham foydalaniladi. Bunda ushbu dastur yordamida Internetga ulanganda telefon liniyasi band qilinadi, seans tugatgandan so`ng telefon tarmog`i bo`shatiladi va unda boshqa foydalanuvchi foydalaniishi mumkin. Internetga ulanishni amalga oshiruvchi dasturning yutug`i shundaki, ular Internetga to`g`ridan to`g`ri ulanishga imkon beradi.

Telefon liniyasi orqali «Chaqiruv» bo`yicha Internetga bog`lanish Internet xizmatlarini taqdim etuvchi provayder bilan mijoz o`rtasida amalga oshiriladi. Bunda foydalanuvchi mantiqiy nom (login) va maxfiy belgi (parol) yordamida Internetga to`g`ridan-to`g`ri ulanadi.



15 – rasm

5.7. Mobil aloqa vositalari yordamida internetga ulanish. Internet tarmog`iga nafaqat kabel yoki telefon liniyasi orqali simli ulanish mumkin, balki mobil aloqa vositalari yordamida simsiz ulanish ham mumkin (16-rasm). Internet tarmog`iga simsiz ulanish kompyuter orqali yoki mobil telefonning o`zida amalga oshiriladi. Agar kompyuter orqali Internetga simsiz ulanish kerak bo`lsa, u holda kompyuterdan tashqari Internet xizmatlarini taqdim etuvchi operator yoki provayderning simsiz ishlovchi modemi yoki xuddi shu vazifani bajaruvchi mobil telefon apparati zarur.

Agar mobil telefonning o`zida turib Internetga bog`lanish yoki undan foydalanish kerak bo`lsa, u holda Internet xizmatlarini ko`rsatuvchi mobil operatorning mijozi bo`lishingiz va unda GPRS xizmati yoqilgan bo`lishi talab qilinadi. Mobil aloqa vositalari yordamida Internetdan foydalanilganda WAP texnologiyasi internetdan simsiz foydalanish imkonini beradi. Mobil aloqa tarmoqlarida so`rovlarni va ma`lumotlarni uzatish uchun GPRS transport xizmatidan foydalaniladi.



16 – rasm

5.8. Modem. Modem modulyator-demodulyator soʻzlarining qisqartmasi hisoblanadi (17-rasm). Ushbu qurilmaning asosiy vazifasi kompyuterdan olingan raqamli signalni uzatish uchun analog shakliga aylantirish va qabul qilingan signalni analog shakldan raqamli shaklga qaytarish hamda aloqa kanallari boʻylab uzatishdan iborat. Modem signalni (axborot) telekommunikatsiya kanallar boʻylab uzatishni taʼminlaydi. Modem yordamida internetda oddiy analog telefon tarmogʻi orqali bogʻlanish mumkin. Bunday modemlarning nazariy jixatdan eng yuqori foydalanish tezligi 56 Kb/sek. ni tashkil etadi.

Modem ichki va tashqi turlarga boʻlinadi va har ikkalasi ham internetga yoki telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanish uchun xizmat qiladi.



Tashqi faks/modem



Simsiz modem



Ichki modem

17 - rasm

5.9. Oʻzbekiston Respublikasida Internet tarmogʻining rivojlanishi. Respublikamizda milliy Internet-segmentini rivojlantirish boʻyicha ishlar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2002-yil 6-iyundagi 200-son qarori bilan tasdiqlangan “2002-2010-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi” ga asosan amalga oshirildi.

Respublika telekommunikatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish boʻyicha loyihalarni amalga oshirish natijasida mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari uchun Internet xizmatlaridan foydalanish borgan sari yengil boʻlib bormoqda. Hozirgi vaqtda respublikamizda Internet foydalanuvchilarining umumiy soni 8,3 mln. kishidan ortdi, shundan 3,8 mln. kishi, yaʼni 1000 ta fuqarodan 442tasi aloqa liniyalari orqali Internetga shaxsiy kompyuterlari orqali ulanadi. Mobil Internet foydalanuvchilarining soni esa hozirgi kunda 4,5 mln. kishini tashkil etadi.

Respublikamizda Axborot Kommunikatsiya Texnologiyalarini rivojlantirishga bo'lgan katta e'tibor tufayli Internet tarmog'ida milliy resurslar soni yildan yilga ortmoqda. Hozirgi kunda respublikada .UZ domen zonasida ikkinchi darajali domen nomlarini ro'yxatga olish bo'yicha 7 ta registratorlar faoliyat ko'rsatadi: Tomas, Billur.com, Arsenal-D, Sarkor Telecom, VSS, TV-Inform va Simus.

Milliy axborot resurslarini rivojlantirish bo'yicha Hukumat qarorlari va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish natijasida. UZ Milliy domen zonasidagi domen nomlarining soni yildan-yilga ortmoqda. Jumladan, 01.01.2011y. holatiga. UZ Milliy domen zonasidagi domen nomlarining soni 11088 tani tashkil etdi, yil boshiga nisbatan bo'lgan o'sish 16%ni tashkil etdi.

Ma'lumotlarni uzatish, jumladan, Internet tarmog'iga ulash xizmatlarni taqdim etuvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning soni bugungi kunda 982 tani tashkil etadi, jamoa foydalanish punktlarining umumiy soni esa 1025taga yetdi.

Provayder va operatorlarning aksariyat qismi Toshkent shahrida joylashganligiga qaramay, respublikamizning boshqa hududlari, ayniqsa Samarqand va Buxoro viloyatlarida ham provayder va operatorlar sonining barqaror o'sishi kuzatilmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Internet tarmog'ini qanday tushunasiz?
2. Internetga bog'lanish ketma-ketligini tushuntiring?
3. O'zbekiston internet resurslari haqida ma'lumot bering?
4. Modem turlari haqida nimalarni bilasiz?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Internet tarmog'i" mavzusida taqdimot yarating.
2. Ushbu mavzuni insert usuli bo'yicha o'rganib chiqing.
3. Internet so'zini klasterga yoying.
4. Internetdan foydalanib o'z mutaxassisligingiz haqida ma'lumot olib, uni kompyuterga saqlang.
5. Lokal, tarmoq, region tarmoq, global tarmoq so'zlari asosida Venn diagrammasini tuzing.

6. INTERNET TARMOG'I XIZMATLARI

6.1. WWW

6.2. Internet provayderlari

6.3. Internet tarmog'i xizmatlaridan foydalanish

6.4. Brouzer va uning vazifasi

6.5. Internet radio va televidenie

6.6. Hosting xizmati va axborotlarni joylashtirish

6.7. Proksi xizmati, anonim proksilar

6.8. Yuklash va ko'chirib olish (upload, download)

6.9. Internet konferensiyalar

6.1. WWW. WWW (World Wide Web) – butun jahon o'rgamchak to'ri deb nomlanuvchi tarmoq. WWW – bu Internetga ulangan turli kompyuterlarda joylashgan o'zaro bog'langan hujjatlarga murojaat qilishni ta'minlab beruvchi tarqoq tizimidir. Aynan mana shu xizmat Internetdan foydalanishni soddalashtirdi va ommaviylashtirdi. WWW asosida to'rtta poydevor mavjud:

1. Barcha hujjatlarning yagona formati (shakli);
2. Gipermatn;
3. Hujjatlarni ko'rish uchun maxsus dasturlar (brouzer);
4. Yagona manzilni ko'rsatish tizimi (domen);

6.2. Internet provayderlari. Internet provayder – Internet tarmog'i xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotdir. Hozirgi kunda Internet provayderlarining ikki turi mavjud: Internetga ulanish va ulanish kanallarini taqdim etuvchi provayder va Internet xizmatlarini taqdim etuvchi provayder.

Internet xizmatlarini taqdim etuvchi provayderlar tomonidan www, elektron pochta, hosting (Web resurslarni joylashtirish) kabi Internet xizmatlari ko'rsatilmoqda. Internetga ulangan tarmoqlarni qurishda undagi kompyuterlarga beriladigan manzillar (IP manzil) provayder tomonidan taqdim etilgan oraliqdan tanlab olinadi.

Provayder tomonidan berilgan manzillarga ega bo'lmagan kompyuterlar mahalliy tarmoqlar uchun zaxiralangan oraliqdagi manzillarga ega bo'lishi va mahalliy tarmoq kompyuterlar bilan ishlashi mumkin:

192.168.0.1 - 192.168.255.255

172.16.0.1 - 172.16.255.255

10.0.0.1 - 10.255.255.255

Xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi bir qancha Internet provayderlari xizmat ko'rsatmoqda, bular: UzNet, Sarkor Telecom, Shar Telecom, TPS, ARS Inform, Cron Telecom va boshqalar.

6.3. Internet tarmog'i xizmatlaridan foydalanish. Internet tarmog'i abonentlariga amaliy protokollar tomonidan taqdim etiluvchi funksional imkoniyatlar quyidagilar: Web-xujjatlarni o'qish, elektron pochta, fayllarni uzatish va qabul qilish, muloqotda bo'lish, tarmoqda xujjatlarni saqlash va ular bilan ishlash.

Foydalanuvchilar uchun quyidagi xizmatlar mavjud: tarmoqdan foydalanish, internet resurslarini yaratish, tashkiliy va axborot ta'minoti, tarmoqda reklamani joylashtirish.

Katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va ularni masofadagi kompyuterlarga uzatish uchun xizmat qiluvchi internetning FTR (fayllarni uzatish protokoli) xizmatidan foydalanish mumkin. Bunda FTR serverda yangi papka yaratish, unga ma'lumotlarni joylashtirish va ularni qayta ko'chirib olish mumkin. WWW xizmatida masofadan suhbatlashish imkoniyatini yaratuvchi chat dasturlari, uzoq masofadagi do'stlar bilan suhbatlashishda telefon aloqasi o'rnini bosmoqda. Buning uchun internetga bog'langan kompyuterda tovush karnaylari hamda mikrofonlar bo'lishi kifoya.

6.4. Brouzer va uning vazifasi. Internet tarmog'ida foydalanuvchilarga tarmoq resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatini berish uchun WEB serverlar quriladi. Bunday serverlarda Internetda taqdim etilgan axborotning katta qismi jamlanadi. Foydalanuvchining ixtiyoriy axborotni olish tezligi bunday serverlarni qanday qurishga bog'liq.

WEB-texnologiyasining hozirgi kunda brouzerlar deb ataladigan axborotni ko'rish uchun mo'ljallangan o'ndan ortiq turli vositalar mavjud. Brouzer web-sahifalarni ko'rish dasturi hisoblanadi. Bunda brouzerga yuklangan Web sahifadagi Giperbog'lanishga sichqoncha ko'rsatkichi bilan bosilsa, avtomatik ravishga ushbu bog'lanishda ko'rsatilgan sahifa brouzerga yuklanadi. Bunday hollar hech qanday sahifaning manzilini kiritish shart emas, chunki giperbog'lanish barcha kerakli ma'lumotga ega hisoblanadi. Brouzer web-sahifada TML teglarini topib, ular talabi bo'yicha ma'lumotni ekranga chiqaradi. Teglarining o'zi esa ekranda aks ettirilmaydi.

Bugungi kunda brouzerlarning juda ko'plab turlari mavjud. Eng mashhurlari: Internet yexplorer (Windows operatsion tizim tarkibidagi dastur), Opera, FireFox (18-rasm).



Internet yexplorer



Opera



Firefox

18 - rasm

6.5. Internet radio va televidenie. WWW tarmog'idagi ma'lumotlardan foydalanish uchun faqatgina brouzerlarning xizmati kamlik qiladi. Ya'ni audio hamda video hujjatlarni aks ettiruvchi tezkor dasturlar ham mavjuddir. Bu dasturlar serverlarda joylashgan yoki to'g'ridan - to'g'ri uzatilayotgan audio hamda video hujjatlardan foydalanishga imkoniyat yaratadi. Real rlayer, uck rlayer, Cosmo rlayer, Media rlayer dasturlari shu kabi vazifalarni bajaradi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham Internet texnologiyalarini rivojlanishi natijasida ko'pgina radioeshittirishlarini internet orqali tinglash mumkin. Avvaliga brouzer yordamida kerakli radiokanalning Web saxifasi topiladi va shundan so'ng

eshittirish to'g'ridan - to'g'ri internet tarmog'iga uzatilayotgan kanalga bog'lanadi. Shunda operatsion tizimda mavjud bo'lgan namoyish dasturlaridan biri ishga tushishi natijasida foydalanuvchi ushbu radiokanalni tinglash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari Internet tarmog'i orqali televizion ko'rsatuvlarni ham tomosha qilish mumkin. Ushbu holatda ham radioeshittirishlar kabi ma'lum Web-saytlarga bog'lanish va ular orqali ko'rsatuvlarni tomosha qilish imkoni mavjud. Bunday Web saytlarga mtrk.uz, oriat.uz saytlarini misol keltirish mumkin.

6.6. Xosting xizmati va axborotlarni joylashtirish. Foydalanuvchi Web-saxifalarini internet provayderi (hosting provayderi) serverida joylashtirish va joriy qilish amali xosting deb ataladi. Hosting so'zi to'la qonli ikki tomonlama aloqa bilan ta'minlangan tarmoqdagi kompyuterni bildiruvchi host so'zidan olingan. Hosting xizmati pulli va tekin hamda oddiy va mukammallashgan bo'lishi mumkin. Hosting xizmati quyidagi imkoniyatlarni taqdim etishi zarur:

1. axborot makoni;
2. internet kanalining o'tkazish qobiliyati (kengligi);
3. fayllarni boshqarish usullari;
4. standart skriptlar to'plami;
5. server tomonida dasturlash mumkinligi;
6. serverda ma'lumotlar bazalaridan foydalanish;
7. bir yoki bir necha pochta qutilarini tashkil etish;
8. uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash.

6.7. Proksi xizmati, anonim proksilar. Proksi kompyuter tarmog'i xizmatidir. Bunda proksi xizmati orqali kompyuter tarmoqlari mijozlariga boshqa tarmoq xizmatlaridan bevosita foydalanish imkoni beriladi. Mijoz avval proksi serverga ulanadi va u orqali boshqa serverda joylashgan biron bir resursga murojaat qiladi. Bunga misol tariqasida shuni keltirish mumkinki, ko'pgina hollarda kompyuter tarmoqlaridagi bir guruh foydalanuvchilar yagona internetga ulangan kompyuter orqali kompyuter xizmatlaridan foydalanishadi.

Ba'zi hollarda mijoz so'rovi yoki server javobi proksi server tomonidan muayyan maqsadlarda o'zgartirilishi yoki to'xtatilishi mumkin. Proksi server shuningdek mijoz kompyuterini ba'zi tarmoq hujumlaridan ximoyalashga imkon beradi.

Anonim proksi serverlar (Anonymous Proxy Servers). Anonim proksi serverlar ba'zi manzillarni berkitish yoki biror hujjatlarni olishda o'zini oshkor qilmaslik imkonini beradi.

6.8. Yuklash va ko'chirib olish (upload, download). Internet tarmog'ida ma'lumotlar bilan ishlash vaqtida "Upload" va "Download" tushunchalariga juda ko'p duch kelinadi. Ushbu terminlarga quyidagi tushunchalarni keltirish mumkin:

Upload yuklab qo'yish. Ma'lumotlarni (fayllarni) kompyuterdan tarmoqdagi yoki Internetdagi boshqa kompyuterga yoki serverga yuklab qo'yish.

Download yuklab olish. Ma'lumotlarni (odatda faylni) tarmoqdagi yoki Internetdagi boshqa kompyuterlar va serverlardan o'z kompyuteriga yuklab olish.

6.9. Internet konferentsiyalar.

Internet konferentsiyalar – bu muayyan muammoni hal qilayotgan guruh ishtirokchilarining Internet tarmog'i orqali konferensiya aloqasi ko'rinishida o'zaro axborot almashinish jarayonidir. Tabiiyki, bu texnologiyadan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi cheklangan bo'ladi. Kompyuter konferensiyasi ishtirokchilari soni audio va videokonferentsiyalar ishtirokchilari sonidan ancha ko'p bo'lishi mumkin. Adabiyotlarda telekonferensiya atamasini ko'p uchratish mumkin. Telekonferensiya o'z ichiga konferensiyalarning uch turini: audio, video va kompyuter konferensiyalarini oladi.

Audiokonferentsiyalar. Ular tashkilot yoki firmaning hududiy jihatdan uzoqda joylashgan xodimlari yoki bo'linmalari o'rtasida kommunikatsiyalarni saqlab turish uchun audioaloqadan foydalanadi. Audiokonferensiyalarni o'tkazishning eng oddiy texnika vositasi so'zlashuvda ikkitadan ko'p ishtirokchi qatnashuvini ta'minlaydigan qo'shimcha qurilmalar bilan jihozlangan telefon aloqasi hisoblanadi. Audiokonferensiyalarni tashkil etish kompyuter bo'lishini talab etmaydi, faqatgina uning ishtirokchilari o'rtasida ikki tomonlama audioaloqadan foydalanishni ko'zda tutadi. Audiokonferensiyalardan foydalanish qarorlar qabul qilish jarayonini yengillashtiradi, u arzon ham qulay.

Videokonferentsiyalar. Ular ham audiokonferensiyalar qanday maqsadlarga mo'ljallangan bo'lsa, shunday maqsadlarga mo'ljallangan, lekin bunda videoapparat qo'llaniladi. Ularni o'tkazish ham kompyuter bo'lishini talab etadi. Videokonferensiya jarayonida bir-biridan ancha uzoq masofada bo'lgan uning ishtirokchilari televizor ekranida o'zlarini va boshqa ishtirokchilarni ko'rib turadilar. Televizion tasvir bilan bir vaqtda ovoz ham eshitilib turadi. Videokonferensiyalar transport va xizmat safari harajatlarini ancha qisqartirish imkonini bersa ham, aksariyat tashkilot yoki firmalar ularni faqat shu sabablarga ko'ra qo'llamaydilar. Bu firmalar bunday konferensiyalarda muammoni hal qilishga hududiy jihatdan ofisdan ancha uzoqda joylashgan ko'p sonli menejerlarni va boshqa xodimlarni ham jalb etish imkoniyatini ko'radilar.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Butun jahon o'rimchak to'ri xususida nimalar bilasiz?
2. O'zbekistonda internet xizmati taqdim etuvchi tashkilotlar xaqida ma'lumot bering?
3. Global tarmoq xizmatidan foydalanishi imkoniyatini beruvchi dasturlarni sanang?
4. Internet konferensiyalar qanday o'tkaziladi?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Internet tarmog'i xizmatlari" mavzusida taqdimot yarating.
2. Internetdan televidenie ko'rsatuvlarini olish qanday amalga oshiriladi.
3. Internet so'zi bo'yicha sinkveyn tuzing.
4. Ushbu mavzuni insert usuli bo'yicha o'rganib chiqing.
5. Mavzu qismlariga blum savollarini berib ko'ring.

7. INTERNET TARMOG'I RESURSLARI

7.1. *Web sahifa*

7.2. *Web sayt*

7.3. *Web portal*

7.4. *Web sayt toifalari*

7.5. *Internetga resurslarni joylashtirish va ko'chirib olish*

7.6. *Internet manzil va Internet resurslari manzili*

7.7. *O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali*

7.8. *Ziyonet – ta'lim tarmog'i*

7.9. *Vazirliklar va Davlat test markazi Web saytlari*

7.10. *Masofaviy ta'lim*

7.11. *Ijobiy va salbiy resurslarga ega bo'lgan Web saytlar*

7.1. Web-sahifa. Internet manzili (URL) bilan bir xil ma'noda belgilanuvchi mantiqiy birlik. U Web-saytning tarkibiy qismidir. Web sahifa biror voqelik, xodisa yoki ob'yekt to'g'risida ma'lumotlarni o'zida jamlagan ma'lumotlar faylidir. Web serverlar bazasi Web saytlardan iborat bo'lsa, Web saytlar esa o'z navbatida sahifalardan iborat bo'ladi. Fizik nuqtai nazardan u HTML turidagi fayldir. Web sahifalar matn, tasvirlar, animatsiya va dastur kodlari va boshqa elementlardan iborat bo'lishi mumkin. Sahifa statik va dinamik shakllantirilgan bo'lishi mumkin. Freymlardan (qismlar) iborat sahifalarda har bir freymga alohida sahifa mos keladi.

7.2. Web-sayt. Inglizcha “site” (tarjimasi joy, joylashish) so'zining o'zbekcha talaffuzi. Umumjahon o'rgimchak to'ri ma'lum axborotni topish mumkin bo'lgan va noyob URL manzillar bilan belgilangan virtual joy. Mazkur manzil Web-saytning bosh sahifasi manzilini ko'rsatadi. O'z navbatida, bosh sahifada Web-saytning boshqa sahifalari yoki boshqa saytlarga murojaatlari mavjud bo'ladi. Web-sayt sahifalari HTML, ASP, PHP, JSP texnologiyalari yordamida yaratilib, matn, grafik, dastur kodi va boshqa ma'lumotlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Web-saytni ochish uchun brouzer dasturidan foydalanib uning manzil maydoniga kerakli Web saytning manzili kiritiladi. Web-sayt shaxsiy, tijorat, axborot va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

7.3. Web portal. Web portal (inglizcha “portal” – darvoza so'zidan olingan) - bu Internet foydalanuvchisiga turli interaktiv xizmatlarni (pochta, izlash, yangiliklar, forumlar va x.k) ko'rsatuvchi yirik Web-sayt. Portallar gorizonttal (ko'p mavzularni qamrovchi) va vertikal (ma'lum mavzuga bag'ishlangan, masalan avtomobil portali, yangiliklar portali), xalqaro va mintaqaviy (masalan uznet yoki runetga tegishli bo'lgan), shuningdek ommaviy va korporativ bo'lishi mumkin.

7.4. Web sayt toifalari. Web saytlarning asosiy vazifasi shundan iboratki, ular biror faoliyat, voqea va xodisa yoki biror shaxsning Internetdagi imidjini yaratadi. Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan saytlarni bir necha xil toifalarga ajratish mumkin:

- Ta'lim saytlari. Bu turdagi saytlarga ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va masofaviy ta'lim saytlari kiradi, masalan: edu.uz, eduportal.uz
- Reklama saytlari. Bu turdagi saytlarga asosan reklama agentliklari va reklamalarni joriy qilish saytlari kiradi.
- Tijorat saytlari. Bu turdagi saytlarga internet do'konlar, internet to'lov tizimlari va internet konvertatsiya tizimlari saytlari kiradi, masalan: websum.uz, webmoney.ru, egold.com
- Ko'ngilochar saytlar. Bu turdagi saytlarga kompyuter o'yinlariga, fotogalereyalarga, sayohat va turizmga, musiqa va kinonamoyishlarga bag'ishlangan saytlarni kiritish mumkin, masalan: mp3.uz, melody.uz, cinema.uz
- Ijtimoiy tarmoqlar saytlari. Bu turdagi saytlarga tanishish, do'stlarni qidirish, anketalarni joylashtirish va o'zaro muloqot o'rnatishga bag'ishlangan saytlarni kiritish mumkin, masalan: sinfdosh.uz, id.uz, odnoklassniki.ru
- Korxona va tashkilotlar saytlari. Bu turdagi saytlarga davlat korxonalari, xo'jalik va boshqaruv organlari saytlari kiritiladi. Masalan nammpi.uz

7.5. Internetga resurslarni joylashtirish va ko'chirib olish. Axborotni serverga joylashtirish bir necha usullarda amalga oshiriladi. Masalan Plesk tizimi, FTP klient dasturlari yoki Web interfeys orqali resurslarni internetga joylashtirish mumkin. Bunda barcha yuklanayotgan ma'lumotlar server kompyuter xotirasidagi ajratilgan joyga joylashtiriladi. Biror ma'lumotni internetdagi biror kompyuterga joylashtirish uchun foydalanuvchi albatta shu tizimda qayd qilingan bo'lishi shart, aks holda yuklashga ruxsat berilmaydi.

Ma'lumotlarni yuklab olish Web interfeys orqali yoki maxsus dasturlar orqali amalga oshiriladi. Bunda ko'rilgan Web saytdagi ma'lumotlarni Internet brouzerning saqlash amali yordamida yuklab olish mumkin. Agar fayl ko'rinishidagi ma'lumotlarni yuklab olish kerak bo'lsa, u holda fayllarni yuklab olishga mo'ljallangan maxsus dasturlardan foydalaniladi.

7.6. Internet manzil va Internet resurslari manzili. Sahifa, fayl yoki boshqa resursning Internetda joylashishini aniqlovchi noyob manzil – URL deb ataladi. Internetdagi manzil odatda quyidagi elementlardan tarkib topadi: resursdan foydalanish protokoli (masalan, http://, ftp://) va domen nomi (masalan, domain.uz). Internetdagi manzil, shuningdek, URL-manzil deb ham ataladi.

Kompyuter domen manzilining namunaviy ko'rinishi quyidagicha: http://www.tuit.uz, http://www.aci.uz. Odatda, hujjatlarda manzilni anglatuvchi ma'lumotlarning tagiga chiziladi.

Namunadan ko'rinib turibdiki, kompyuter manzili bir necha qismlardan iborat. O'ng tomondan manzilning birinchi qismi (namunada uz) domenning birinchi sathi deb qabul qilinadi, keyingisi (namunada tuit) – domenning ikkinchi sathi va hokazo.

Internetda manzillar ko'p qavatli domen tizimida qurilgan. Birinchi sath domenlar umumjahon mavzular yoki geografik joylar bo'yicha nomlanadi.

Saytlar nomlari quyidagicha umumiy ko'rinishda ifodalanadi:

<http://www.sayt.nomi.sayt.sohasi.davlat.kodi>.


7.7. O'zbekiston Respublikasi hukumat portalini. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 17 dekabrda 259-son qaroriga asosan Hukumat portalini Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy davlat axborot resursi hisoblanadi. Bu bilan Hukumat portalida chop etilgan axborot, ommaviy axborot vositalarida chop etilgan axborot bilan teng kuchga ega ekanligi belgilab berilgan.

Asosiy maqsadlari:

- respublika aholisi hamda xalqaro jamoatchilikni O'zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati to'g'risida, respublikaning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligini ta'minlash;
- tashkilotlarning yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirishga ko'maklashish;
- axborotlarni ayirboshlash va tarqatish tezligi darajasi, tashkilotlarning xabardorligi darajasi o'sishi hisobiga tashkilotlar faoliyatining sifati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish;
- axborotlarni idoralararo elektron ayirboshlashni birxillashtirish.

O'tgan vaqt mobaynida Portal yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilib kengaytirib borildi. Portalning funktsional imkoniyatlarni mukammallashtirish, foydalanuvchilar qulayligi uchun do'stona interfeys yaratish hamda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati to'g'risida dolzarb va tezkor ma'lumotlarni joylashtirish bo'yicha ishlar olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 20-yanvardagi "Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ – 1041 – sonli qaroriga asosan "Qo'shimcha modullar (G to V va G to S) kiritilgan yangi platformadagi yangi Hukumat portalini ishga tushirish" loyihasini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Hukumat portalining yangi versiyasi ishlab chiqildi va 2009-yil 1-oktyabrdagi Internet tarmog'ida asosiy domen www.gov.uz manzili bo'yicha joylashtirildi (19-rasm).



19 - rasm

7.8. Ziyonet ta'lim tarmog'i.

ZiyoNET jamoat axborot ta'lim tarmog'i 2005-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2005 yil 28 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil topgan.

ZiyoNET tarmog'ining asosiy maqsadi ta'lim tizimida respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilarni bilim olish jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishdan iborat.

ZiyoNET portal. ZiyoNET axborot ta'lim tarmog'i yoshlarni, murabbiylarni, shuningdek aholining turli qatlamini kerakli axborot bilan ta'minlash, Axborot Texnologiyalari sohasida kerakli ma'lumotlarni berish, muloqot qilish va tajriba almashinishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishni o'z zimmasiga oladi.

Foydalanuvchilar. ID.UZ tizimidan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarga ZiyoNet portal o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Jumladan,

- ZiyoNet portalining kutubxonasiga axborot – ta'limiy ma'lumotlarni joylashtirish;
- uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satellitlarni yaratish;
- ZiyoNET portalining yopiq bo'limlariga kirish va u yerdan ma'lumot olish;
- ZiyoNET axborot resurs tarmog'ining turli tanlovlarida qatnashish.

ZiyoNet tarmog'iga ulanish. Hukumat qaroriga muvofiq barcha ta'lim muassasalari (ulanish ob'yektlari) ZiyoNET axborot ta'limiy tarmog'i negizida birlashishlari kerak.

7.9. Vazirliklar va Davlat test markazi Web saytlari.

Vazirliklar saytlari o'zlarida oliy ta'lim va uning faoliyati, oliy ta'lim muassasalari, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi va uning faoliyati, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari, xalq ta'limi va uning faoliyati, respublika maktablari, ta'limning me'yoriy hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni mujassamlagan. Ta'lim muassasalari vazirliklari saytlari manzillari

- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Web-sayti: www.edu.uz
- O'rta-maxsus kasb-hunar ta'lim markazi: www.markaz.uz
- Xalq ta'limi vazirligi Web sayti: www.eduportal.uz
- Davlat test markazi Web sayti: www.dtm.uz

7.10. Masofaviy ta'lim. Masofaviy ta'lim - bu o'qituvchi va o'quvchi bir-biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan sababli, axborot texnologiyalardan fodalanilgan holda ta'lim berish mexanizmi.

Bu ta'lim turini bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta'lim tashkil qilinishiga sabab bo'lgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi), mamlakatni kompyuterlashtirish va informatsiyalashtirish darajasi, transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta'lim uchun mutaxassislar mavjudligi, ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta'lim sohasidagi odatlari.

Masofaviy ta'lim modellari:

- 1) Birlamchi model;
- 2) Ikki lamchi model;
- 3) Aralashgan model;
- 4) Konsortsium;
- 5) Franchayzing;
- 6) Validatsiya;
- 7) Uzoqlashgan auditoriyalar;
- 8) Projektlar.

7.11. Ijobiy va salbiy resurslarga ega bo'lgan Web saytlar.

Internetning ichki tahdidlari tarmoq axborot makonining ahvoli va rivojlanishi uchun salbiy oqibatlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlar. Bular: tarmoqning ortiqcha yuklanganligi tufayli axborot kollapsi (qulashi); xakerlarning ma'lumotlarni yo'q qilishi yoki o'zgartirishi, bog'lamalar va trafikni "chetlab o'tish" yo'nalishlarini blokirovkalash maqsadida uyushtirgan hujumlari; kommunikatsiya kanallarining tasodifiy yoki uyushtirilgan avariylari; axborot-izlash tizimlarining mukammal emasligi; protokollarning "ma'naviy" eskirib qolishi va boshqalar.

Internetning tashqi tahdidlari foydalanuvchilar uchun salbiy oqibatlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlar. Tashqi tahdidlar texnologik va ijtimoiy bo'lishi mumkin:

- Texnologik: tezligi sekin kanallar; tarmoqqa ulanishning unumsiz uslublari; olib keltirilgan viruslar; axborot "toshqini" va h.k.
- Ijtimoiy: foydalanuvchilarning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga bo'lgan ta'sir; insonning shaxsiy ongiga bo'lgan ta'sir; axborot terrori, jinoyati va boshqalar.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Web sahifa, Web sayt va Web portalning umumiy va xususiy jihatlarini sanang?
2. Siz bilgan internet manzillari haqida ma'lumot bering?
3. Ziyonet ta'lim portalidagi ma'lumotlar xususida axborot bering?
4. Masofaviy ta'limni qanday tushunasiz?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Internet tarmog'i resurslari" mavzusida taqdimot yarating.
2. Ziyonet ta'lim portalidan ushbu mavzuga oid material olib, chop eting.
3. Quyidagi so'zlarni qamrab olgan Venn diagrammasi tuzing.
1) Web sahifa Web sayt Web portal
4. Ushbu mavzuni insert usuli bo'yicha o'rganib chiqing.
5. Mavzuga doir bo'lim va terminalarga Blum savollarini bering.

8. ELEKTRON POCHTA XIZMATI

- 8.1. *An`anaviy pochta xizmati*
- 8.2. *Elektron pochta xizmati*
- 8.3. *Xabar va pochta qutisi*
- 8.4. *Xabarlarning turlari*
- 8.5. *Elektron pochta manzili*
- 8.6. *Xabarlarni uzatish va qabul qilish*
- 8.7. *Xabarlarni ko`pchilikka yuborish*
- 8.8. *Spam , spamlarning turlari va ularga qarshi kurashish*
- 8.9. *Filtrlar va qora ro`yxat*
- 8.10. *Milliy elektron pochta xizmatlari*
- 8.11. *Xalqaro pochta xizmatlari: mail.ru, gmail.com, yaoo.com*
- 8.12. *Elektron pochtdan foydalanish va elektron xabarlarni almashish madaniyati*

**8.1. An`anaviy pochta xizmati.** An`anaviy pochta xizmati bizga ma`lum bo`lgan va har bir shahar va markazlarda joylashgan pochta aloqasi korxonalari orqali amalga oshiriladi. Unda jo`natilishi rejalashtirilayotgan xat maxsus konvertga solinib, yuboruvchi va qabul qiluvchining indeksi, manzili va kimga mo`ljallanganligi yoziladi. Shu ma`lumotlarga asoslangan holda pochta korxonasi kelgan xatni markaziy pochta korxonasiga yuboradi va u yerda saralanib tegishli manzilga eltib berishni ta`minlaydi. Kamchiligi shundaki yuborilgan xabar yoki xat manzil uzoqligiga qarab kunlab, oylab borishi, ba`zi hollarda umuman yetib bormasligi ham mumkin.

8.2. Elektron pochta xizmati. Internet–xalqaro tarmog`ining asosini Electronic mail (E-mail) - elektron pochta xizmati tashkil qiladi. Elektron pochta xuddi odatdagi pochta deb bo`lib, faqat bunda xatni qog`ozga emas, balki kompyuter klaviaturasidan harf va so`zlarni terib, ma`lum elektron yozuv ko`rinishiga keltiriladi. Elektron pochta maxsus dastur bo`lib, uning yordamida Internet tarmog`i orqali dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjat, ya`ni ixtiyoriy ma`lumotni tezda (bir necha soniya va daqiqalarda) jo`natish va qabul qilib olish mumkin (20-rasm). Elektron pochtaning kamchiligi shundan iboratki, xat jo`natuvchi va qabul qiluvchining har ikkalasi ham foydalanayotgan kompyuter Internet tarmog`iga ulangan bo`lishi zarur.



20 - rasm

8.3. Xabar va pochta qutisi. Xabar, umuman olganda, foydalanuvchi pochta orqali yuborishi kerak bo'lgan ma'lumot hisoblanadi va oldindan boshqa dasturda (masalan Word) tayyorlab, keyin elektron pochta orqali jo'natishi maqsadga muvofiqdir. Pochta serveri ham o'zining matn terish oynachasiga ham ega bo'lib, xabarni shu oynada yozish mumkin.

Pochta qutisi – bu foydalanuvchi uchun elektron pochta xizmatini taqdim etuvchi kompyuterda qayd qilingan nomdir. Ushbu nom kompyuter xotirasida papka ko'rinishida shakllantiriladi va u o'zida kiruvchi va chiquvchi xabarlarni vaqtinchalik saqlaydi. Elektron pochta manzillaridagi elektron pochta manzili belgisidan (_____ @ _____) oldin kelgan yozuv pochta qutisi nomini anglatadi.

8.4. Xabarlarning turlari. Xabarlar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin masalan: matn, grafik, rasm, ovoz va video ma'lumotlar. Yuborilishi rejalashtirilayotgan ma'lumotlarning hajmi bo'yicha ham chegaralanish mavjud. Har bir pochta provayderi o'zining siyosatiga ega bo'lib bitta xabarning 2, 5, 10Mb hajmgacha bo'lgan xabarlarni yuborishni ta'minlaydi. Agarda bu hajm oshib ketsa katta hajmdagi xabarlarni Rar yoki Zip dasturlari yordamida arxivlab yuborish tavsiya etiladi.

8.5. Elektron pochta manzili. Elektron manzil @ belgisi bilan ajratilgan ikki qismdan iborat, ya'ni manzilgoh @ foydalanuvchi nomi. Elektron manzilga misol tariqasida. tuit@tuit.uz, tuit@inbox.uz larni keltirish mumkin, bu elektron manzillar "tuit" nomli ishlatuvchining <http://mail.tuit.uz>, <http://inbox.uz> pochta serverida joylashgan pochta qutisi hisoblanadi.

8.6. Xabarlarni uzatish va qabul qilish. Tashkil qilingan elektron pochta orqali boshqa elektron manzilga xat jo'natish ketma-ketligini ko'rib chiqamiz: dastlab, mail.ru Web sahifasi ishga tushiriladi va ekranda hosil bo'lgan ishchi oynaning *Имя* darchasida foydalanuvchi elektron manzili va *Пароль* darchasida paroli kiritiladi va *Бо́йту* tugmachasi bosiladi. *Кому* darchasiga xat jo'natilishi kerak bo'lgan elektron manzil, *Копия* darchasiga, agar shu xat boshqa manzilga ham jo'natilishi kerak bo'lsa, o'sha manzil, *Тема* darchasiga xat mavzusi yoziladi. Xat mazmuni pastki bo'sh oynaga yoziladi va *Отправить* tugmachasi bosiladi. Agar xat to'g'ri jo'natilgan bo'lsa, u holda ekranda *Успешно отправлен* ma'lumoti paydo bo'ladi. Foydalanuvchi elektron manzil orqali kompyuter xotirasidagi ixtiyoriy fayllarni ham jo'natishi mumkin. Buning uchun *Прикрепить* tugmachasi bosiladi. Agar bir nechta faylni jo'natish kerak bo'lsa, qolgan fayllar ham shu tartibda tanlanadi.

Foydalanuvchi elektron pochtaga kelgan xatlarni ko'rishi uchun *Входящие* buyrug'i tanlanadi. Ekranda pochtaga kelgan xatlar ro'yxati paydo bo'ladi. Unda xat kimdan, mavzusi, pochtaga qachon kelib tushgan va fayl o'lchami to'g'risida ma'lumot saqlangan. Foydalanuvchi xatni o'qishi uchun, *Тема* bandida sichqonchani chap tugmachasi bosiladi. Ekranda xat mazmuni paydo bo'ladi. Foydalanuvchi xatni o'qishi va agar zaruriyat bo'lsa *Файл→Печать* buyrug'i orqali printerda chop qilishi mumkin. Elektron pochtaga keraksiz xatni o'chirish uchun dastlab u belgilanadi va *Удалить* tugmachasi bosiladi. o'chirilgan fayl *Корзинага* borib tushadi. Korzinani tozalash *Очистить Корзину* buyrug'i orqali amalga oshiriladi.

8.7. Xabarlarni ko'pchilikka yuborish. Ma'lum bir sabablarga ko'ra bir xil mazmundagi xabarlarni bir necha manzil yoki pochta qutisiga yuborish zaruriyati paydo bo'ladi. Shunda, *Кому* darchasiga xat jo'natilishi kerak bo'lgan elektron manzillar “ ; ” (nuqta vergul) belgilari bilan ajratiladi, masalan: (tuit@tuit.uz; tuit@inbox.uz; va boshqa manzillar), *Кония* darchasiga, agar shu xat boshqa manzilga ham jo'natilishi kerak bo'lsa, o'sha manzil, *Тема* darchasiga xat mavzusi yoziladi. Ushbu vazifadan biror e'lon yoki yangilikni ko'pchilikka barobar yuborish uchun foydalaniladi.

8.8. Spam, spamlarning turlari va ularga karshi kurashish. «Spam» termini yangi mazmunda jonga teguvchi elektron tarqatmalar yoki pochta chiqindilari degan ma'noni anglatadi. Spamlar 1993-yilda paydo bo'lgan. Usenet komp yuter tarmog'i administratori Richard Depyu yaratgan dasturdagi xato 1993-yil 31-mart kuni konferentsiyalardan biriga ikki yuzta bir xil xat jo'natilishini keltirib chiqardi. Uning norozi suhbatdoshlari jonga teguvchi xabarlarga tezda - «spam» degan nom topdilar. «Kasperskiy Laboratoriyasi» tushunchasiga ko'ra, spam - bu so'ralmagan anonim ommaviy tarqatmalardir.

Spam (foydalanuvchi tomonidan so'ralmagan axborot) jo'natuvchining (spamer) maqsadi va vazifalariga qarab tijorat axborotiga ega bo'lishi yoki unga hech qanday aloqasi bo'lmasligi mumkin. Shunday qilib, mazmuniga qarab, xabarlarning «tijorat» spami - «unsolicited commercial ye-mail» (umumiy qabul qilingan abbreviaturasi - UCE) va «notijorat» - «unsolicited bulk e-mail» (UBE) turlari mavjud.

Anonim: barcha ko'pincha aynan yashirin yoki qalbakilashtirilgan qayta aloqa manzili ko'rsatilgan avtomatik tarqatmalardan jabrlanadi.

Ommaviy: ushbu tarqatmalar aynan ommaviy va faqatgina shular spamerlar uchun haqiqiy biznes hamda foydalanuvchilar uchun haqiqiy muammo hisoblanadi.

So'ralmagan: imzolangan tarqatmalar va konferensiyalar bizning tushunchamizga kirmasligi kerakligi yaqqol tushunarli. Har bir elektron pochta xizmati o'zining foydalanuvchilariga spamdan himoyalash vositalarini taklif qilishadi. Ya'ni spangga taalluqli bo'lgan elektron manzillar spam filtriga kiritiladi va ushbu manzillardan kelayotgan spamlar xabarlar vaqtincha saqlanuvchi katalogga avtomatik tarzda joylashtiriladi va 30 kundan keyin o'chirib tashlanadi.

8.9. Filtrlar va qora ro'yxat. Filtrlar asosan kelayotgan xatlarni saralash, tartiblash funksiyasini bajaradi. Qora ro'yxat esa xat yuboruvchi manzilni maxsus jurnalga kiritib bu manzildan boshqa xat olmaslik maqsadida ishlatiladi.

8.10. Milliy elektron pochta xizmatlari. Hozirgi kunda milliy pochta xizmatlari ham ancha rivojlanib bormoqda. O'zbekistondagi har bir Internet provayder o'zining pochta serveri va xizmatiga ega bo'lib, asosan o'zining mijozlariga xizmat ko'rsatadi, ularning ichidan mail.uz, inbox.uz kabilar ochiq hisoblanadi va bu tizimdan hohlovchilar bepul foydalanib xat va xabarlar jo'natib qabul qilishlari mumkin.

8.11. Xalqaro pochta xizmatlari: mail.ru, gmail.com, yao.com. Elektron pochta orqali ma'lumot yuborish uchun ikki yo'nalish mavjud, bulardan biri bepul elektron pochta xizmati deb yuritilib, undan foydalanish uchun Internetda ma'lum bir Web sahifalari mavjuddir. Bular mail.ru, yahoo.com, mail.uz, gmail.com va hokazo.

Foydalanuvchi dastlab, pochta manziliga ega bo'lishi kerak. Pochta manzilini tashkil qilish uchun Internet yexplorer dasturining asosiy oynasiga ushbu Web sahifalaridan biri chaqiriladi va ishga tushiriladi.

8.12. Elektron pochtdan foydalanish va elektron xabarlarini almashish madaniyati. Hayotdagi etika kabi elektron pochtda ham etika mavjud. Ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz:

- Pochtangizni tez-tez o'qib turing. Ko'pchilik foydalanuvchilar o'z xatlarini faqatgina bo'sh vaqtlaridagina o'qiydilar. Bu korrespondentlarga nisbatan bo'lgan behurmatlikdir. Buning oqibatida siz juda ham muhim bo'lgan axborotni qo'ldan boy berishingiz mumkin. Foydalanuvchi pochta-sini har doim, o'z vaqtida o'qib borishi lozim.

- Xatda albatta sarlavha (subject) ko'rsatish zarurdir. Bu mijozlarni ortiqcha ishlardan qutqaradi.

- Xatingizni oluvchini biling va hurmat qiling.

- Xatni xatosiz yozing. Grammatik va orfografik xatolar bilan yozilgan xat jo'natuvchi to'g'risida yaxshi taassurot qoldirmaydi.

- Qisqa yozing. Elektron pochtda yozayotgan xatingizni mazmunini qisqa va aniq ko'rsata biling. Xatingizdagi xatolar va fikrdan chiqib ketishlik birinchi o'rinda xatingizni emas, balki sizning o'zingizni xarakterlaydi.

- O'z xatingizni boshqa manzillarga ko'chirishlikdan saqlaning. O'z xatingizni faqatgina shu xat tegishli bo'lgan manzillarga jo'nating. Aks holda, xatlarni ko'p manzillarga jo'natish hamkorlaringizda yaxshi taassurot uyg'otmasligi mumkin.

- Kerak bo'lmagan taqdirda o'z xatingizga javob va so'rovlar yo'llamang. Kerak bo'lmagan taqdirda «iltimos javob bering» yoki «iltimos xatni tasdiqlang» kabi so'rovlarni yo'llamang.

- So'rovlarga to'liq javob bering. So'rovlarga javob berishda qisqa «ha» yoki «yo'q» kabi javob bermang. Bu hol xat oluvchida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Elektron pochta xizmati afzalliklari nimadan iborat?
2. Siz bilgan elektron pochta manzillari haqida ma'lumot bering?
3. Milliy elektron pochta xizmati haqida nimalarni bilasiz?
4. Xalqaro elektron pochta xizmati xususida axborot bering?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Elektron pochta xizmati" mavzusida taqdimot tayyorlang.
2. O'z elektron pochtagizdan kafedra elektron pochta-siga xat yuboring.
3. Quyidagi so'zlar asosida Venn diagrammasini tuzing.
 - 1) An'anaviy pochta Elektron pochta
4. Xalqaro pochta xizmatidan foydalanib mail.ru, yao.com haqida referat tayyorlang.
5. Ushbu mavzuni o'z o'rtoqlaringiz bilan "miya hujumi" usulida o'rganib chiqing.
6. Ushbu mavzuni insert usulida o'rganib chiqing.

9. INTERNETDA AXBOROT QIDIRUV TIZIMLARI

9.1. *Axborot qidirish tizimi*

9.2. *Axborotni parametrlari bo'yicha qidirish*

9.3. *Rasmlarni qidirish*

9.4. *Musiq va filmlarni qidirish*

9.5. *WWW.UZ - milliy axborot qidiruv tizimi*

9.6. *Mashhur Internet qidiruv tizimlari*

9.7. *Ixtisoslashgan axborot qidiruv tizimlari*

9.8. *Qidiruv tizimlaridan to'g'ri maqsadda foydalanish*

9.1. Axborot qidirish tizimi. Internet tarmog'idagi qidiruv tushunchasi shuni anglatadiki, bunda har bir foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan biror ma'lumot yoki materialni maxsus qidiruv tizimlari orqali topish imkoniyatiga ega bo'ladi.


Internet tarmog'i foydalanuvchilari qidiruvni Internet muhitida joylashgan Web-saytlar, ularning manzili va ichki ma'lumotlari bo'yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo'lgan axborotni samarali qidirish va tez topish imkoniyatini beradi.

Internet tarmog'i shunday bir muhitki u o'zida turli ko'rinishdagi va turli tillardagi ko'plab axborotlarni jamlagan. Bunda ushbu axborotlar ichidan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topish muammosi paydo bo'ladi. Internet tarmog'ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o'zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so'zdan tashkil topgan so'rovlardan foydalanadi. Ya'ni ma'lumotlarni uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so'zlar va jumlar bo'yicha qidirib topish mumkin. Bunda foydalauvchi tomonidan Internet qidiruv tizimi qidiruv maydoniga kerakli ma'lumotga doir so'z yoki jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so'ng qidiruv tizimi foydalanuvchiga o'zi tomonidan kiritilgan so'z yoki jumla mos keluvchi ma'lumotlarni qidirib topadi va kompyuter ekranida ularning ro'yxatini hosil qiladi. Vanihoyat ro'yxatdagi ma'lumotlarni ketma-ket ko'rib chiqilib kerakli bo'lganlari kompyuterga saqlab olinadi.

9.2. Axborotni parametrlari bo'yicha qidirish. Ko'rib o'tilganidek, har bir foydalanuvchi Internet tarmog'i orqali o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni uning mavzusi hamda tarkibidagi so'z yoki jumla bo'yicha qidirib topishi mumkin, lekin Internet tarmog'ida ma'lumotlar shunchalik ko'pki, ta'kidlab o'tilgan usul samara bermasligi mumkin. Bunday hollarda Internet qidiruv tizimlari qidiruvning bir qancha qo'shimcha usullari bo'yicha qidiruvni taqdim etadi, bular:

- ma'lumotlarni uning tili bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning turi (matn, rasm, musiq, video) bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashgan mintaqasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashtirilgan sanasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashgan Internet zonasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni xavfsiz qidiruv.

9.3. Rasmlarni qidirish. Rasmlar ma'lumotlarning grafik yoki tasvir ko'rinishi hisoblanadi. Internet tarmog'ida grafik ma'lumotlarning ko'plab turlari uchraydi, ya'ni: chizma (vektor), foto (rastr), harakatlanuvchi (animatsiya) hamda siqilgan rasmlar. Bunday grafik ma'lumotlar tarkibida matnli axborot mavjud bo'lmaydi. Shundan ko'rinib turibdiki, demak rasm ko'rinishidagi ma'lumotlar ustida faqatgina uning nomi yoki turi bo'yicha qidiruv olib borish mumkin. Ko'pgina internet qidiruv tizimlari grafik yoki tasvir ko'rinishidagi ma'lumotlarni qidirish uchun alohida bo'limga ega bo'lib, bu bo'lim orqali ixtiyoriy turdagi rasmlarni ularning nomlari bo'yicha qidiruvni amalga oshirish mumkin. Masalan, quyidagi 21 - rasmga shunday qidiruv tizimlarining biri tasvirlangan.



21 - rasm

9.4. Musiqalarni va filmlarni qidirish. Internet tarmog'ida matnli yoki rasm ko'rinishidagi ma'lumotlardan tashqari musiqa va video ma'lumotlarning ham ko'plab manbalari mavjud. Internet tarmog'i orqali har bir foydalanuvchi musiqa eshitishi, radio tinglashi, teledasturlar yoki videofilmlarni tomosha qilishi mumkin. Internet orqali radioeshittirish va teledasturlar namoyishi ma'lum, ushbu turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi tizimlar (serverlar) tomonidan amalga oshiriladi. Internet orqali radio tinglash yoki teleko'rsatuvni tomosha qilish uchun ushbu tizimga bog'lanishni o'zi kifoyadir. Ammo musiqa va filmlar Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlarda alohida material ko'rinishida saqlanadi. Ularni tinglash, tomosha qilish yoki kompyuterga ko'chirib olish uchun avvalo kerakligini qidirib topish zarur.

Musiqa va video materiallari ustida ham grafik (rasm) materiallar kabi uning nomi yoki izohi bo'yicha qidiruv olib borish mumkin. Bunda musiqa va filmlarni qidirib topish uchun qidiruv tizimi maydoniga materialning nomi yoki uning izohiga taaluqli biror jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so'ng qidiruv tizimi tomonidan kiritilgan jumlagacha mos keluvchi musiqa va video materiallar joylashgan Web-saytlarning ro'yhati shakllantiriladi. Ro'yxatdagi Web-saytlar foydalanuvchi tomonidan birin – ketin ko'rib chiqiladi va kerakli materiallar kompyuterga saqlab olinadi.

9.5. [WWW.UZ](http://www.uz) Milliy axborot-qidiruv tizimi. www.uz – bu barcha foydalanuvchilar uchun yurtimizning Internet tarmog'idagi milliy segmenti axborotlaridan qulay tarzda foydalanish imkoniyatini beruvchi tizimdir (22-rasm). Milliy axborot-qidiruv tizimini rivojlantirish ishlari axborot va kompyuter

texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish UZINFOCOM Markazi tomonidan olib boriladi. Milliy axborot-qidiruv tizimining asosiy xususiyatlaridan biri uning ko'p tilli axborot qidiruvi (ruscha, o'zbekcha) va boshqa milliy axborot tizimlari va ma'lumot omborlari bilan o'zaro ishlay olishidadir.

www.uz Internet tarmog'i foydalanuvchilariga milliy sigmentda joylashgan Web-saytlar bo'yicha qidiruv xizmatini taqdim etadi va qidiruvni Web-sayt manzili va ichki ma'lumotlari bo'yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo'lgan axborotni samarali qidirish va topish imkoniyatini beradi.


Bundan tashqari www.uz qidiruv tizimi Internet resurslari (Web-saytlari) katalogini va Web-saytlar reytingi yuritadi, saytlar bo'yicha jamlangan statistik ma'lumotlarni to'playdi hamda axborot texnologiyaari sohasidagi yangiliklar va maqolalarni yoritib boradi.

www.uz "Katalog" bo'limi – Internet tarmog'ida ochiq holda joylashgan, O'zbekiston Respublikasiga aloqador bo'lgan, ro'yxatga olingan, izohlari keltirilgan va katalog mavzulari bo'yicha saralangan Web-saytlar to'plami.

www.uz katalogi foydalanuvchilari o'zlariga kerak bo'lgan saytni mavzular bo'yicha (Iqtisod, OAV, Madaniyat va boshqalar) qidirish orqali tezroq topishlari mumkin. Katalog har kuni qidiruv tizimining faol foydalanuvchilari tomonidan yangi saytlar bilan boyitib boriladi.


Shu bilan birga www.uz ning har bir foydalanuvchisi "Top-reyting" bo'limiga kirib, barcha ro'yxatga olingan saytlar reytingini ko'rishi, "Jamlangan statistika" bo'limida esa ularning statistikasi bilan tanishib chiqishi mumkin.

9.6. Mashhur Internet qidiruv tizimlari. Internet tarmog'i yirik ma'lumotlar ombori hisoblanadi. Undan kerakli ma'lumotlarni qidirib topish foydalanuvchining oldiga qo'yilgan eng asosiy masalalardan biridir. Bunday hollarda yirik ma'lumotlar omboridan kerakli ma'lumotlarni qidirib topishda axborot-qidiruv tizimlari muhim ahamiyatga ega. Internet tarmog'ida bunday tizimlarning ko'plab turlarini uchratish mumkin. Bulardan Google (23-rasm), Rambler (24-rasm), Yandex (25-rasm), Yahoo (26-rasm) tizimlari o'zbek, rus va ingliz tillarida qidiruvni olib boradigan eng mashhurlari hisoblanadi.




<http://www.google.ru>

23-rasm




<http://www.rambler.ru>

24-rasm



[http://www. Yandex.com](http://www.Yandex.com)

25-rasm



[ttp://www.yaoo.com](http://www.yaoo.com)

26 - rasm

Ushbu mashhur qidiruv tizimlarining har biri oddiy va batafsil kengaytirilgan qidiruv hamda matnli, rasm, musiqa, video va boshqa turli shakldagi axborotlarni qidirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu turdagi axborot-qidiruv tizimlaridan foydalanib ixtiyoriy foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan ixtiyoriy turdagi ma'lumotni qidirib topishi va undan foydalanishi mumkin. Agar sizga biror ma'lumot kerak bo'lib, lekin siz uning qayerda va qanday ko'rinishda joylashganligini bilmasangiz, u holda shu kabi axborot – qidiruv tizimlaridan foydalaning.

9.7. Ixtisoslashgan axborot qidiruv tizimlari. Axborot qidiruv tizimlari – bu Web-sayt hisoblanib Internet tarmog'ida axborotlarni qidirish imkoniyatini taqdim etadi. Bunda yuqorida sanab o'tilganidek Google va Yahoo dunyodagi eng mashhur qidiruv tizimlaridan hisoblanadi. Bizning davlatimizda www.uz axborot-qidiruv tizimi qidiruv so'rovlari bo'yicha ilg'orlardan biridir. Bundan tashqari Internet tarmog'ida ma'lum sohada ishlaydigan ixtisoslashgan qidiruv tizimlari ham mavjud. Bulardan eng ommaboplari quyidagilar:

“KtoTam” – insonlar to'g'risidagi axborotlarni qidirishga mo'ljallangan yangi turdagi axborot-qidiruv tizimi. Bunda insonlarni ismi, sharifi, familiyasi, kasbi, lavozimi va unvon hamda tashkilot va boshqa insonlar orqali topish mumkin.

“Tagoo” – musiqalarni qidirishga mo'ljallangan qidiruv tizimi. Boshqa qidiruv tizimlariga nisbatan ushbu tizim o'zining kengaytirilgan musiqa bazasidan va boshqa saytlarning mp3 resurslaridan qidirib ularning ro'yxatini shakllantiradi. So'rovda musiqa nomini, uning ijrochisini hamda al bom nomlarini ham kiritish mumkin.

“Truveo” – Internetning turli resurslaridagi videomateriallarni qidirishga ixtisoslashgan axborot – qidiruv tizimi. Bu tizim orqali on-line video hamda teledasturlar namoyishlarini ham qidirib topish mumkin.

“Kinopoisk” – filmlar to'g'risidagi axborotlarni qidirish tizimi. Qidiruv vaqtida filmning nomi, chiqqan yili, janri, ishlab chiqqan davlat nomi, kompaniya nomi, aktyorlar ismlari hamda rejissyorlar va ssenariy mualliflari ism shariflaridan ham foydalanish mumkin.

“Ebdb” – elektron kutubxonalardan kitoblarni qidirishga ixtisoslashgan axborot-qidiruv tizimi. Ushbu saytning ma'lumotlar bazasida elektron ko'rinishda tarqatiladigan adabiyotlarning ko'plab mashhurlari to'plangan. Qidiruv natijalari kitob nomlari bo'yicha guruhlanadi.

“Ulov-Umov” – rezyume va vakant joylarni qidirish tizimi. Bunda qidiruv jarayonida karyera va ishga bag'ishlangan hamda ijtimoiy tarmoq va boshqa saytlar vakansiyalari tekshiriladi va ro'yxati shakllantiriladi.

9.8. Qidiruv tizimlaridan to'g'ri maqsadda foydalanish. Ha, afsuski, bugungi kunda kompyuterga va internetga yoshlar tomonidan birinchi navbatda ko'ngilochar vosita deb qaralmoqda. Ayniqsa, bolalar kompyuterga ko'zi tushgan zahoti darrov o'yinlarni so'rashadi, ko'pchilik yoshlar esa Internetga ulangani zaxoti esa rasmlar tomosha qilishni so'rashadi.

Internet resurslari xilma-xildir. Ularning ichida ham foydali ham zararli bo'lganlari ma'lumotlar uchraydi. Internet tarmog'idagi axborot-qidiruv tizimlari esa Internet resurslari ichidan so'ralgan ixtiyoriy ma'lumotlarni qidirib topib berish imkoniyatiga ega. Chunki bunday qidiruv tizimlari kalit so'zlar bo'yicha qidirishni amalga oshiradi. Foydalanuvchi tomonidan qanday ma'lumot kiritilsa, xuddi shu

ma'lumotga mos ma'lumotlarni qidirib topadi. Shu narsani eslatib o'tish kerakki, har qanday axborot ham foydali va to'g'ri, rost hisoblanavermaydi. Axborot-qidiruv tizimlaridan faqatgina to'g'ri va foydali maqsadda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Turli nojo'ya ma'lumotlardan foydalanishdan va tarqatishdan saqlanish maqsadga muvofiqdir.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Axborot qidirish nima uchun zarur?
2. Axborot qidirish usullari to'g'risida ma'lumot bering?
3. Milliy axborot qidiruv tizimlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Chet el axborot qidiruv tizimlaridan qanday ma'lumotlar olgansiz?
5. Qidiruv tizimi madaniyati deganda nimani tushunasiz?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Internetda axborot qidiruv tizimlari" mavzusida taqdimot yarating.
2. www.uz – milliy axborot qidiruv tizimidan internetga tegishli o'quv qo'llanmani topib, yozib oling.
3. Ushbu mavzuni insert usulini qo'llab o'rganib chiqing.
4. Axborot, qidirish so'zlariga sipkveyn tuzing.
5. Axborot qidirish so'zini klasterga yoying.

10. INTERNET ORQALI MULOQOT

10.1. Forum

10.2. Milliy va xalqaro internet forumlari

10.3. Uforum.uz - milliy forumi

10.4. Forumlarda ishtirok etish tartibi

10.5. Bloglar va viki – saytdagi materialga izoh berish va ma'lumot qoldirish

10.6. Internetda chatdan foydalanish

10.7. Internet orqali so'zlashuv

10.8. Internet orqali video muloqot

10.9. Web kamera va uning ahamiyati

10.10. Skayp, Meyl Agent, Google Talk, IC dasturlari

10.11. Twitter ommaviy axborotlarni jo'natish tizimi

10.12. Internet orqali muloqot qilish va izoh qoldirish madaniyati

10.1. Forum. Internet tarmog'ida forumlar Web-sayt ko'rinishida bo'ladi va Web-forum deb ataladi. Web-forum - Web-sayt tashrif buyuruvchilarining o'zaro muloqotini tashkil etish uchun mo'ljallangan Web sayt sahifalari va uskunalari majmui. Qisqacha aytganda, forum bu Web-saytning tashrif buyuruvchilari muloqot o'rnatadigan maydonchasi. Bunda ixtiyoriy foydalanuvchi forum Web saytiga tashrif buyurib, o'zini qiziqtirgan mavzuni o'rtaga tashlashi va Web-saytning boshqa tashrif buyuruvchilari bilan muhokama qilishlari mumkin.

Forum muloqotning yana bir oddiy turi bo'lib, bu muloqotda ixtiyoriy vaqtda ixtiyoriy joydan qatnashish ham mumkin. Bunda biror bir mavzu tanlanadi va u muhokamaga qo'yiladi. Qatnashuvchilar muzokara bilan tanishib o'z fikrlarini jo'natishlari mumkin. Bu usulda siz muhokamada qatnashayotganlarni ko'rmaysiz, faqatgina ularning fikrlari bilan tanishib chiqishingiz mumkin. Forumda turli - tuman mavzular muhokama qilinadi. Bunda siz biror mavzuni tanlab, ularning muhokamasida ishtirok etishingiz mumkin.

10.2. Milliy va xalqaro internet forumlari. Internet forumlari alohida yo'nalishlarga ixtisoslashgan yoki umumiy bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan Internet forumlarga meditsina, dasturlash texnologiyalari, dizayn va moda, kompyuter o'yinlari va transport vositalariga bag'ishlangan forumlar misol bo'ladi. Ixtisoslashgan forumlarda faqatgina mo'ljallangan sohaga oid mavzular muhokama qilinadi, umumiy forumlarda esa ixtiyoriy mavzuni o'rtaga tashlash mumkin.

Halqaro forumlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- *Medicinform.Ru* forumi – ushbu forum orqali tibbiyot sohasiga ixtisoslashgan bo'lib, kasalliklar va ularni davolash, dori vositalar va ularni to'g'ri qo'llash hamda tibbiyot bo'yicha yuridik maslahat olish mumkin.

- *Progz.ru* forumi – ushbu forum dasturlash texnologiyalaridan foydalanish, kompyuter dasturiy vositalarini ishlab chiqish va dasturlash bilan bog'liq yuzaga kelgan muammolarni muhokama qilishga mo'ljallangan.

- *Avtomobili.by* forumi – ushbu forum avtomobil ishqibozlari forumi bo'lib, unda avtomobillar brendlari, markalari va turlari hamda ularni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish mumkin.

- *Stopforum.ru* forumi – bu kompyuter o`yinlari forumidir. Bunda o`yinlarning turlari, ularni o`ynash sirlari va yuzaga kelgan muammolar muhokama qilinadi.

- *WildDesign.ru* forumi – bu forumda dizayn, moda va tasviriy san`at ixlosmandlari va ijodkorlari fikr almashishadi. Bundan tashqari ijodkorlar asarlaridan baxramand bo`lish mumkin.

10.3. Uforum.uz - milliy forumi. Uforum.uz – milliy forum hisoblanib, bunda Respublikamizning axborot texnologiyalari, ta`lim, madaniyat, moliya, sog`liqni saqlash sohalarida hamda davlat sektori va elektron hukumat tuzilmasida ro`y berayotgan masalalar muhokamasini o`z ichiga oladi (27-rasm). Quyidagi rasmda milliy forumning bir sahifasi tasvirlangan.



27-rasm

10.4. Forumlarda ishtirok etish tartibi:

O`zbekiston respublikasida forumlarda ishtirok etish uchun quyidagilar talab etiladi:

- forumdan ro`yxatdan o`tish. Forum qoidalariga va O`zbekiston Respublikasi qonunlariga rioya qilish shart;
- forumdan ro`yxatdan o`tishda rasmiy shaxslar login uchun o`zlarining xaqiqiy ma`lumotlarini Ism, Sharifi, shuningdek ish joyi va lavozim xam majburiy shartlarga kiradi;
- ma`lumotlarni kiritish bilan birga foydalanuvchi profil uchun avatar sifatida surat xam taqdim etishi lozim;
- ma`lumotlarini oshkor qilishni istamagan foydalanuvchilar esa o`zlari ma`qul deb topgan niklarni tanlashlari mumkin;

- tsenzuraga oid soʻzlashuv, xaqorat, fleym, offtop, spam va reklama taʼqiqlanadi;
- insonlar shaxsiyatiga tegadigan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid muhokamalar, resurslarga ishoratlar, fayllar va tasvirlar nashr qilish taʼqiqlanadi;
- Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tarzda faoliyat olib bormaydigan saytlarga ishorat joylash yoki shunday maʼlumotlarga ega boʻlgan saytlardan maʼlumot joylash taʼqiqlanadi.

10.5. Bloglar va viki – saytdagi materialga izoh berish va maʼlumot qoldirish.

Blog - bu tarkibi matn, tasvir va mul timedia maʼlumotlaridan iborat boʻlgan doimiy ravishda qoʻshilib turiladigan maʼlumotlar yoki izohlardan iborat boʻlgan sayt. Bloglar odatda u yoki bu material Web sahifasi tarkibida mavjud boʻlib, materialga berilgan izohlarni oʻzida mujassamlaydi.

Viki – bu saytning oʻzi tomonidan taqdim etiladigan uskunalar yordamida uning tuzilmasini va tarkibini foydalanuvchilar oʻzgartira olish imkoniga ega boʻlgan Web sayt.

10.6. Internetda chatdan foydalanish. Chat deganda real vaqt tizimida Internet tarmogʻi orqali xabarlarni tezkor almashish vositalari va ushbu muloqotni taʼminlab beruvchi dasturiy taʼminot tushuniladi. Forumlarga nisbatan chat tizimida muloqot qilish va xabarlar almashish real vaqt tizimida sodir boʻladi.

Chat - bu bir vaqtning oʻzida bir necha foydalanuvchining Internet orqali muloqotidir. Bunda foydalanuvchilar odatda matn yozishish orqali yangiliklar bilan almashishadi, yoki biror mavzuni muhokama qilishadi, yoki gaplashishadi. Chat tizimida barcha foydalanuvchilar oʻzaro yozuv koʻrinishidagi xabarlarni almashish orqali muloqot qiladi.

10.7. Internet orqali soʻzlashuv. Internet orqali oʻzaro muloqot deganda ikki yoki undan ortiq foydalanuvchilarning bir vaqtini oʻzida, bir-birlari bilan internet tarmogʻi orqali aloqa oʻrnatilishi tushuniladi. Bunday muloqot jarayonida foydalanuvchilarning joylashuv oʻrni ahamiyatga ega emas, yaʼni foydalanuvchilar qaerda boʻlishlaridan qatʼiy nazar Internet tarmogʻi orqali muloqot oʻrnata oladilar. Bunday soʻzlashuvlarni amalga oshirish uchun maxsus dasturlar boʻlishi talab qilinadi. Bunday dasturlarga Skype, Maill Agent, Google Talk, ICQ dasturlari kiradi.

Internet orqali soʻzlashuv jarayonida mikrofon va eshitish qurilmasini kompyuterga ulab keltirilgan dasturlar yordamida foydalanuvchilar soʻzlashib muloqot qilishlari mumkin. Bunda Internet orqali muloqot jarayoni foynalanuvchiga tezkorligi, arzonligi xamda sifatli bilan qulayliklar yaratib beradi.

10.8. Internet orqali video muloqot. Internet orqali video muloqot deganda foydalanuvchilar bir birlarini komp yuter ekranida (on-line tarzda) koʻrib turadilar, yaʼni foydalanuvchilarning harakatli tasvirlari bir-birlariga uzatiladi. Bu video aloqani amalga oshirib beruvchi qurilma Web kamera deb nomlanadi. Internet orqali video muloqot jarayonida muloqotda qatnashayotgan barcha foydalanuvchilar bir - birining gapini eshitibgina qolmay, balki bir-birlarini koʻrib ham turishadi.

10.9. Web kamera va uning ahamiyati. Web kamera alohida qurilma bo'lib, u kompyuter vositasiga ulanadi va Internet tarmog'i orqali muloqotlarda ishlatiladi (28-rasm).

Web kameradan foydalanish va u orqali muloqot qilish uchun Internet tarmog'i ulangan bo'lishi hamda har bir foydalanuvchi kompyuterida Web kamera qurilmasi o'rnatilgan bo'lishi shart.



28 - rasm

Web kamera foydalanuvchilarga juda ko'p qulayliklarni yaratib beradi, ya'ni suhbat jarayonida foydalanuvchilar qayerda joylashganligidan qat'iy nazar birbirlarini ko'rib turadilar. Internet tarmog'i orqali video muloqotlar Skype, Mail Agent, Google Talk, ICQ dasturlari orqali amalga oshiriladi.

10.10. Skype, Mail Agent, Google Talk, ICQ dasturlari.


Skype dasturi. Skype – bu Internet orqali komp yuterlararo so'zlashuv aloqasini ta'minlab beruvchi tizimdir (29-rasm). Skayp tizimi Internet orqali mobil va uy telefonlariga qo'ng'iroq qilish pullik xizmatlarini ham ko'rsatadi. Bundan tashqari skayp tizimi yordamida chat sifatida matn xabarlarini yuborish, videoqo'ng'iroqlarni amalga oshirish hamda konferensaloqani amalga oshirish mumkin. Video qo'ng'iroqlarni amalga oshirishda Web kameradan foydalaniladi.



29 - rasm


Mail Agent dasturi. Mail.Ru Agent - Mail.Ru kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, Internet orqali tezkor xabarlarini almashish dasturi. Mail.Ru dasturi tezkor

xabarlarni almashishdan tashqari, Internet orqali telefon qurilmalari yordamida so`zlashish, videoqo`ng`iroqlarni amalga oshirish, tekin SMS xabarlarni jo`natish hamda elektron pochtagizga kelib tushgan xatlar to`g`risida ogohlantirish imkoniyatlarini ham taqdim etadi (30-rasm).



30 – rasm

Google Talk dasturi. Google Talk dasturi Google kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan tezkor real vaqt tizimida xabarlarni almashish dasturi hisoblanadi. Google Talk dasturi matn ko`rinishidagi xabarlarni almashish, va tovushli so`zlashish imkoniyatini taqdim etadi. Bundan tashqari Google Talk dasturi Gmail elektron pochta tizimining xizmatchi dasturi bo`lib pochta qutisini boshqarish vazifasini ham bajaradi. Google Talk dasturidan foydalanish uchun albatta Gmail tizimida elektron pochta qutisiga ega bo`lish kerak (31-rasm).



31 - rasm

ICQ- hozirgi kunda eng ommabop bo'lgan internet muloqot dasturi hisoblanadi (32-rasm). Bu dasturning foydalanuvchilar soni 42 mln. dan oshib ketgan. Bu dasturda xar bir foydalanuvchi shaxsiy raqamiga ega bo'ladi. Qidiruvni amalga oshiradigan vaqtda ham ICQ raqamidan foydalaniladi. Foydalanuvchilar Internetga ulangan kompyuterda ushbu dasturni ishga tushiradi, shundan so'ng dastur avtomatik ravishda ICQ xizmati serveri bilan bog'lanadi. Bog'lanish amalga oshirilgandan so'ng xabarlar almashish mumkin.



32 – rasm

10.11. Twitter ommaviy axborotlarni jo'natish tizimi.

Internet tarmog'ida Blog degan tushuncha ko'p uchraydi. Bu blogda har bir foydalanuvchi o'z fikrini qoldirishi va shu fikriga tahlillarni olishi mumkin. Twitter fikr almashish uchun mo'ljallangan kichkina blog hisoblanadi. Kichkina blog deyilishiga sabab belgilar soni 140 tani tashkil etadi, ya'ni siz 140 tadan ortiq belgini kirita olmaysiz. Shundan qilib Twitter axborotlarni jo'natish tizimi Web sayt orqali matn xabarlarini, SMS xabarlarini, tabriklarni, minnatdorchiliklarni hamda shunga o'xshash turli ma'lumotlarni jo'natish mumkin. Shuni unutmang, siz jo'natgan xabar yoki ma'lumot barchaga Internet orqali ko'rinadi va imkonli bo'ladi. Shuning uchun, xabarlarini yozishda va jo'natishda axborotlardan foydalanish va ishlash madaniyati qoidalariga rioya qiling.

10.12. Internet orqali muloqot qilish va izoh qoldirish madaniyati. Axborot saytlari tomonidan taklif qilinayotgan yoki ushbu axborot saytidan foydalanishingiz oqibatida paydo bo'layotgan barcha sharhlar, o'zaro aloqa, taklif va fikrlar axborot saytining shaxsiy mulki hisoblanadi va bulardan axborot sayti tomonidan istalgan yerda va istalgan maqsadda dunyoning istalgan yerida sizning ruxsatingizsiz ham foydalanish mumkin. Shuning uchun saytlarda o'zingiz to'g'ringizdagi ma'lumotlarni kiritishda yoki materiallarga izohlar kiritishda ehtiyot bo'ling. Izohlar qoldirishda bironing nafsoniyatiga tegadigan ma'lumotlarni, har xil nojo'ya so'zlarni yozishdan saqlaning. Axborotdan foydalanish madaniyatiga rioya eting.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Internet orqali muloqotning qanday usullarini bilasiz?
2. Forum orqali muloqot tartibini tushuntirib bering?
3. Bir – birini ko'rib muloqot qilish haqida ma'lumot bering?
4. Web – kameradan nima maqsadda foydalaniladi?
5. Internetdagi xalqaro muloqot dasturlari haqida so'zlab bering?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. “Internet orqali muloqot” mavzusiga taqdimot yarating.
2. Quyidagi qo'shaloq so'zlar asosida Venn diagrammasini tuzing.
 - 1) Forum chat
 - 2) Chat video muloqot
3. Forum, blog, viki, chat so'zlarini klasterga yoying.
4. Ushbu mavzuni insert usulini qo'llab o'rganib chiqing.
5. Ushbu mavzu qismlari va so'zlariga Blum savollarini bering.

11. AXBOROT XAVFSIZLIGI

- 11.1. Axborot xavfsizligi*
- 11.2. Login*
- 11.3. Parol*
- 11.4. Avtorizatsiya*
- 11.5. Ro'yxatdan o'tish*
- 11.6. Login va parolga ega bo'lish shartlari*
- 11.7. Login va parolni buzish*
- 11.8. Login va parolni o'g'irlash*
- 11.9. Resurslardan ruxsatsiz foydalanish*
- 11.10. Kompyuter virusi*
- 11.11. Viruslarning turlari*
- 11.12. Viruslarga qarshi kurashish usullari*
- 11.13. Hujum*
- 11.14. Axborot hujumlari va undan saqlanish*

11.1. Axborot xavfsizligi. Axborot xavfsizligini ta'minlash – bu foydalanuvchining axborotlarini himoyalashga qo'yilgan me'yor va talablarni bajarishidir. Axborot xavfsizligi esa bu axborot foydalanuvchilariga va ko'plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun'iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta'sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim ob'ektlarining himoyalanganligidir.

11.2. Login . Login – shaxsning, o'zini axborot kommunikatsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo'llaniladigan belgilar ketma-ketligi bo'lib, axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish huquqiga ega bo'lish uchun foydalaniluvchining maxfiy bo'lmagan qayd yozuvi hisoblanadi.

11.3. Parol. Parol – uning egasi haqiqiylikini aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlatiladigan xarf va sonlardan iborat belgilar ketma-ketligi. U kompyuter bilan muloqot boshlashdan oldin, unga klaviatura yoki identifikatsiya kartasi yordamida kiritiladigan harfli, raqamli yoki harfli-raqamli kod shaklidagi maxfiy so'zdan iborat.

11.4. Avtorizatsiya. Avtorizatsiya – foydalanuvchining resursdan foydalanish huquqlari va ruxsatlarini tekshirish jarayoni. Bunda foydalanuvchiga hisoblash tizimida ba'zi ishlarni bajarish uchun muayyan huquqlar beriladi. Avtorizatsiya shaxs harakati doirasini va u foydalanadigan resurslarni belgilaydi.

11.5. Ro'yxatdan o'tish. Ro'yxatdan o'tish – foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va ularga dasturlar va ma'lumotlarni ishlatishga huquq berish jarayoni. Ayrim Web-saytlar foydalanuvchilarga qo'shimcha xizmatlarni olish va pullik xizmatlarga obuna bo'lish uchun ro'yxatdan o'tishni, ya'ni o'zi haqida ayrim ma'lumotlarni kiritishni (anketa to'ldirishni) hamda login va parol olishni taklif qiladilar. Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgandan so'ng tizimda unga qayd yozuvi (account) yaratiladi va unda foydalanuvchiga tegishli axborotlar saqlanadi.

11.6. Login va parolga ega bo'lish shartlari. Biror shaxs o'zining login va paroliga ega bo'lishi uchun u birinchidan axborot kommunikatsiya tizimida

ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak va shundan so'ng u o'z logini va parolini o'zi hosil qilishi yoki tizim tomonidan berilgan login parolga ega bo'lishi mumkin. Login va parollar ma'lum uzunlikdagi belgilar ketma-ketligidan tashkil topadi. Login va parollarning uzunligi va qiyinligi uning qanchalik xavfsizligini ya'ni buzib bo'lmashligini ta'minlaydi.

11.7. Login va parolni buzish. Login va parolni buzish – bu buzg'unchining biror bir maqsad yo'lida axborot kommunikatsiya tizimi ob'ektlaridan foydalanish uchun qonuniy tarzda foydalanuvchilarga tegishli login va parollarini buzishdir. Bunda maxsus dastur yordamida login va parollar generatsiya qilib topiladi. Login va parollarning uzunligi bu jarayonning uzoq vaqt davom etishiga yoki generatsiya qilaolmasligiga ishora bo'ladi.

11.8. Login va parolni o'g'irlash. Login va parolni o'g'irlash – bu foydalanuvchilarning mahfiy ma'lumotlari bo'lgan login va parollarga ega bo'lish maqsadida amalga oshiriladigan internet firibgarligining bir turidir. Bu mashhur brendlar, masalan, ijtimoiy tarmoqlar, banklar va boshqa servislar nomidan elektron xatlarni ommaviy jo'natish yo'li orqali amalga oshiriladi. Xatda odatda tashqi ko'rinishi asl saytdan farq qilmaydigan saytga to'g'ri ishorat mavjud bo'ladi. Bunday saytga tashrif buyurgan foydalanuvchi firibgarga akkauntlar va bank hisob raqamlariga kira olishga ega bo'lishga imkon beruvchi muhim ma'lumotlarni bildirishi mumkin. Fishing – ijtimoiy injeneriyaning bir turi bo'lib, foydalanuvchilarning tarmoq xavfsizligi asoslarini bilmasligiga asoslangan. Jumladan, ko'pchilik oddiy fakti bilishmaydi: servislar qayd yozuvingiz ma'lumotlari, parol va shu kabi ma'lumotlarni yuborishni so'rab hech qachon xat yubormaydi.

11.9. Resurslardan ruxsatsiz foydalanish. Axborot-kommunikatsiya tizimining ixtiyoriy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan hamda axborot tizimi taqdim etadigan imkoniyat mavjud bo'lgan resurslardan belgilangan qoidalarga muvofiq bo'lmagan holda foydalanishni cheklash qoidalariga rioya qilmasdan foydalanish – bu resurslardan ruxsatsiz foydalanish toifasiga kiradi. Bunday foydalanish natijasida quyidagi oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:

- axborotning o'g'irlanishi;
- axborotni o'zgartirish;
- axborotning yo'qotilishi;
- yolg'on axborotni kiritish;
- axborotni qalbakilashtirish va h.k.

11.10. Kompyuter virusi. Kompyuter virusi – bu o'z-o'zidan ko'payuvchi, kompyuter tarmoqlari va axborot tashuvchilari orqali erkin tarqaluvchi, hamda kompyuter va unda saqlanayotgan axborot va dasturlarga zarar yetkazuvchi dastur kodi yoki komandalar ketma-ketligi hisoblanadi. Kompyuter viruslari quyidagi xossalarga ega: o'zidan nusxa ko'chirish, axborotdan ruxsatsiz foydalanishni amalga oshirish. U o'zining nusxalarini kompyuterlarda yoki kompyuter tarmoqlarida qayta ko'paytirib va tarqatib, hamda qonuniy foydalanuvchilar uchun nomaqbul harakatlarni bajaradi. Virus, aksariyat hollarda nosozlik va buzilishlarga sabab

bo`ladi va biror hodisa yuz berishi bilan, masalan, aniq kunning kelishi bilan ishga tushirilishi mumkin.

11.11. Viruslarning turlari. Viruslarni quyidagi asosiy alomatlari bo`yicha turkumlash mumkin:

- yashash makoni;
- operatsion tizim;
- ishlash algoritmi xususiyati.

Kompyuter viruslarini yashash makoni, boshqacha aytganda viruslar kiritiluvchi kompyuter tizimi ob`ektlarining xili bo`yicha turkumlash asosiy va keng tarqalgan turkumlash hisoblanadi.

Fayl viruslar turli usullar bilan bajariluvchi fayllarga kiritiladi (eng ko`p tarqalgan viruslar xili), yoki fayl yo`ldoshlar (kompanon viruslar) yaratadi yoki faylli sistemalarni (link-viruslar) tashkil etish xususiyatidan foydalanadi.

Yuklama viruslar o`zini diskning yuklama sektoriga (boot - sektoriga) yoki vinchesterning tizimli yuklovchisi (Master Boot Record) bo`lgan sektorga yozadi. Yuklama viruslar tizim yuklanishida boshqarishni oluvchi dastur kodi vazifasini bajaradi.

Makroviruslar axborotni ishlovchi zamonaviy tizimlarning makrodasturlarini va fayllarini, xususan MicroSoft Word, MicroSoft excel va h. kabi ommaviy muharrirlarning fayl-xujjatlarini va elektron jadvallarini zaxarlaydi.

Tarmoq viruslari o`zini tarqatishda kompyuter tarmoqlari va elektron pochta protokollari va komandalaridan foydalanadi. Ba`zida tarmoq viruslarini "qurt" xilidagi dasturlar deb yuritishadi. Tarmoq viruslari Internet-qurtlarga (Internet bo`yicha tarqaladi), IRC-qurtlarga (chatlar, Internet Relay Chat) bo`linadi.

Kompyuter viruslarining vazifalari, odatda, to`rt bosqichni o`z ichiga oladi:

- virusni xotiraga yuklash;
- qurbonni qidirish;
- topilgan qurbonni zaharlash;
- destruktiv funktsiyalarni bajarish.

11.12. Viruslarga qarshi kurashish usullari. Hozirgi kunda kompyuter viruslarini aniqlash va ulardan himoyalaniş uchun maxsus dasturlarning bir necha xillari ishlab chiqilgan bo`lib bu dasturlar kompyuter viruslarini aniqlash va yo`qotishga imkon beradi. Bunday dasturlar virusga qarshi dasturlar yoki *antiviruslar* deb yuritiladi. Antivirus dasturlariga AVP, Doctorweb, Nod32, AIDS, Kasperskiy dasturlarini kiritish mumkin. Umuman barcha virusga qarshi dasturlar zaxarlangan dasturlar va yuklama sektorlarning avtomatik tarzda tiklanishini ta`minlaydi.

Viruslarga qarshi kurashishning asosan quyidagi usullari mavjud:

1. Muntazam profilaktika ishlarini, ya`ni virusga tekshiruv ishlarini olib borish.
2. Taniqli virusni zararsizlantirish.
3. Taniqli bo`lmagan virusni zararsizlantirish.

11.13. Hujum. Hujum tushunchasi – buzg`unchining biror bir maqsad yo`lida axborot kommunikatsiya tizimlarining mavjud himoyalash tizimlarini buzishga qaratilgan harakati.

11.14. Axborot hujumlari va undan saqlanish.

Axborot hujumlari odatda 3 ga bo'linadi:

1. Ob'yekt haqida ma'lumotlar yig'ish (razvedkalash) hujumi.
2. Ob'yektdan foydalanishga ruxsat olish hujumi.
3. Xizmat ko'rsatishdan voz kechish xujumi.

Axborot hujumlaridan saqlanishda birinchi navbatda axborot kommunikatsiya tizimi ob'yektlariga qilinayotgan hujumlarni topib olishda qo'llaniladigan mexanizm va vositalarni qo'llash kerak. Bularga tarmoqlararo ekran (FIREWALL) va hujumlarni aniqlash (IDS) vositalarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Axborot xavfsizligini ta'minlash nima uchun zarur?
2. Login, parol so'zlari ishlatish shartlarini ayting?
3. Internetda ro'yxatdan o'tish tartibini tushuntiring?
4. Kompyuterga virus yuqqanda qanday belgilar beradi?
5. Kompyuterga virus tushmasligi uchun qanday tadbirlarni bajarish kerak?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Axborot xavfsizligi" mavzusida taqdimot yarating.
2. Virus, login, parol, hujum so'zlarini klasterga yoying.
3. Quyidagi qo'sh so'zlar asosida Venn diagrammasini tuzing.
 - 1) Login parol
 - 2) Virus hujum
4. Ushbu mavzu bo'lim va iboralariga Blum savollarini bering.
5. Ushbu mavzuni Insert usulini qo'llab o'rganib chiqing.

12. ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARI

12.1. Elektron tijorat

12.2. Elektron tijoratning an'anaviy savdodan farqi

12.3. Elektron pul

12.4. Elektron pul birliklari

12.5. Internet to'lov tizimlari

12.6. Internet-banking

12.7. Elektron karmon

12.8. Internet VISA va MasterCard to'lov kartochkalari

12.9. Internet do'konlar va Internet birja

12.1. Elektron tijorat. Elektron tijorat faoliyati O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi 613-II sonli "Elektron tijorat to'g'risida" gi qonuni bilan belgilanadi va amalga oshiriladi.

Elektron tijorat Internet tarmog'idagi tijorat sohasiga oid faollikni, unda oldi-sotdini amalga oshirilishini ifodalash uchun qo'llaniladi. U kompyuter tarmog'idan foydalangan holda xarid qilish, sotish, servis xizmatini ko'rsatishni amalga oshirish, marketing tadbirlarini o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydi.

12.2. Elektron tijoratning an'anaviy savdodan farqi. Elektron tijoratning an'anaviy savdo turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi:

- xaridor o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega;

- savdo-sotiq faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjud;

- ko'p sonli xaridorlarning bir vaqtning o'zida bir nechta firmalarga murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli xaridorlarning aloqa vositalari yordamida sotuvchilar bilan muloqotda bo'lish imkoniyati;

- kerakli mahsulotlarni tezlikda izlab topish va shu mahsulotlari bor firmalarga murojaat qilishda texnika va transport vositalaridan samarali foydalanish, mahsulotlarni bir joyga yig'ish va ularni sotib olishda aniq manzillarga murojaat qilish. Ortiqcha vaqt va xarajatlarni kamaytiradi;

- xaridorning yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati;

- hozirgi kunda chiqqan jahon standartlariga javob beradigan mahsulotlarni tanlash va sotish imkoniyati;

- elektron tijorat sotuvchining mahsulotlarini (ish, xizmatlarini) sotish jarayonidagi imkoniyatini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Endi sotuvchi mahsulotlarini sotish jarayonini tezlashtirishi, yangi va sifatli mahsulotlarni muntazam almashtirishi, mahsulotlarning aylanma xarakatini tezlashtirishi kerak bo'ladi;

Elektron tijoratda savdoni tashkil qilish firmalarning raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlarning sifatini oshirish imkoniyatini beradi. Xaridorlar kundalik xayotida kerakli mahsulotlar ichida sifatllilarini tanlashi mumkin. Chet el firmalariga murojaat qiladi.

12.3. Elektron pullar. Elektron pul – bu pul birligiga tenglashtirilgan belgilar hamda kupyura va tanga rolini bajaruvchi juda katta son yoki fayllardir. Bunday tizimning faoliyat ko'rsatish harajatlari boshqalaridan ancha kam. Bundan tashqari, elektron pullar to'liq anonimlikni ta'minlashi mumkin, chunki uni ishlatgan mijoz haqida hech qanday ma'lumot berilmaydi.

12.4. Elektron pul birliklari.

WMY – O'zbekiston zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun UZSning Y-hamyondagi ekvivalenti.

WMR – rubl zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun RURning R-hamyondagi ekvivalenti, WMR operatsiyalarining kafili bo'lib WebMoney Transfer ning Rossiya hududidagi vakili "BMP" MChJ xizmat qiladi.

WMZ – AQSh dollarida operatsiyalarni amalga oshirish uchun USD ning Z-hamyondagi ekvivalenti.

WME – yeVRO da operatsiyalarni amalga oshirish uchun EURning ye-hamyondagi ekvivalenti, WMZ va WME operatsiyalarining kafili bo'lib Amstar oldings Limited, S.A. xizmat qiladi.

WMU – Ukraina zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun UAning U-hamyondagi ekvivalenti, WMU operatsiyalarining kafili bo'lib "Ukrainskoe Garantiynoe Agentstvo" MChJ xizmat qiladi.

WMB – Bellorusiya zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun BYRning V-hamyondagi ekvivalenti.

WMG – 1 gramm oltinning G-hamyondagi ekvivalenti.

WBC va WMD – WMZning S va D hamyonlardagi kredit operatsiyalari uchun ekvivalenti.

12.5. Internet to'lov tizimlari. Texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish elektron to'lovdir.

Elektron to'lov tizimida tovar xizmatlar to'lovi xaridorning elektron hisobidan shaxsiy bank raqami hisobiga pul mablag'larini chiqarish imkoniga ega bo'lgan sotuvchining elektron hisobiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.


Quyidagi elektron to'lov tizimlari mavjud:

- WEBSUM (33-rasm);
- iPAY (33-rasm);
- PAYNET;
- WEBMONEY;
- IntellectMoney;
- Perfect Money;
- RBK Money;
- V-money.


Elektron to'lov tizimlari yordamida Internet va IP-telefoniya ulanish uchun «PIN» kodlar va internet do'konlardan tovarlarni harid qilish, uyali aloqa xizmati,

shahar telefoniyasi, kommunal xizmatlar, domen va hosting, reklama, televideniye, chiptalar, datatsentrlar, Web resurslar uchun haq to'lash mumkin.

iPAY – bu UzExdagi birja savdolarida, www.uzbex.com global savdo maydonchasida, hamda iPAY tizimiga qo'shilgan internet do'konlarda onlayn to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi, O'zbekiston Respublikasi tovar homashyo birjasining to'lov tizimidir.



WEBSUM elektron to'lov tizimi.



iPAY elektron to'lov tizimi.

33 - rasm

12.6. Internet-banking. To'lov tizimlari orasida alohida guruh, bu Internet banking funksiyasini bajaruvchi tizim, ya'ni Internet orqali bank operatsiyani amalga oshirish hisoblanadi.

Internet-banking – bankdagi hisob raqamni Internet orqali boshqarish imkoniyatini beradigan xizmat. Internet banking tizimida samarali ishlash uchun Internetga ulangan va Internet brouzerga ega kompyuter bo'lishi yetarli hisoblanadi.

Internet-banking imkoniyatlari quyidagilarni bajarishga imkon beradi:

- bankka barcha turdagi moliyaviy hujjatlarni yuborish;
- istalgan davr uchun bankdagi hisob raqamlardan ko'chirmalar va ularga tegishli boshqa hujjatlarni olish;
- haqiqiy vaqt tartibida to'lov hujjatlari bank ishlovidan o'tishining barcha bosqichlarini kuzatish;
- xatolar to'g'risida xabarlarini tezkor olish;
- kirim va chiqim to'lov hujjatlarini ko'rish va chop etish.

Internet-banking va bankdan tashqari elektron to'lovlar tizimlarining yanada rivojlanish jarayonida on-layn sotuvlar sektorida jadal o'sishni kutish lozim, bunda ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchi barcha kompaniyalar Internet tarmog'i orqali tovarlarini bemalol sotishlari mumkin bo'ladi.

To'lovlarning bankdan tashqari sektorini rivojlantirishning keyingi bosqichi bu mobil to'lovlar tizimlari bo'ldi.

12.7. Elektron karmon. Elektron karmon - bu elektron pullarni saqlash uchun mo'ljallangan vosita.

Tovarlarni sotish va xarid qilishga mo'ljallangan Web texnologiyalar asosida yaratilgan axborot tizimi tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar quyidagilardan tashkil topadi:

- mijozga tovar (xizmat) haqida ma'lumot berish;
- mijozdan tovar (xizmat)ga buyurtma qabul qilish.

Ba'zan onlaynli to'lov tizimlaridan foydalanilganda uchinchi vazifa-to'lov haqini olish, tovarni sotishda esa yana to'rtinchi vazifa - haqi to'langan tovarni jo'natish qo'shiladi.

Elektron karmonni to'ldirish va ulardan pul yechishni quyidagi usullar bilan amalga oshirish mumkin:

1. Tijorat banklarida naqd pul bilan;
2. Bank kartalari (VISA, MasterCard, UzKart) yordamida;
3. Pochta orqali;
4. Internet-banking yordamida;
5. Pul o'tqazmalar tizimlari yordamida;
6. Mobil aloqa yordamida.

12.8. Internet VISA va MasterCard to'lov kartochkalari.

Visa Inc. – to'lov operatsiyalarini amalga oshirish xizmatlarini ta'minlovchi amerika kompaniyasi. VISA International Service Association - jahonning yetakchi to'lov tizimi hisoblanadi.

VISA kartalari bo'yicha yillik savdo aylanmasi 4,8 trillion AQSh dollarini tashkil qiladi. VISA kartalari dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlarida qabul kilinadi. Dunyoda to'lov kartalarining 57% VISA kartalari tashkil qiladi, asosiy raqobatchilari MasterCard 26% va American Express 13% tashkil qiladi.

MasterCard Worldwide – dunyoning 210 mamlakatlaridagi 22 ming moliyaviy tashkilotlarni birlashtirgan xalqaro to'lov tizimi hisoblanadi. Bosh ofisi AQShning Nyu-York shahrida joylashgan.

Hozirgi kunda internet to'lov tizimlari to'liqligicha yuqorida keltirilgan VISA va MasterCard bilan ishlash imkoniyatiga ega, ya'ni internet to'lov tizimlaridagi xamyonlarni to'ldirish yoki hamyonlardagi ishlatilmay qolgan mablag'larni qayta kartochkaga chiqarish mumkin.


12.9. Internet do'konlar va internet birja.

Bugungi kunda "Internet do'kon" nomi ostida turli ko'lam va maqsaddagi yechimlarning keng spektri taklif qilinmoqda. WEBSUM elektron to'lov tizimidan foydalanadigan internet do'konlar quyida keltirilgan (34-rasm):



34 – rasm

UzBEx internet birja – bu shaxsiy kompyuter orqali UzBEx savdo maydonchalarida savdo qilish imkoniyatini beruvchi global milliy savdo maydonchasi. Ushbu savdo tizimi, iPAY tizimi foydalanuvchilariga, maksimal qulayliklar bilan osongina o'z tovarlarini sotish va kerakli tovarlarni harid qilish imkonini beradi (35-rasm).



Uzbex.com O'zbekiston global savdo tizimi.

35 – rasm

Mavzu bo'yicha savollar:

1. An'anaviy va elektron savdoning umumiy va xususiy jihatlari haqida ma'lumot bering?
2. Elektron pulni tushirish, to'lash haqida gapirib bering?

3. Internet do`kon haqida nima bilasiz?
4. Internet birja qanday tashkil etiladi?
5. Siz qaysi bank plastik kartochkasidan foydalanasiz?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. “Elektron tijorat tizimlari” mavzusida taqdimot yarating.
2. Ushbu mavzuni insert usulini qo`llab o`rganib chiqing.
3. Quyidagi qo`sh so`zlar asosida Venn diagrammasini tuzing:
 - 1) Elektron tijorat Elektron pul
 - 2) Internet do`koni Internet birja
4. Internet do`kondan Noutbuk xarid qilishga doir materiallarni olib, chop eting.
5. Ushbu mavzuni o`rtoqlaringiz bilan “miya hujumi” usulini qo`llab o`rganib chiqing.

13. ELEKTRON HUJJAT

13.1. Hujjat

13.2. Hujjatlarning turlari

13.3. Elektron hujjat

13.4. An`anaviy va elektron hujjat almashish

13.5. Imzo va uning ahamiyati

13.6. Muhr va uning ahamiyati

13.7. Elektron raqamli imzo

13.8. Elektron raqamli imzodan foydalanish

13.9. Elektron hujjat rekvizitlari

13.10. Elektron kalitlar va sertifikatlar

13.11. Elektron hujjat almashish tizimlari

13.1. Hujjat. Hujjat - matn, tovush yoki tasvir shaklida yozilgan axborot bo`lib, zamon va makonda uzatish hamda saqlash va jamoat tomonidan foydalanish uchun mo`ljallangan moddiy ob`ektdir.

13.2. Hujjatlarning turlari. Hujjat turlari – hujjatlarni o`z shakliga ko`ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Matnli hujjatlar. Qog`ozga yozuv mashinasi, qo`l yoki axborot kommunikatsiya vositalari yordamida tushirilgan qandaydir ma`no beruvchi so`zlar ketma-ketligidir.
- Tovushli hujjatlar. Ovoz yozish vositalari yordamida yozib olingan tovushli axborot.
- Tasvirli hujjatlar. Fotosurat, rang tasvir mahsuli.

13.3. Elektron hujjat. Elektron hujjat O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi 611-II sonli “Elektron hujjat aylanishi to`g`risida”gi qaroriga binoan quyidagicha ta`riflanadi:

Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish (tanib olish) imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga (ma`lumotlarga) ega bo`lgan axborot elektron hujjatdir.

Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.

13.4. An`anaviy va elektron hujjat almashish.

Odatda hujjatlarni an`anaviy tarzda almashish jarayonida pochta xizmati muhim rol o`ynaydi. Chunki pochta xizmatining asosiy vazifasi jo`natmalarni o`z manzillariga yetkazib berishdan iboratdir. Ushbu holatda hujjatlar konvertga solinadi va aloqa bo`limiga topshiriladi. Shundan so`ng pochta xizmati xodimlari tomonidan hujjat kerakli manzilga jo`natiladi va yetkaziladi.

Elektron hujjatlarni almashish tizimi esa an`anaviy hujjat almashish tizimidan biroz farq qiladi. Bunda hujjat elektron ko`rinishda kompyuter, telekommunikatsiya va Internet tarmog`i orqali uzatiladi. Elektron hujjatlarni almashish jarayonida

maxsus ixtisoslashtirilgan tizimlardan (E-hujjat) yoki elektron pochta xizmatidan foydalaniladi. Elektron hujjat almashish tizimlarida hujjatlarni uzatish juda tezkor amalga oshiradi.

13.5. Imzo va uning ahamiyati. Imzo – hujjatning haqiqiyligini va yuborgan jismoniy shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlaydigan insonning fiziologik xususiyati. Imzo orqali insonning shaxsi hamda u yozgan hujjatning haqiqiyliги aniqlanadi.

13.6. Muhr va uning ahamiyati. Muhr – hujjatning haqiqiyligini va biror bir yuridik shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlovchi isbotdir. Muhrlar o'zining alohida shakliga ega bo'lib, asosan hujjatlarning va undagi imzolarning aslligini tasdiqlaydi.

13.7. Elektron raqamli imzo. Elektron raqamli imzo O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdağı 562-II sonli “Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi qaroriga binoan quyidagicha ta'riflanadi:

Elektron raqamli imzo - elektron hujjatdağı mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdağı axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

Elektron raqamli imzo-xabar yoki hujjat yaxlitligini va muallifining xaqiqiyligini tekshirishda qo'llaniladigan va shaxs imzosini to'laligicha o'rnini bosa oladigan hujjatga tegishli isbotdir. U axborot - kommunikatsiya tizimlari orqali uzatilayotgan hujjatlarni va axborotlarni haqiqiyligini tekshirishda qo'llaniladi.

13.8. Elektron raqamli imzodan foydalanish. Elektron raqamli imzodan muhr o'rnida ham foydalanish ham mumkin, bunda faqat va faqat hujjatga tegishli elektron raqamli imzo hujjatdağı barcha o'zgarishlarni yoki o'zgartirishlarni ko'rsatib beradi. Buning uchun elektron raqamli imzo yuridik shaxs nomiga, ya'ni kompaniya va tashkilotlar nomiga ro'yxatdan o'tkaziladi.

13.9. Elektron hujjatning rekvizitlari. Elektron xujjatning rekvizitlari quyidagilardan iborat: elektron raqamli imzo; jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki jo'natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi; jo'natuvchining pochta va elektron manzili; hujjat yaratilgan sana. Qonun hujjatlari asosida yoki elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining kelishuvida boshqa rekvizitlar ham belgilanishi mumkin.

13.10. Elektron kalitlar va sertifikatlar. Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti - bu faqat xujjat muallifiga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni hosil qilish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi. Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti bu elektron xujjatning kim tomonidan yuborilganligini aniqlash va uni haqiqiyligini tasdiklashda qo'llanilishi mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi. Elektron sertifikatlar - bu sertifikatsiya tizimi qoidalariga binoan belgilangan talablarga ko'ra elektron raqamli imzo vositalarining muvofiqligini tasdiqlash uchun hamda elektron raqamli imzo kalitining sertifikati elektron raqamli imzoning ochiq kalitining elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mosligini tasdiqlaydigan va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga ruyxatga olish markazi tomonidan berilgan hujjat.

13.11. Elektron hujjat almashish tizimlari. Elektron hujjat almashish tizimlari O'zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”gi

2004-yil 29-apreldagi 611-II son Qaroriga binoan quyidagicha ta'riflanadi va faoliyat yuritadi:

Elektron hujjat almashish tizimlari-elektron hujjatlarni axborot-kommunikatsiya tizimi orqali jo'natish va qabul qilish jarayonlari yig'indisi. Elektron hujjat aylanishidan bitimlar (shu jumladan shartnomalar) tuzish, hisob-kitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotlarni almashishda foydalanish mumkin. Turli kompaniyalarning avtomatlashtirilgan tizimlari orasida standartlashtirilgan shakldagi ish hujjatlarining (buyurtmalar, hisob raqamlari va sh.k.) ma'lum shakldagi elektron almashinuvi elektron hujjat almashinuvi tizimini belgilaydi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Elektron hujjat afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida ma'lumot bering?
2. Elektron raqamli imzoni qanday tushunasiz?
3. Elektron raqamli imzo qaysi hollarda qo'llaniladi?
4. An'anaviy va elektron hujjat almashishning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlang.

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Elektron hujjat" mavzusida taqdimot yarating.
2. Ushbu mavzuni insert usulini qo'llab o'rganib chiqing.
3. Elektron hujjat, elektron kalit so'zlarini klasterga yoying.
4. Ushbu mavzu bo'lim va iboralariga Blum savollarini bering.
5. Elektron raqamli imzoga ega bo'lim qanday amalga oshiriladi.

14. INTERNET TARMOG'I VIDEO MATERIALLARI

14.1. *Audio va video materiallar*

14.2. *Audio va video materiallarni on-line namoyish qilish*

14.3. *Video materiallar xostingi*

14.4. *YouTube, Utube.uz, Mytube.uz video hosting tizimi*

14.5. *Kino va TV namoyishlar*

14.6. *Musiq, yangiliklar va animatsiyalar namoyishi MP3.uz, Melody.uz, Cinema.uz*

14.7. *O'qitish, ilm-fan va texnika yutuqlari namoyishi*

14.1. Audio va video materiallar. Video so'zi lotincha *video* so'zidan olingan bo'lib – ko'ryapman, qarayapman ma'nosini anglatadi. «Video» so'zi televideniye rivojlanishi bilan o'zining keng tadbqiqini topdi.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida video ma'lumotlardan foydalanish keng ko'lamda qo'llanmoqda. O'z davrida Konfutsiy shunday degan edi: «Eshitganlarimni unutaman, ko'rganlarimni eslab qolaman». Insonda ko'rish hissiyoti eshitish hissiyotidan yuqori turadi. Shuning uchun video ma'lumotlar eng ko'rgazmalili ma'lumot hisoblanadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, videota'lim kelajakda keng ko'lamda qo'llaniladi. Videota'limning asosiy maqsadi – o'qituvchisiz ta'lim olishdan iborat. Ammo, shuni ta'kidlash joizki o'qituvchi o'rnini hech qanday videota'lim bosa olmaydi. Ingliz tilidagi saytlarda bunday ta'limdan foydalanish boshlanganiga yigirma yillar bo'lgan.

Audio so'zi lotincha *audio* so'zidan olingan bo'lib – eshitaman ma'nosini bildiradi. Ushbu formatdagi ma'lumotlardan o'quv jarayonida foydalanish ancha ilgari, ya'ni audio yozuvlar paydo bo'lgan vaqtdan boshlangan. Audio ma'lumotlardan foydalanish ayniqsa tillarni o'rganishda juda qulay va yuqori samara berishi mumkin.

14.2. Audio va video materiallarini on-line namoyish etish. Internet tarmog'i rivojlanishi bilan video va audio materiallardan o'quv jarayonida foydalanishning qulay imkoniyatlari vujudga keldi (36-rasm). Internet tarmoqlarida video va audio materiallarni saqlash uchun maxsus serverlar mavjud. Masalan, Youtube – bu video almashish uchun Web-sayt, bu saytda tashrif buyuruvchilar videoni yuklash va jo'natish, tomosha qilishlari mumkin. Youtube saytida turli mavzularda yetarli darajadagi video ma'lumotlar to'plangan. Mazkur saytda ma'lumotlar avi, yoki flv formatlarida saqlanadi. Flv formatidagi fayllar ixcham va uni yuklash uchun ko'plab internet resurslari talab etilmaydi.



36-rasm

14.3. Video materiallar xostingi. Umuman olganda yaratilgan saytni internet tarmog`ida joylashtirish uchun serverga yuboriladi. Internet operatorlarining (provayder) serverlarida saytlarni saqlash xizmati – xosting xizmati ko`rsatish deyiladi. Turli yo`nalishdagi turli mazmundagi saytlar singari video va audio ma`lumotlar ham serverlarda saqlanadi.

Video materiallar hostingi saytlaridan namunalar (37-rasm):

1. "Google video" - хостинг видеоматериалов
Смешное, страшное, удивительное видео, рекламные ролики, спортивные моменты и пр. Возможность бесплатного размещения. http://video.google.com/
2. "Grouper.com" - бесплатный хостинг видео
Возможность размещения и просмотра роликов: музыкальные, рекламные, анимационные материалы, приколы, семейное видео и пр. http://crackle.com/
3. "Intv.ru" - видеохостинг
Возможность создания собственного видеоархива, интернет-телевидения, интернет-магазина по продаже видео. Поиск видео по тегам, жанрам, категориям и алфавиту. http://www.intv.ru/
4. "Lovi.tv" - видеохостинг
Подборки авторского видео, мультфильмов, кинотрейлеров, видеоприколов и др.; поиск видеороликов по тегам, тематике, популярности. http://www.lovi.tv/

37 - rasm

14.4. Kino va TV namoyishlar. Odatdagi televideniyadan farqli o`laroq, internet orqali uzatiladigan TV dasturlarda foydalanuvchiga imkoniyatlar beriladi. Yagona formatning qo`llanilishi ma`lum darajada videosignallarning sifati buzilmasligini ta`minlaydi. Fayl formatidagi materialni yuklash eng tezkor va ishonchlidir. Axborotni fayl formatida uzatishning afzalliklaridan biri tarmoq tezligi bilan baholanadi. Undan tashqari IP protokollari va xatolikni tekshiruvlar axborotni uzatishning aniqligini kafolatlaydi. Fayllar real vaqtga nisbatan 20-30 marta tezroq uzatilishi mumkin.

Hozirgi paytga kelib telekompaniyalar o'z saytlari orqali ko'rsatuvlarni uzatish ishlarini takomillashtirib bormoqda. Masalan, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining saytiga kirish uchun <http://www.mtrk.uz> manzili muloqot oynacining manzil satriga yoziladi.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining mtrk.uz sayti bosh sahifasi quyidagicha bo'lib (38-rasm), undagi tegishli teleradioko'rsatuvlarni internet orqali on-line rejimida ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz.



38 - rasm

Shuningdek, saytga kirgandan so'ng ko'rsatuvlar haqida ma'lumotlar olish mumkin. Bundan tashqari Internet tarmog'ida turli-tuman kinolar jamlangan maxsus saytlar ham mavjud. Bu saytlar orqali filmlarni on-line rejimida tomosha qilish mumkin.

14.5. Musiqa, yangiliklar va animatsiyalar namoyishi. Audio informatsiyaning turkumiga kiruvchi musiqalar to'plami maxsus saytlarda saqlanadi. Jumladan, MP3.uz, Melody.uz, saytlari musiqali fayllarni saqlashga mo'ljallangan va bu saytlarda yuzlab klassik va zamonaviy qo'shiqlar mavjud. Bu saytlardan musiqa fayllarini ko'chirib olish mumkin. Ayniqsa, musiqa fanini o'qitishda sof musiqalardan (minusovka) foydalanish yaxshi samara beradi.

Yangiliklar. O'zbekiston respublikasi Matbuot va axborot agentligi rasmiy Web sayti www.uza.uz, O'zbekiston Respublikasi hukumat portali www.gov.uz hamda www.12.uz saytlari eng asosiy yangiliklarni yoritish saytlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, davlat tashkilotlari, davlat xo'jalik yuritish va boshqaruv organlari, tahririyatlar va shunga o'xshash ko'pgina tashkilotlarning saytlari orqali ham o'ziga tegishli sohada ro'y berayotgan yangiliklar yoritilib boradi.

<http://www.desk.uz> Web saytida esa davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar Web sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati

haqidagi yangiliklar, Musiqa, yangiliklar va animatsiyalar namoyishi xabarlarini topish mumkin.

Animatsiyalar. Animatsiyalar ma'lum vaqt davomida ma'lum sondagi tasvirlarning ketma-ket almashtirilishidan hosil bo'ladigan resursdir. Animatsion fayllar turli dasturlar yordamida yaratiladi. Eng ixcham fayllar gif kengaytmali fayllardir. Macromedia Flash dasturida animatsion va interaktiv fayllar yaratiladi. Hozirgi paytda animatsion fayllar to'plangan ko'plab saytlar mavjud. Animatsiyalarga videofilmlarni, multfilmlarni hamda kompyuter vositasi yordamida modellashtirilgan harakatlanuvchi ob'ektlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

CINEMA.UZ. CINEMA.UZ kompaniyalar guruhi 2007 yilda tashkil qilindi. Guruhning faoliyat yo'nalishlari quyidagilar:


O'zbek va xorijiy audio-videomahsulotlarini sotish hamda ommaviy axborot vositalari – matbuot, televidenie va radioda reklama qilish. O'rta Osiyo va MDH mamlakatlarida o'zbek kinosining distributsiyasi, chet ellarda o'zbek kinematografchilarining manfaatlarini himoya qilish. Raqamli kino mahsulotlarini ishlab chiqarish va namoyish qilish bo'yicha milliy loyihalarni tashkil qilish. Milliy filmlarning raqamli filmlar prokatining xalqaro bozori bilan texnologik jihatdan mos bo'lishini ta'minlash. O'zbek kinosiga kino sanoati sohasidagi zamonaviy raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish. Raqamli kinomastering tizimlariga asoslangan raqamli kinoteatrlar tarmog'ini barpo etish ularda mamlakatimizda suratga olingan filmlarni imtiyozli namoyish qilinishini ta'minlash. Audio, video va teledasturlar, seriallar va filmlar ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlarni chop etish va ko'paytirish (optik disklar replikatsiyasi), prodyuserlik, promoushn.

14.6. O'qitish, ilm-fan va texnika yutuqlari namoyishi. Internet tarmog'ida o'qitish uchun mo'ljallangan portallar keyingi vaqtlarda keskin ko'paydi. Ziyonet portali buning yaqqol namunasidir (39-rasm).

Ziyonet jamoat ta'lim tarmog'i 2005 yil hukumat qarorlariga muvofiq tashkil topgan. Ziyonet tarmog'ining asosiy maqsadi ta'lim tizimida respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilarning bilim olish jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlarini tatbiq etishdir.

Ziyonet tarmog'i Resurs markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Ta'lim muassasalarini ulash monitoringi; Web-texnologiyalar orqali axborot resurslardan keng qamrovda va xavfsiz foydalanish; Axborot-ta'lim resurslarini birlashtiradigan texnologik maydonchani tuzish va rivojlantirish.

Yoshlarni, o'qituvchilarni ta'lim muassasalari va ta'lim sohasiga bog'liq yoki qiziqqan boshqa ijtimoiy qatlamlarni o'zaro birlashtiradigan virtual jamiyatni yaratish.



39 - rasm

Ta'lim va ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarning Uznetda qatnashishi maqsadida, Ziyonet tarmog'ining resurs markazi tomonidan ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalar uchun bepul hosting xizmati taqdim etiladi.

Hukumat qarorlariga muvofiq barcha ta'lim muassasalari (ulanish ob'yektlari) Ziyonet yagona axborot-ta'lim tarmog'ida birlashishlari, ya'ni Ziyonet tarmog'iga birlashish dasturi doirasida internetga ulanishlari shart.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Audio va video materiallar turlarini tushuntiring?
2. On-line namoyish deganda nimani tushunasiz?
3. Ziyonet ta'lim tarmog'i haqida axborot bering?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Internet tarmog'i video materiallari" mavzusida taqdimot yarating.
2. Quyidagi qo'sh so'zlar ishtiroqida Venn diagrammasini tuzing:
 - 1) Audio material, Video material
 - 2) Melody.uz, cinema.uz
3. MPZ.uz yoki Melodu.uz saytidan "Namanganning olmasi" qo'shig'i quyini olib, kompyuterda saqlang.
4. Ushbu mavzuni insert usulini qo'llab o'rganib chiqing.
5. Mavzu bo'lim va atamalariga Blum savollarini bering.

15. INTERNET IJTIMOIIY TARMOQ XIZMATLARI

15.1. *Ijtimoiy tarmoq*

15.2. *Ijtimoiy tarmoqning vazifalari*

15.3. *Odnoklassniki (odnoklassniki.ru) ijtimoiy tarmog'i*

15.4. *Sinfdosh (sinfdosh.uz) ijtimoiy tarmog'i*

15.5. *Facebook (facebook.com) ijtimoiy tarmog'i*

15.6. *Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish madaniyati*

15.1. Ijtimoiy tarmoq. Tarkibi, faqatgina ishtirokchilardan iborat va ular orasida muloqotni o'rnatuvchi, ko'p foydalanuvchili interaktiv Web saytlar asosida yaratilgan tarmoq ijtimoiy tarmoq deb tushuniladi. Mazmuniga ko'ra ijtimoiy tarmoq ikki bosqichli bo'ladi:

1. Foydalanuvchilar orasidagi muloqotni o'rnatib beruvchi dasturiy - apparatli kompleks;

2. Foydalanuvchilar orasidagi umumiy qiziqishlarni aniqlash, guruhlar orasidagi muloqot internet tarmog'i orqali bajarilishi.

15.2. Ijtimoiy tarmoqning vazifalari. Ijtimoiy tarmoqning maqsadi internetda o'zaro qiziqishlar yoki faoliyatga ega shaxslar bilan muloqot qurishdan iborat (40-rasm). O'zaro aloqa ichki pochta yoki xabar almashish tizimi orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarmoqlar ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoq xususiyatlarining biri – do'stlar va guruhlar tizimi. Uni quyidagi chizma yordamida tavsiflash mumkin.



40 - rasm

Foydalanuvchilarining soni bo'yicha hozirda Facebook ijtimoiy tarmog'i 500 000 000 foydalanuvchisi bilan yetakchilik qilmoqda. Undan keyingi o'rinlarda MySpace (255 000 000 foydalanuvchi), Twitter (200 000 000 foydalanuvchi), Windows Live Spaces (120 000 000 foydalanuvchi), Habbo Hotel (120 000 000 foydalanuvchi), V Kontakte (110 000 000 foydalanuvchi), Friendster (90 000 000 foydalanuvchi), Hi5(80 000 000 foydalanuvchi), Tagged.com (70 000 000) .

15.3. Odnoklassniki (odnoklasniki.ru) ijtimoiy tarmog'i. Bunday Web saytlarda odatda o'zingiz xaqingizdagi ma'lumotlarni joylashtirasiz (Tug'ilgan kun, maktab, sevimli mashg'ulot va boshqalar). O'z navbatida siz ham qidirayotgan qatnashchingizni shu turdagi ma'lumotlarini olishingiz mumkin.


Ijtimoiy tarmoqlarning internetdagi g'alabali yurishi 1995-yilda amerikaliklarning Classmate.com (Odnoklassniki uning ruscha analogi hisoblanadi) ijtimoiy tarmog'i yaratilishi bilan boshlandi. Bu ijtimoiy tarmoqning maqsadi sinfdoshlarni internet tarmog'i orqali qidirish, topish va muloqot o'rnatish hisoblanadi. Vazifalari esa o'zaro qiziqish to'rlarini hosil qilish va muloqotni saqlab qolishdan iboratdir.

Albatta, bu Web sahifalarni yaratishdan asosiy ko'zlangan maqsad bir tomondan mablag' ishlash bo'lsa, ikkinchi tamondan sahifani ommalashtirish hamda bir xil dunyoqarashga ega bo'lganlar shaxslar guruhlarini shakllantirish hisoblanadi. Salbiy tomoni, esa shakllangan guruhlarini boshqarib bo'lmaydi.

15.4. Sinfdosh (sinfdosh.uz) ijtimoiy tarmog'i. Ushbu Web sahifa Odnoklassniki (odnoklasniki.ru) ijtimoiy tarmog'i yaratilishi maqsad va vazifalari bilan bir xil bo'lib, faqatgina O'zbekistonliklar fuqoralar uchun yaratilgan va moslashtirilgan.

O'zbekistondagi ijtimoiy tarmoqlar. O'zbekistondagi ijtimoiy tarmoq saytlarini tiliga qarab quydagilarga ajratish mumkin. O'zbek tilini ham qo'llay oladigan ijtimoiy tarmoqlar. www.sinfdosh.uz www.vsetut.uz

15.5. Feysbuk (facebook.com) ijtimoiy tarmog'i. Ushbu Web sahifa ham Odnoklassniki (odnoklasniki.ru), www.sinfdosh.uz ijtimoiy tarmog'lari yaratilishi maqsad va vazifalari bilan bir xil bo'lib, faqatgina ingliz tilida so'zlashuvchilar uchun yaratilgan va moslashtirilgan (41-rasm)



41 - rasm

Bundan tashqari qiziquvchilar quyidagi Web sahifalarni ham ko'rishlari mumkin: Last.fm, Linjedln, MySpace.

Bularning yaratilish maqsad va vazifalari ham yuqorida keltirilgan Web sahifalar bilan o'xshash.

15.6. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish

madaniyati. E'tibor berib, keltirilgan Web sahifalar tahlil qilinsa quyidagi salbiy holatlar va kamchiliklar uchrab turadi:

1. Foydalanuvchilarning ayrimlari o'z nomlari bilan ro'yxatdan o'tishmaydi;
2. Nomaqbul foto sur'atlar qo'yishadi;
3. O'zaro muloqotlarda hurmatsizlik qilishadi;
4. Bema'ni gaplar yozadilar, ba'zan noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanadi;
5. Sahifalar ijtimoiy bo'lishiga qaramasdan siyosiy muloqotlar o'rnatadilar va hokazo.

Demak, ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlardan, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish madaniyati deganda, yuqorida keltirilgan salbiy holatlar va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik tushuniladi.

Unutmaslik kerakki, ma'lum bir shaxs tomonidan Internet tizimiga qo'yiladigan ma'lumotlar boshqa shaxslar yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan turli maqsadlarda ham foydalaniilishi mumkin. Shu jumladan ma'naviyat va ma'rifatga zid ham bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanilganda u yerdagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga, sizni aldashmayotganligiga iqror bo'lib, so'ngra ma'lum bir qarorga kelish kerak.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Ijtimoiy tarmoqlar vazifalarini aytib bering?
2. Odnoklassniki (odnoklassniki.ru) tarmog' i haqida nima bilasiz?
3. Sinifdosh.uz tarmog' iga a'zo bo'ling va o'zingizga do'stlar toping.

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. “Internet ijtimoiy tarmoq xizmatlari” mavzusida taqdimot yarating.
2. Quyidagi qo’sh so’zlar qatnashgan Venn diagrammasini tuzing:
1) odnoklassniki.ru sinifdosh.uz
3. facebook.com tarmog’i to’g’risida ma’lumot tayyorlang.
4. Ushbu mavzuni insert usulini qo’llab o’rganib chiqing.
5. Sinifdosh so’zini klasterga yoying.

16. INTERNETDA INTERAKTIV XIZMATLAR

16.1. Interaktivlik

16.2. Interaktiv xizmatlar

16.3. Interaktiv xizmat turlari

16.4. Transport vositalarining harakatlanish jadvali

16.5. Bank xizmati ma'lumotlari va valyuta kurslari

16.6. Teledasturlar va radioeshittrishlar dasturi

16.7. Ish o'rinlari birjalari

16.8. Sport yangiliklari

16.9. Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlarning Web saytlari

16.1. Interaktivlik. Interaktivlik deganda biz, faqatgina, biz o'rganayotgan fan kesimida texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o'rnatilgan muloqotni tashkil etish tushuniladi. Demak, kompyuter dasturlari shunday yaratilganki, biz u yordamida kompyuter bilan muloqot o'rnatamiz.

Umuman olganda interaktivlik bu muloqot tizimini tashkil etish bilan bog'liq. Ya'ni, maqsadga ko'ra tizim elementlari orasidagi axboriy ma'lumotlar almashinuvi.

Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

16.2. Interaktiv xizmatlar. Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko'riladigan manfaat mavjud bo'lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya'ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan deb tushuniladi.

16.3. Interaktiv xizmat turlari. Hozirgi vaqtda hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e'tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo'li, bu ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi.

Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlariga quyidagilar kiradi:

transport vositalarining harakatlanish jadvali, avia reyslar jadvali, temir yo'l transporti qatnovi jadvali, valyuta kurslari, ob-xavo ma'lumoti, yangiliklar, sport yangiliklari, ish o'rinlari birjalari.

16.4. Transport vositalarining harakatlanish jadvali. Respublikadagi transport vositalarini harakatlarini ifodalash jadvali bir nechta saytlarda berilgan. Foydalanuvchi saytdan o'ziga ma'qul transport vositalarini qatnovi jadvallari haqidagi ma'lumotlarni topadi. Quyida ushbu Web sahifalarni keltirilgan:


<http://www.orexca.com> – sayyohlar uchun mo'ljallangan Web sahifa;

<http://www.tgpt.uz> – Toshkent shahridagi transport vositalari haqidagi Web sahifa;

<http://www.goldenpages.uz/> - O'zbekiston transport qatnovi reys jadvallari sahifasi.

Avia reyslar jadvali. Avia reyslari bo'yicha ma'lumotlar jadvalini aniqlash, ulardan foydalanish uchun <http://uzairways.com> - O'zbekiston havo yo'llari aviya

kompaniya Web sahifasiga murojat qilinadi. Saytda xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi aviya qatnov jadvallari keltirilgan (42-rasm) .



42 – rasm

Temir yo'l transporti qatnovi jadvali. Respublika ichki va tashqi temir yo'l qatnovlari jadvallari va ular haqidagi ma'lumotlarni quyidagi Web sahifalardan topish mumkin.

1. uzrailpass.uz – temir yo'l transport qatnovi jadvali.
2. www.roxanatour.com – Bu sayyohlik firmasi sayti bo'lib, bunda siz xalqaro va O'zbekiston ichidagi temir yo'l qatnovlari va havo yo'llari qatnovi jadvallari va u yerda joylashgan mehmonxonalar xaqida ma'lumot va buyurtmalar majmualarini aniqlashingiz mumkin.


16.5. Bank xizmati ma'lumotlari valyuta kurslari. O'zbekistondagi barcha banklar haqidagi ma'lumotlar va yangiliklar, kunlik valyuta miqdorlari haqidagi ma'lumotlarini quyidagi saytlardan olish mumkin:

www.bank.uz ;
www.mikrokreditbank.uz;
www.agrobank.uz;
www.asakabank.com;
www.new.nbu.com;
www.uzpsb.uz;
www.infinbank.com;
www.xb.uz;
www.ipotekabank.uz;
www.csb.uz

va hakoza banklar.

Ob-havo ma'lumotlari. Respublika barcha viloyatlari va Toshkent shahri hamda xalqaro miqyosda ob – havo haqidagi ma'lumotlarni quyidagi O'zbekistonda yaratilgan Web sahifalardan aniqlash mumkin. ob-havo.uz; www.pogoda.uz; www.meteoprolog.uz (43-rasm).

Ob-havo prognozi bo'yicha eng to'liq ma'lumotlarni www.meteoprolog.uz Web sahifasidan olish mumkin. Sahifa dizayni ham foydalanuvchilar uchun juda qulay.



43-rasm

Yangiliklar. O'zbekiston Respublikasida faoliyatlari doirasida olib borilayotgan asosiy yangiliklar majmuasini uza.uz, gov.uz hamda desk.uz Web saytlari orqali topish mumkin. Ushbu Web sahifalarda Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar Web sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlar mavjud.

16.6. Teledasturlar va radioeshittirish dasturlari. O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasi ma'lumotlari va teledasturlar jadvalini hamda ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni quyidagi Web sahifalardan olishingiz mumkin. www.mtrk.uz;

16.7. Ish o'rinlar birjalari. Respublika doirasida bo'sh ish o'rinlarini topish, aniqlash va muloqot o'rnatish quyidagi Web sahifalar orqali amalga oshirilishi mumkin. www.myjob.uz, www.vakansi.uz bu saytlardan siz ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni va siz o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni to'ldirib jo'natishingiz va javob olishingiz mumkin.

16.8. Sport yangiliklari. Respublika va xalqaro sport musobaqalari, ularning o'tkazilish jadvallari va holatlari haqidagi ma'lumotlarni quyidagi Web sahifalardan qidirish mumkin: www.uff.uz; www.te-uff.com; www.paxtakor.uz; www.bunyodkor.uz; www.fifa.com. Bu saytlardan O'zbekiston futboli va jaxon futboli yangiliklarini olishingiz mumkin. www.allsportsites.net bu saytdan esa sport turlari reytingi yangiliklari haqidagi ma'lumot olishingiz mumkin.

Sportal.uz sport yangiliklari (44-rasm).



44 - rasm

16.9. Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar Web saytlari.

Interaktiv davlat xizmati – idoralar tomonidan idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati quyidagi shakllarda ko'rsatiladi:

- umumiy foydalaniladigan axborotni e'lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, shu jumladan Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish;
- bir tomonlama o'zaro hamkorlik - elektron shakldagi hujjatlarning har xil formulalarlaridan foydalanish imkoniyatini berish;
- ikki tomonlama axborot ayirboshlash - so'rov bo'yicha qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va javob yuborishni o'z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish yoki berish);
- elektron shakldagi ma'lumotlar to'liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish va ularga haq to'lash shaklida ko'rsatilishi mumkin.

Bugungi kunda davlat organlarining Web-saytlari orqali aholiga interaktiv davlat xizmatlari asosida **384** turdagi interaktiv xizmatlar ko'rsatiladi.

Quyidagi Web sahifalardan Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar Web sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlarini topish mumkin.

- O'zbekiston Respublikasi hukumatinnig portali. <http://www.gov.uz> (45-rasm).
- O'zbekiston Respublikasi hukumatinnig portali. <http://www.aci.uz>



45 - rasm

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Interaktiv xizmatga nimalar kiradi?
2. Milliy interaktiv axborot tizimlari haqida ma'lumot bering?
3. Uff.uz sayti qanday yangiliklarga bag'ishlangan?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Internetda interaktiv xizmatlar" mavzusida taqdimot yarating.
2. Quyidagi qo'sh so'z qatnashgan Venn diagrammasi tuzing:
 - 1) Radioeshittirish dastur
 - Teledastur
3. Ish o'rinlari birjasidan o'z mutaxassisligizga mos ishni toping.
4. Sport yangiliklardan O'zbekistonda o'yinging eng yaxshi sportchisiga doir ma'lumotlar oling va chop eting.
5. Ushbu mavzuni insert usulini qo'llab o'rganib chiqing.

17. MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

17.1. Masofaviy ta'lim

17.2. Masofaviy o'qitish

17.3. Masofaviy o'qitish tizimi

17.4. Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari

17.5. Masofaviy o'qitish qo'llash shartlari

17.6. Masofaviy o'qitish modellari

17.1. Masofaviy ta'lim. Insoniyat yigirmanchi asr nihoyasida bir turkum muammolarga duch keldikim, ular bevosita axborot telekommunikatsiya sohasidagi jiddiy o'zgarishlar, xususan axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim, ishlab chiqarish va kishilik jamiyatining turli jabhalariga yangi axborot kommunikatsiya vositalari kirib kela boshladi. Internet global komp yuter tarmog'ini rivojlanishi butun dunyo ta'lim tizimini takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'ldi. O'quv muassasalarining texnik ta'minotini keskin o'zgarishi, dunyoviy axborot resurslarga keng yo'l ochilishi o'qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy ta'lim yaratilishiga omil bo'ldi.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi.

17.2. Masofaviy o'qitish – o'zaro ma'lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat.

Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o'quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo'ladi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxassicligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferentsiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron

pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tasмага muhrlangan videoma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi.

17.3. Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

17.4. Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari – tanlangan o'qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jarayonini ta'minlovchi o'qitish metodi va uslublar majmuasi.

Keys-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, masofaviy ta'limda matnli, audiovizual va multimediali (keys) o'quv uslubiy materiallar majmuasi qo'llanishga asoslanadi.


TV-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, u talabalarga o'quv-metodik ma'lumotlarni televideniye vositasi yordamida yetkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqali ixtiyoriy interaktiv usullardan biri bilan o'rnatishga asoslanadi.

17.5. Masofaviy o'qitishni qo'llash shartlari. Masofaviy o'qitishning ta'lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagi qo'llanish shartlari bilan farqlanadi:

- geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);
- mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;
- kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;
- ta'lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo'llanish darajasi;
- ta'limda qo'llaniladigan an'analar;
- masofaviy o'qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

17.6. Masofaviy o'qitish modellari. Masofaviy o'qitish modellari 46-rasmda keltirilgan.

Birlamchi model. Masofaviy o'qitishning bu shaklida kunduzgi bo'limda bevosita mashg'ulot o'tkazish shart emas, barcha o'qitish ma'lum masofada tashkil etiladi. Lekin ta'lim oluvchilar unga birkirilgan o'qituvchilar bilan doimiy aloqada bo'ladilar. Ta'lim oluvchilarga konsultativ yordam va yakuniy imtihon topshirish uchun mahalliy vakillar tashkil etiladi. Bunda o'quv jarayonining shakl va usullari ta'lim oluvchi va talaba tomonidan erkin tanlanadi, o'quv mashg'ulotlari jadvali va o'qitish vaqti chegaralanmaydi. Ko'pchilik ochiq universitetlarda ta'lim o'qitishning birlamchi modeli asosida qurilgan, masalan, Buyuk Britaniya ochiq universitetida masofaviy o'qitishning ushbu modelidan foydalaniladi ([http:// www.open.ac.uk](http://www.open.ac.uk)).



46 - rasm

Иккиламчи модел. Ta'lim muassasasida o'qish ham kunduzgi ta'limda, ham qisman kunduzgi va qisman masofaviy ta'limda olib boriladi. Har ikkalasida dars jadvali va o'qitish dasturi bir xil.

Ta'lim oluvchilar uchun nazorat bir xil kriteriya asosida baholanadi. Ta'lim muassasasida qo'llaniladigan masofaviy o'qitishning bu ikkilamchi modeli hamma vaqt ham foydali bo'lavermaydi, chunonchi o'qitishning asosiy qismi ta'lim oluvchilar tomonidan qoplanadi. Masalan, ikkilamchi modeldan Avstraliyaning universitetlarida foydalanib kelinmoqda (<http://www.une.edu.au>).

Аралашган модел. Bu model masofaviy o'qitishning turli shakllarini qamrab oladi, to'g'rirog'i turli masalalar integratsiyasi, masalan, ta'lim oluvchilar o'quv materialining ma'lum bir qismini masofaviy o'qitish bilan ketma-ket, boshqa qismini parallel ravishda kunduzgi bevosita o'qitish orqali oladilar. Ayrim mashg'ulotlar virtual seminarlar, namoyish (prezentatsiya), ma'ruza shaklida olib boriladi. Ta'lim muassasasi qanchalik axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlangan bo'lsa, o'qitish shakllari turli-tuman ko'rinishda tashkil etilishi mumkin. O'qitishning bu integratsiya shakllaridan Massey va Yangi Zelandiya universitetlarida foydalanilmoqda (<http://massey.ac.nz>).

Консорциум. Ushbu model ikkita ta'lim muassasasining o'zaro aloqasida olib boriladi, ya'ni o'quv materiallarini ishlab chiqarish va ularni masofaviy o'qitishda ayrim funksiyalarni o'zaro bo'lib olishga asoslanadi. Birinchi muassasa masofaviy o'qitish uchun o'quv materiallarini ishlab chiqish bilan shug'ullansa, ikkinchi muassasa virtual o'quv guruhlarini o'qitish vositalari yoki masofaviy o'qitish dasturi ijrosini ta'minlaydi. O'zaro aloqada, ishlovchi bu muassasalar universitet, yohud ta'lim bilan shug'ullanuvchi markazlar, fakultetlar va hatto tadbirkorlik va davlat tashkilotlari ham bo'lishi mumkin.

Консорциум qat'iy markaziy boshqarish, xususiy mulk va mualliflik huquqi belgilangan tarzda ta'minlangan holda samarali natija beradi.

O'qitishning bu modelidan masalan, Kanadada ochiq o'quv agentligida foydalanib kelinmoqda (<http://www.ola.bc.ca>).

Franchayzing. Masofaviy o'qitishning franchayzing tamoyiliga asoslangan bu modelda muloqotdagi ta'lim muassasalari o'zaro o'zlari yaratgan masofaviy kurslarni almashadilar. Ta'lim xizmati bozorida yaxshi deb topilgan mahsulot egasi bo'lgan

ta'lim muassasasi boshqa ta'lim muassasalariga yaratgan o'quv kurslarini beradi, yoxud masofaviy o'qitish orqali mashg'ulotlar olib boriladi. Ushbu modelning xarakterli jihati shundaki, ma'lum bir ta'lim muassasasida o'qish niyati bo'lgan talaba yetuk oliy muassasaning konsortsiumi orqali o'sha hajmda, lekin yuqori sifatli bilim va o'qish nihoyasida diplom olish imkoniga ega bo'ladi.

Franchayzing modeli asosida o'qish tashkil etilgan ta'lim muassasalariga ochiq universitet - Biznes oliy ta'lim muassasasi va ular bilan muloqotda bo'lgan Sharqiy yevropa universitetlarini keltirish mumkin.

Validatsiya. Masofaviy o'qitishning bu modeli keng tarqalgan o'qitish shakllaridan hisoblanadi. Muloqotda bo'lgan barcha ta'lim muassasalari o'zaro teng darajada masofaviy o'qitish bo'yicha bitim tuzadilar. Ular birgalikda masofaviy o'qitish dasturi va kursini yaratadilar, beriladigan diplom va sertifikatlar bir xil darajada tan olinadi.

Yiroqlashgan auditoriya. Ushbu modelda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari keng qo'llaniladi. Ma'lum bir ta'lim muassasasida tashkil etilgan o'quv kurslari, ma'ruza va seminarlar sinxron teleko'rsatuv, videokonferensiya, radioaloqa tarzida telekommunikatsiya kanallari orqali talabalar yig'ilgan yiroqdagi auditoriyalarga namoyish qilinadi. Bu vaziyatda o'qituvchi talabalar yig'ilgan yirik auditoriya bilan ishlaydi.

Masofaviy o'qitishning bu modelidan AQShning Viskonsin universiteti, xuddi shuningdek, Xitoyning Markaziy radio va televideniye universitetida foydalanib kelinmoqda.

Loyihalar. Masofaviy o'qitishning ushbu modelidan davlat ahamiyatiga molik yirik masshtabli loyihalarni joriy qilishda foydalaniladi. Ushbu modelda asosiy rol o'quv materiallarini yaratgan malakali kadrlar, o'qituvchilar, olimlar yig'ilgan ilmiy-metodik markazga beriladi. Markazda yaratilgan masofaviy kurslar u yoki bu mamlakatning katta auditoriyasiga namoyish qilinadi. Unda o'qitish mavsumiy bo'lib, o'z maqsadiga erishilgandagina tugatiladi. Masofaviy o'qitishning bu kursiga misol qilib ekologiya, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan yangi agrotexnik usullar bilan tanishtirishga oid kurslarni keltirish mumkin. Masofaviy o'qitishning loyihalash modelidan Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tashkilotlarida keng foydalanilmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Masofaviy ta'lim olish tartibini tushuntirib bering.
2. An'anaviy va masofaviy ta'lim umumiy va xususiy jihatlarini sanang?
3. Masofaviy o'qitishni qo'llash shartlari nimalarga bog'liq?
4. Masofaviy o'qitish modellari haqida axborot bering?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Masofaviy ta'lim texnologiyalari" mavzusida taqdimot yarating.
2. Quyidagi qo'sh so'zlar asosida Venn diagrammasini tuzing:
 - 1) An'anaviy ta'lim
 - Masofaviy ta'lim
3. Ushbu mavzuni insert usulini qo'llab o'rganib chiqing.
4. Mavzu bo'lim va iboralariga Blum savollarini bering.

5. Ushbu mavzuni o`rtoqlaringiz bilan “miya hujumi” usulini qo`llab o`rganib chiqing.

18. O'QITISHNING INTERFAOL USULLARI

- 18.1. *Blum savollari*
- 18.2. *Mikroguruhlarda ishlash*
- 18.3. *Insert usuli*
- 18.4. *Sinkvey (axborotlarni yig'ish) usuli*
- 18.5. *"Miya xujumi"*
- 18.6. *Klaster "axborotni yoyish" usuli*
- 18.7. *Venn diagrammasi*

Mamlakatimizda ta'lim soxasida olib borilayotgan ulkan o'zgarishlar ichida ta'limga ilg'or va kompyuter texnologiyalarini qo'llash muxim o'rin tutadi. Ushbu vositalar oqibatida raqobatbardosh, har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlashga erishiladi. Xozirgi kunda inson fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi 60 dan ziyod interfaol strategiya (usul) lar bayon qilingan. Bu strategiyalar o'zining soddaligi, o'ta amaliyligi va o'qitish samaradorligi hamda talabalar fikrlash qobiliyatini beqiyos rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir.

O'qitishning interfaol usullaridan ko'p qo'llaniladiganlarini keltiramiz.

18.1. Blum savollari. Kuzatishlar va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish-talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning muhim omili o'qituvchining ularga va talabalarning bir-biriga beradigan savollari ekanligi aniqlangan. Ta'kidlanishicha o'qituvchilarni o'quvchilarga beradigan savolarining 80-85 foizi, faqat daliliy bilimlarni talab qilib, ular javob berishda xotirada qolganlarini takroran so'zlab berish (bajarish) bilangina cheklanar ekanlar. Xo'sh, qanday savolni fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi savollar qatoriga qo'shish mumkin? Bizning fikrimizcha, ushbu savolning to'g'ri javobi o'quv adabiyotlarda (darslik, qo'llanma, maruzalar matni va h.k) yaqqol bayon etilmagan savolgina talabani fikrlashga mustaqil izlanishga adabiyotlar bilan ishlashga o'zini ustida ishlashga, mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar topishga majbur qiladi.

Bunday savollarga jahon pedagogikasida «Blum savollari» nomi bilan mashhur bo'lgan, o'zlashtirishning oltita: bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash darajalariga muvofiq bo'lgan savollar misol bo'lishi mumkin. Masalan: «Nima uchun?», «Taqqoslang?», «Tarkibiy qismlarga ajrating?», «Eng muhim xususiyatlari nima?», «Buni siz qanday hal qilgan bo'lardingiz?», «Bunga munosabatingiz qanday?» kabi savollar talabalarni yuqori intellektual amallar (tahlil, sintez, baholash) darajasida fikrlashga undaydi. Yoki, matndan parcha o'qib bo'lgandan so'ng, talabalarni fikrlashga undovchi quyidagi savollarni berish ham maqsadga muvofiqdir: «Bu parchaga qanday sarlavha qo'yish mumkin?», «Parchadan uni mazmunini to'la-to'kis anglatuvchi beshta tayanch so'z toping?», «Siz muallifga qanday savol bergan bo'lardingiz?». O'qituvchining talabalarga beradigan savoli to'g'risida fikr yuritilar ekan, uning aniq, lo'nda, tushunarli va ixcham bo'lishi hamda bir savol bilan faqat bitta o'quv elementi (tushuncha, qonun, qoida va h.k) so'ralishi zarurligini alohida ta'kidlash lozim. Berilgan savollar mazmunida mavzuga yoki matnga oid tayanch so'z va iboralardan foydalanish ham muhimdir.

18.2. Mikrogruphlarda ishlash.

Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, gruph talabalari 4-8 kishidan iborat mikrogruphga bo'linadi. Mikrogruph darsning tashkiliy qismida raqamli yoki harfli kartochkalar yordamida shakllantiriladi va alohida ish o'rinlariga o'tiradilar. Barcha mikrogruphga bir xil yoki har biriga alohida topshiriq beriladi. Mikrogruph a'zolari o'zaro fikr almashib, topshiriqni mustaqil yechishlari zarur. O'qituvchi mikrogruphni oralab, ularga (har bir talabaga ham) topshiriqni bajarish uchun yo'llanma va maslahatlar berib boradi. Mikrogruph tarkibi va sardorlari har bir topshiriq hal qilingandan so'ng yoki navbatdagi mashg'ulotda almashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mikrogruphlarda ishlash strategiyasining ahamiyati shundaki, unda topshiriqni bajarishda barcha talabalar ishtirok etadi va ularning har biri sardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi esa, har bir talaba bilan yakka tartibda ishlash uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi.

18.3. Insert (Interactive Noting Sustem for Effective Reading and Tinking) usuli. Asosan o'quv material (matn)ni mustaqil o'qib, o'zlashtirishda qo'llaniladi. Uning mazmuni, o'qish jarayonida matnning har bir satr boshi (yoki qismi)ni avval o'zlashtirilgan bilim va tajribalar bilan taqqoslash va uning natijasini varaqning chap qirg'og'iga quyidagi maxsus belgilarni qo'yish bilan aks ettirishdan iborat:

“V”-belgi, agar o'qiyotganingiz, sizni u haqda bilganingiz yoki bilishingiz to'g'risidagi fikringizga mos, ya'ni o'qiyotganingiz sizga tanish bo'lsa qo'yiladi;

«-» - belgi, agar o'qiyotganingiz, siz bilganga yoki bilishingiz to'g'risidagi fikringizga zid bo'lsa qo'yiladi;

« Q » - belgi, agar o'qiyotganingiz, siz uchun yangi axborot bo'lsa qo'yiladi;

« ? » - belgi, agar o'qiyotganingiz sizga tushunarli bo'lmasa yoki siz bu haqda batafsilroq ma'lumot olishni hohlasangiz qo'yiladi.

Matnni o'qish jarayonida uning chap qirg'og'iga o'zingizni tushunishingiz va bilishingizga mos keladigan to'rt xil belgi qo'yib chiqasiz. Bunda har bir qator yoki taklif etilayotgan g'oyaga belgi qo'yish shart emas. Bu belgilarda siz o'qiyotgan axborot to'g'risidagi o'zingizning yaxlit tasavvuringizni aks ettirishingiz kerak. Shuning uchun ham, har bir satr boshiga bir yoki ikkita, ba'zan esa, bundan ko'p yoki oz belgilar qo'yilgan bo'lishi mumkin. Demak, «insert» usuli bo'yicha belgilar qo'yish, matnning har bir satr boshini anglashni talab qiladi hamda matnni tushunib borilishida o'zini-o'zi kuzatib borilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, talabalar axborotni ongli ravishda o'zlashtirishlari uchun ular matnni tushunishlarini o'zlari kuzatib borishlari zarur. Bu holda ular mulohaza yuritadilar, ya'ni yangi axborotni o'z tajribalari bilan, o'qiyotganini oldindan unga ma'lum bo'lgan bilimlar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlaydilar. Matn mazmunini ongda qayta tasavvur etish va uni «ixchamlash» sodir bo'ladi. Bu esa, tushunishning uzoq muddatli xarakterga ega bo'lishini ta'minlaydi.

18.4. Sinkveyn (axborotni yig'ish) usuli.

Ushbu usul RWCT loyihasida o'rganilayotgan materialni yaxshiroq anglash uchun qo'llaniladigan usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Sinkveyn (fransuzcha)

besht qatorli o'ziga xos, qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan, turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish-murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidasi:

1. Birinchi qatorda mavzu (topshiriq) bir so'z (ot) bilan ifodalanadi.
2. Ikkinchi qatorda mavzuga oid ikkita sifat bilan ifodalanadi.
3. Uchinchi qatorda mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi.
4. To'rtinchi qatorda mavzuga nisbatan (assotsiatsiya) munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr (sezgi) yoziladi.
5. Oxirgi qatorda mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi.

«Axborot» tushunchasiga oid axborotni yoyish va umumlashtirishni sinkveyn tuzishga oid misol tariqasida ko'rib chiqamiz:

1. Axborot
2. Matnli, grafikli
3. Ob'yekt haqida ma'lumot
4. Qaror qabul qilishni belgilaydi
5. Ma'lumot

Tuzilgan sinkveynni baholar ekanmiz, tuzuvchi bu jarayonda ikkinchi qatorda axborotning eng muhim xossalarini anglatuvchi bir juft sifatni o'ylab turish zarur, degan mulohaza qilish mumkin. Ushbuning javobini bir necha xil variantlarini o'ylab topib, so'ngra ulardan eng muvofiq'ini ajratib olish bilangina uddalash mumkin. Xuddi shuningdek, boshqa qatorlarga yoziladigan so'zlar ham jadallik bilan fikrlash natijasida izlab topiladi. Bu esa, «axborot» tushunchasining ma'nosini puxtarok anglashga olib keladi.

18.5. “Miya hujumi” Aqliy hujum (Brain Storming) usuli universal qo'llanish harakteriga ega. Bu usul 1933-yilda Obara (AQSh) tomonidan birinchi bo'lib qo'llanilgan. «Miya hujumi»ning vazifasi mikroguruh yordamida yangi-yangi g'oyalarni yaratishdir (mikroguruhning yaxlitligidagi kuchi uning alohida a'zolarining kuchlari yig'indisidan ko'p bo'ladi). “Miya hujumi” muammoni hal qilayotgan kishilarning ko'proq, shu jumladan aql bovar qilmaydigan va hatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. g'oyalar qancha ko'p bo'lsa, ularning hech bo'lmaganda bittasi ayni muddao bo'lishi mumkin. Bu “miya hujumi” ning negizidagi tamoyildir.

«Miya hujumi» quyidagi qoidalar bo'yicha o'tkaziladi:

- fikr hech qanday cheklanmagan holda, iloji boricha balandroq ovozda aytilishi lozim;
- har qanday fikrni aytish mumkin, u qabul qilinadi.

- g'oyalarga tushuntirish berilmaydi, ular vazifaga bevosita bog'liq holda aytiladi;
- takliflar berish to'xtatilmaguncha, aytilgan g'oyalarni tanqid yoki muhokama qilishga yo'l qo'yilmaydi;
- ekspert guruhi barcha aytilgan takliflarni yozib boradi.

“Miya hujumi” to'xtatilgandan so'ng, ekspertlar guruhi aytilgan barcha g'oya (fikir) larni muhokama qilib, eng maqbulini tanlaydi.

“Miya hujumi” ni - ma'ruzalarda yakka tartibda yoki juftlik (uchlik)da, amaliy va seminar mashg'ulotlarda esa, 4-8 kishidan iborat mikrogruplarda, shuningdek, guruh bo'yicha ham o'tkazish mumkin. Miya hujumi mashg'ulotlarda talabalar faolligini oshirishga, charchoqni yo'qotishga, barchani mavzuning eng maqbul yechimini izlashga sharoit yaratadi.

18.6. Klaster «axborotni yoyish» usuli.

«Klaster» so'zi g'uncha, bog'lam ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratish interfaol pedagogik strategiya bo'lib, u ko'p variantli fikrlashni, o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea) lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi, biror mavzu bo'yicha talabalarni erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashiga yordam beradi. Klasterlarga ajratishni davat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. Asosan, u yangi fikrlarni uyg'otish va muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Klasterlar tuzish ketma-ketligi quyidagicha:


- Sinf yozuv taxtasi o'rtasiga katta qog'oz varag'iga asosiy so'z yoki gapni yozing.
- Sizni fikringizcha bu mavzuga tegishli bo'lgan so'zlar yoki gaplarni yozing (miya hujumi) ni o'tkazing.
- Tushuncha va g'oyalar to'g'risidagi o'zaro bog'lanishini o'rning.
- Eslagan variantlaringizning hammasini yozing.

Klaster tuzishda guruhdagi barcha talabalarining ishtirok etishi, bu guruhda paydo bo'lgan g'oyalarning o'zagini aniqlashni ta'minlaydi.

Klaster tuzishni mashg'ulotni anglash fazasida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu fazada o'quvchi o'quv materialini nafaqat mustaqil va faol o'zlashtirishi, balki o'z tushunishlarini ham kuzatib borishlari hamda klaster tarkibidagi asosiy tushuncha va munosabatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashi zarur bo'ladi.

18.7. Venn diagrammasi.

Bu usul tushunchalarning ikki yoki undan ortiq tushunchalarni o'ziga xos va umumiy jihatlarini taxlil qilish va umumlashtirishda qo'llaniladi. Bunda o'ng va chap aylanalarga tushunchalarning o'ziga xos jihatlari, doiralarning kesishgan sohasiga esa, ular uchun umumiy bo'lgan jixatlar yoziladi. Masalan, «nazariy mashg'ulot» va «amaliy mashg'ulot» tushunchalari uchun Venn diagrammasi quyidagi ko'rinishga ega ega bo'ladi (47 -rasm):



47-rasm

Bu Venn diagrammasini jadval ko`rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

Nazariy mashg`ulotga xos jihatlar	Ikkalasi uchun umumiy bo`lgan jihatlar	Amaliy mashg`ulotga xos jihatlar
1.Nazariy (kognitiv) bilimlar beriladi. 2.Asosan o`qituvchi olib boradi. 3.Fan uchun jihozlangan xonada o`tkaziladi. 4.Talabalar va guruhlar soni ko`p bo`ladi	1. Aniq maqsadga yo`naltirilgan. 2. Vaqti chegaralangan. 3. Dars jadvali asosida o`tiladi.	1.Amaliy ko`nikma va malakalar shakllantiriladi. 2.Nazariy mashg`ulot- dan keyin o`tiladi. 3.Trenajyorlardan foydalaniladi. 4. Nazariyada olishgan bilim mustaxkam-lanadi.

Mavzu bo`yicha savollar:

1. An`anaviy va interfaol o`qitish usullarining umumiy va xususiy jihatlarini ayting?
2. Mikroguruhlarda ishlash usuli qachon qo`llanadi?
3. “Miya hujumi” usuli g`oyasini tushuntiring?
4. Qanday so`zlardan Venn diagrammasi tuzish mumkin?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. “O`qitishning interfaol usullari” mavzusida taqdimot yarating.
2. Ushbu mavzuni o`rganib bo`lgandan so`ng o`zingizga Blum savollarini berib ko`ring, qaysi bosqichda o`zlashtirdingiz.
3. Ushbu mavzuni insert usulini qo`llab o`rganib chiqing.
4. Do`stlaringiz orasida “Miya hujumi” usulida biror mavzuni muhokama qiling.

19. ELEKTRON POCHTA ORQALI MA'LUMOTLARNI UZATISH VA QABUL QILISH (amaliy ish)

19.1. Mail.ru dasturida elektron pochta ochish

19.2. Mail.ru dasturida elektron pochta orqali xabar almashish

19.3. Mail.ru dasturida elektron pochta ochishga misol

19.4. Rambler.ru dasturida elektron pochta ochish


19.1. Mail.ru dasturida elektron pochta ochish. Elektron manzil @ belgisi bilan ajratilgan ikki qismdan iborat, ya'ni **manzilgoh @ foydalanuvchi nomi**

Elektron manzilga misollar: [buni 8080@mail.ru](mailto:buni8080@mail.ru), buni@doda.uz, [ikt t@rambler.ru](mailto:ikt_t@rambler.ru), [ikt t@mail.ru](mailto:ikt_t@mail.ru) va hokazo.

Elektron pochta orqali ma'lumot yuborish uchun ikki yo'nalish mavjud, bulardan biri bepul elektron pochta xizmati deb yuritilib, undan foydalanish uchun Internetda ma'lum bir Web sahifalari mavjuddir. Bular **mail.ru**, **rambler.ru**, **yahoo.ru**, **yahoo.com**, **mail.uz**, **doda.uz**, va hokazo. Foydalanuvchi dastlab, pochta manziliga ega bo'lishi kerak. Pochta manzilini tashkil qilish uchun Internet yexplorer dasturining asosiy oynasiga ushbu Web sahifalaridan biri chaqiriladi va ishga tushiriladi.

Biz quyida eng ommaviy hisoblangan **mail.ru** sahifasida elektron pochta tashqil qilish jarayonini ko'rib chiqamiz.

Mail.ru Web sahifasi orqali yangi elektron pochta tashkil qilish ketma-ketligini ko'rib chiqamiz. Internet yexplorer dasturini ishga tushiramiz. Ekranda paydo bo'lgan Internet Explorer darchasining **Adres** bo'limida(48-rasm) <http://www.mail.ru> manzili yoziladi va [Enter] tugmachasi bosiladi.



48-rasm

Ekranda mail.ru Web sahifasi ishchi oynasi paydo bo'ladi(49-rasm) va **Зарегистрировать почтовый ящик** buyrug'ida sichqoncha tugmachasi bosiladi.



49-rasm

Регистрация почтового ящика

Символом * отмечены поля, обязательные для заполнения.

E-mail * @mail.ru

Пароль *

Повторите пароль *

Если Вы забудете пароль

Выберите вопрос *

или укажите свой

Ответ на вопрос *

Доп. e-mail

Дополнительная информация о пользователе

Имя

Фамилия

День рождения * 1988

Ваш пол ☒ Мужской ☐ Женский

Ваша страна

Регион

Ваша почта *

Почта не существует

Почта существует

50-rasm

Ekranida elektron pochta manzilini qayd etish(**Регистрация**) oynasi paydo bo`ladi(50-rasm).


E-mail darchasida (50-rasm) pochta manzili nomi(masalan, Akram558), **Пароль** bo`limida ixtiyoriy parol (masalan, aa9417) kiritiladi va kiritilgan parolni tasdiqlash uchun **Повторите пароль** bo`limida **пароль** qaytadan kiritiladi.

Если Вы забудете пароль darchasi foydalanuvchi o`zining elektron pochta parolini unutgan bo`lsa, uni qayta tiklash imkonini beradi va u quyidagicha bajariladi. **Выберите вопрос** darchasidan ko`rsatilgan ixtiyoriy punkt tanlanadi, so`ngra **Или укажите свой, Ответ на вопрос** va **Доп. E-mail** darchalarida ham ixtiyoriy ma`lumot kiritilishi mumkin.


Дополнительная информация о пользователя punktida ketma-ket quyidagilar kiritiladi: **Имя** darchasida foydalanuvchi ismi, **Фамилия** darchasida familiyasi, **День рождения** darchasida tug`ilgan kuni, oyi va yili ko`rsatiladi. **Ваш пол** darchasidan kerakli punkt (**мужской** yoki **женской**) tanlanadi. **Ваша страна** darchasidan mamlakat nomi ko`rsatiladi (O`zbekiston). **Регион** darchasida o`z viloyatingiz markazi yoki shahringiz nomini kiritasiz (masalan Namangan). **Число на картинке** darchasida **Защита от автоматических регистраций** darchasida paydo bo`lgan raqamlar kiritiladi va so`ngra **Зарегистрировать почтовый ящик** bandida sichqoncha tugmachasi bosiladi. Agar pochta manzili boshqa pochta manzil nomi bilan ustma-ust tushmasa, foydalanuvchi pochta manzili ro`yxatda qayd qilinadi. Agar pochta manzili boshqa pochta manzili nomi bilan ustma-ust tushsa, u holda ekranida bu to`g`risida ma`lumot paydo bo`ladi hamda komp yuter foydalanuvchiga boshqa pochta nomlarini(ro`yxatdan o`tmagan) taklif qiladi. Foydalanuvchi ro`yxatdan hohlagan nomni yoki o`zi hohlagan boshqa nomni tanlab, **Регистрация** darchasining tegishli bandlariga o`zgartirishlar kiritib, pochta manzilini tashkil qilishi mumkin.

19.2. Mail.ru dasturida elektron pochta orqali xabar almashish

Tashkil qilingan elektron pochta orqali boshqa elektron manzilga xat jo`natish ketma-ketligini ko`rib chiqamiz: dastlab, **mail.ru** Web sahifasi ishga tushiriladi va ekranida hosil bo`lgan ishchi oynaning **Имя** darchasida foydalanuvchi elektron manzili va **Пароль** darchasida paroli kiritiladi va **Войти** tugmachasi bosiladi. Ekranida paydo bo`lgan darchadan **Написать письмо** buyrug`i tanlanadi. Ekranida quyidagi oyna paydo bo`ladi(51-rasm).



51-rasm




52-rasm


Кому darchasiga xat jo`natilishi kerak bo`lgan elektron manzil, **Копия** darchasiga, agar shu xat boshqa manzilga ham jo`natilishi kerak bo`lsa, o`sha manzil, **Тема** darchasiga xat mavzusi yoziladi. Xat mazmuni pastki bo`sh oynaga yoziladi va **Отправить** tugmachasi bosiladi. Agar xat to`g`ri jo`natilgan bo`lsa, u holda ekranda **Успешно отправлен** ma`lumoti paydo bo`ladi.

Foydalanuvchi elektron manzil orqali kompyuter xotirasidagi ixtiyoriy fayllarni ham jo`natishi mumkin. Buning uchun **Кому**, **Копия** va **Тема** darchalari odatdagidek to`ldiriladi va **Обзор** tugmachasi bosiladi. Ekranda kompyuter xotirasidagi fayllar ro`yxati paydo bo`ladi, undan kerakli fayl tanlanadi va **Открыть** tugmachasi bosiladi (52-rasm).

Файлы darchasida tanlangan fayl nomi paydo bo`ladi, keyin **Прикрепить** tugmachasi bosiladi (53-rasm). Agar bir nechta faylni jo`natish kerak bo`lsa, qolgan fayllar ham shu tartibda tanlanadi.



53-rasm



54-rasm

Umuman olganda, foydalanuvchi pochta orqali yuborishi kerak bo`lgan ma`lumotni oldindan boshqa dasturda (masalan Word da) tayyorlab, keyin elektron pochta orqali jo`natishi maqsadga muvofiqdir.


Foydalanuvchi elektron pochtaiga kelgan xatlarni ko`rishi uchun **Входящие** buyrug`i tanlanadi. Ekranda pochtaga kelgan xatlar ro`yxati paydo bo`ladi (54-rasm).

Unda xat kimdan kelgan, mavzusi, pochtaga qachon kelib tushgan va fayl o`lchami to`g`risida ma`lumot saqlangan. Foydalanuvchi xatni o`qishi uchun, **Тема** bandida sichqonchani chap tugmachasi bosiladi. Ekranda xat mazmuni paydo bo`ladi. Foydalanuvchi xatni o`qishi va agar zaruriyat bo`lsa **Файл→Печать** buyrug`i orqali printerda chop qilishi mumkin. Elektron pochtaidagi keraksiz xatni o`chirish uchun dastlab u belgilanadi va **Удалить** tugmachasi bosiladi. o`chirilgan fayl **Корзина** ga borib tushadi. **Корзинани** tozalash **Корзина очистить** buyrug`i orqali amalga oshiriladi.

Foydalanuvchi xatdagi imlo xatolarni (agar matn rus yoki ingliz tilida yozilgan bo`lsa) **Проверить** buyrug`i orqali tekshirishi mumkin. **Перевести текст** buyrug`i orqali esa rus tilida yozilgan matnni ingliz tiliga(рус>>eng) yoki aksincha, ingliz tilida yozilgan matnni rus tiliga(eng>>рус) tarjima qilishi mumkin.

19.3. Mail.ru dasturida elektron pochta ochishga misol


Kompyuter - Internet tarmog'iga ulangan bo'lishi kerak. Ishchi stoldan Internet yexplorer maxsus brauzeri yorlig'i ustida sichqonchani o'ng tugmasini 2 marta bosish orqali ishga tushiriladi. Internet Explorer maxsus dasturining bosh oynasining manzillar qatoriga www.mail.ru yozilgach **ENTER** tugmasi bosiladi, va mail ning quyidagi bosh saxifa oynasi namoyon bo'ladi Elektron



55-rasm


pochta yaratish uchun mail ning ishchi oynasidan “Регистрация в почте” tanlanadi (55-rasm).

Hosil bo'lgan oynada elektron pochtaga nom (login) familiya kiritilib so'ngra pochtaga yangi nom (agar kiritgan nom mavjud bo'lsa bizga **Ism va Familiyamizdan** foydalanib variant taklif qiladi) va parol (parolni qayta kiritib tasdiqlab qo'yiladi va u **murakkablik darajasi** ko'rinib turgan kalitlar asosida ifodalanadi) quyidagi 56-rasmdagi so'rovnomanini ketma-ketlik asosida to'ldirilib “Зарегистрироваться” tugmasi bosiladi.




56-rasm

Agar berilgan so`rovnom a to`liq to`ldirilgan bo`lsa u holda bizga quyidagicha oyna namoyon bo`ladi va belgilangan katakchaga rasmdagi kodni kiritib “Готово” tugmasini bosish talab etiladi (57-rasm).




57-rasm

Shundan so`ng [ikt\\_ht@mail.ru](mailto:ikt_ht@mail.ru) saxifasi namoyon bo`ladi (58-rasm). Agarda sahifadan chiqish kerak bo`lsa “ВЫХОД” tugmasi bosiladi.



58-rasm


Istalgan brauzer yordamida manzillar qatoriga www.mail.ru terilib Enter tugmasi bosiladi (59-rasm). Sahifa ishga tushgach “Почта” bo`limiga [ikt\\_ht@mail.ru](mailto:ikt_ht@mail.ru) va parolni kiritib “Войти” tugmasi bosiladi (58-rasm ko`rinishdagi oyna namoyon bo`ladi)



59-rasm


19.4. Rambler.ru dasturida elektron pochta ochish. Kompyuter - Internet tarmog`iga ulangan bo`lishi kerak. Ishchi stoldan Internet Explorer maxsus brauzeri yorlig`i ustida sichqonchanning o`ng tugmasini 2 marta bosish orqali ishga tushiriladi.

Internet Explorer maxsus dasturining bosh oynasining manzillar qatoriga www.rambler.ru yozilgach **ENTER** tugmasi bosiladi, va rambler ning quyidagi bosh saxifa oynasi namoyon bo`ladi Elektron pochta yaratish uchun avvalam bor rambler ning ishchi oynasidan “Завести почту на рамблере” tanlanadi (60-rasm).



60-расм

Hosil bo`lgan oynada elektron pochtaga nom (login) va ism –familiya kiritilib “продолжить ” tugmasi bosiladi (61-rasm)



61-расм

Rambler ID - Microsoft Internet Explorer

Файл Правка Вид Избранное Сервис Справка

Назад Адрес: http://id.rambler.ru/script/newuser.cgi

mail.ru Поиск Мой мир Блоги Фото Видео \$ 30.1851 € 43.4605 Москва - 15 ° C

Rambler ID

Регистрация пользователя **natunauchun1@rambler.ru** на Рамблере

Символом * отмечены обязательные поля. Введенные данные будут использоваться строго в соответствии с [правилами Рамблера о защите данных о пользователях](#).

Не указан пароль

Пароль: *

Повторите пароль: *

Если Вы забудете пароль

Вопрос: *

Ваш ответ: *

Контактный email:

если есть

Рамблер и ICQ

Номер ICQ: *

☒ получить новый номер

Ник:

☐ Опубликовать имя, фамилию, пол и день рождения в каталоге ICQ

☐ у меня уже есть номер ICQ

☐ не сейчас

Дополнительная информация

День рождения:

Ваш пол: * ☒ мужской ☐ женский

Новости от Рамблера: ☒ получать

Защита от автоматических регистраций:



Введите символы, изображенные на картинке.

Регистрируясь, Вы соглашаетесь с [условиями использования персональных служб и сервисов Рамблера](#).

О Рамблере Правовая информация Конфиденциальность
Вакансии Связаться с нами Добавить ресурс Разместить рекламу


Copyright © 1996-2009
ООО "Рамблер Интернет Холдинг"

Интернет

пуск Total Com... 3 Micro... Rambler ID... Person Re... 1018:562 ... MP2: 30 - 2... EN 20:04

62-расм

Berilgan nom (login)ga parol beriladi va qolgan bo'limlar to'ldirilib, ko'rsatilgan joyga berilgan simvollarni (*simvollar rasm ko'rinishda berilib, boshqa rasmni ko'rsating so'rov imkoniyati bor*)  kiritilib  tugmasi bosiladi (62-rasm).



63-rasm

Barcha ishlar muvaffaqiyatli bajarilgandan so'ng *(Поздравляем! Вы зарегистрированы на Рамблере. Tabriklaymiz! Siz Ramblerda ro'yxatdan o'tdingiz)* quyidagi oyna namoyon bo'ladi (63-rasm).

bo'yicha savollar:

1. Mail.ru dasturida elektron pochta ochish tartibini so'zlab bering?
2. Rambler.ru dasturida elektron pochta qanday ochiladi?
3. Mail.ru va Rambler.ru dasturlarida xatlar almashish qanday amalga oshiriladi?
4. Xatlar bilan birga fayllarni jo'natish qanday amalga oshiriladi?

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. "Elektron pochta orqali ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish (amaliy ish)" mavzusida taqdimot yarating.
2. O'z elektron pochtagiz orqali do'stingizni bayram (tug'ilgan kuni) bilan tabriklang.
3. Ushbu mavzuni insert usulini qo'llab o'rganib chiqing.
4. Ushbu mavzu bo'lim va atamalariga Blum savollarini berib ko'ring.
5. Mail.ru va Rambler.ru so'zlari asosida Venn diagrammasini tuzing.

Xalqaro domenlar

Domen	Belgilanishi
.AERO	Aviatsiyaga oid ma`lumotlar
.ARPA	Internet Architecture Board maslahatiga ko`ra amaliy zarur infratuzilmani qo`llab-quvvatlovchi tashkilotlar
.ASIA	Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga oid ma`lumotlar
.BIZ	Biznesga oid ma`lumotlarga oid ma`lumotlar
.CAT	Kataloniya til va madaniyat hamjamiyatlariga oid ma`lumotlar
.COM	Tijoriy tashkilotlarga oid ma`lumotlar
.COOP	Kooperativlarga oid ma`lumotlar
.EDU	Ta`limga oid ma`lumotlar
.GOV	Hukumat muassasalariga oid ma`lumotlar
.INFO	Umumiy axborot beruvchi ma`lumotlar
.INT	Halqaro tashkilotlarga oid ma`lumotlar
.JOBS	Ish o`rinlari saytlari
.MIL	Harbiy tashkilotlarga oid ma`lumotlar
.MOBI	Mobil mahsulot va xizmatlarga oid ma`lumotlar
.MUSEUM	Muzeylarga oid ma`lumotlar
.NAME	Jismoniy shaxslarga oid ma`lumotlar
.NET	Provayderlar va tarmoq tashkilotlariga oid ma`lumotlar
.ORG	Notijoriy tashkilotlarga oid ma`lumotlar
.PRO	Kasbiy ma`lumotlar
.TEL	Shaxsiy ma`lumotlarni nashr etuvchi kompaniya va shaxslar
.TRAVEL	Turizm sohasidagi kompaniyalarga oid ma`lumotlar

Milliy domenlar

Domen	Belgilanishi	Domen	Belgilanishi
.AE	BAA	.LT	Litva
.AF	Afgoniston	.LV	Latviya
.AM	Armaniston	.MD	Moldova Respublikasi
.AR	Argentina	.MN	Mongoliya
.AU	Avstraliya	.MX	Meksika
.AZ	Ozarbayjon	.MY	Malayziya
.B	Bahrayn	.NO	Norvegiya
.BR	Braziliya	.NZ	Yangi Zelandiya
.BY	Belarus	.OM	Ummon
.CA	Kanada	PK	Pokiston
.C	Shveytsariya	.PL	Polsha
.CN	Xitoy	.PT	Portugaliya
.CZ	Chexiya Respublikasi	.A	Qatar
.DE	Germaniya	.RO	Ruminiya
.DK	Daniya	.RS	Serbiya
.EE	Estoniya	.RU	Rossiya Federatsiyasi
.ES	Ispaniya	.SA	Saudiya Arabistoni
.EU	Yevropa Ittifoqi	.SE	Shvetsiya
.FI	Finlyandiya	.SG	Singapur
FR	Fransiya	.SI	Sloveniya
.GB	Buyuk Britaniya	.SK	Slovakiya
.GE	Gruziya	.SU	SSSR (sobiq)
.GR	Gretsiya	.TJ	Tojikiston
.U	Vengriya	.TM	Turkmaniston
.IN	Hindiston	.TR	Turkiya
.I	Iroq	.UA	Ukraina
.IR	Eron	.UK	Birlashgan Qirollik
.IT	Italiya	.US	AQSh
.JP	Yaponiya	.UY	Urugvay
.KG	Qirg'iston	.UZ	O'zbekiston
.KP	KXDR	.VN	Vyetnam
.KR	Koreya Respublikasi	.Yu	Yugoslaviya
.KW	Quvayt	.ZA	Janubiy Afrika
.KZ	Qozog'iston		

Jaxon axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish bosqichlari**825**

-Buyuk matematika, astronomiya, jo'g'rofiya olimi Abu Abdulloh Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy tomonidan o'nlik sanoq tizimida to'rtta asosiy amallarni bajarish algoritmi berilgan. "Algoritim" atamasi Al-Xorazmiy nomidan kelib chiqqan.

1642

-Birinchi mexanik hisoblash apparati frantsuz fizigi, matematigi va faylasufi Blez Paskal tomonidan kashf qilingan. Apparat sonlarni qo'sha oladigan mashina ko'rinishida bo'lgan. Paskal uni soliqlarni hisoblashda otasiga ko'maklashish uchun yaratgan edi.

1812

-Ingliz olimi Charlz Bebbidj mexanik kalkulyatorni ishlab chiqqan va 1823-yilda uni qurgan. Mexanik kalkulyator bug' yordamida harakatga keltirilgan va to'la avtomatik bo'lgan. Mexanik kalkulyator ichiga o'rnatilgan dastur bilan boshqarilgan.

1844

-Morze alifbosidan foydalanib telegraf yordamida birinchi xabar yuborilgan.

1866

-To'g'ridan-to'g'ri va bir zumda aloqa qilish uchun transatlantik kabel yotqizilgan.

1876

-Aleksandr Grehem Bell telefon kashf etgan.

1895

-Aleksandr Stepanovich Popov tomonidan radio kashf etilgan.

1896

-IBM korporatsiyasiga asos solingan

1936

-Ingliz olimi Alan Tyuring kompyuterning rasmiy modeli - Tyuring mashinasini yaratgan. U biror muammo uchun algoritm mavjud bo'lmasa, binobarin, Tyuring mashinasini yaratish mumkin bo'lmasa, bunday muammoni kompyuter ham yecha olmasligini ko'rsatib bergan.

1941

-Nemis olimi Konrad Suze dunyoda birinchi marta sonlarga ishlov berish uchun ikkilik tizimidan foydalanib 33 releli kompyuterni yaratgan.

1942

-ENIAC, Amerika lampali kompyuteri yaratilgan.

1947

